

NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABRORXONOVA KAMOLAXON ABRORXON QIZI

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA  
INNOVATSIYA VA  
INTEGRATSIYA  
fanidan**

DARSLIK

60110500 – Boshlang'ich ta'lim bakalavriat  
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

Toshkent  
2025

ISBN 978-9910-8160-2-4  
UO'K: 001(093)(075.8)  
BBK: 72ya73  
P 87

**K. Abrorxonova**

Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya fanidan [Matn] : darslik / K. Abrorxonova. – Toshkent: Bayoz, 2025. – 336 b.

#### Annotatsiya

Mazkur darslik 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishida Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi fanini o'qitishda foydalanish uchun yaratilgan bo'lib, pedagogika fanini o'qitish orqali shaxsning yetuklik, kamolot cho'qqilariga erishishda ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda manba sifatida xizmat qiladigan mavzularni o'z ichiga olgan.

Darslikdan oliy ta'lim muassasalari 60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, umumta'lim maktablari o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

#### Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari doktori, professor F.R. Yuzilikayev  
Pedagogika fanlari doktori, dotsent U.U. Jumanazarov

ISBN 978-9910-8055-9-2

UO'K: 94(376)  
BBK: 63.3(0)3 2

© "Bayoz", 2025.

© K. Abrorxonova, 2025.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish" vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalari jirosi maktabdagi ta'lim sifatini samaradorligini oshirish, innovatsion jarayonlarni boshqarish, o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga yo'naltirish, umumiy o'rta ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarishga kompetent menejerlarni tayyorlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2018-yil 21-sentyabrdagi "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonlari, 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarori "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" fanini o'qitishning metodologik asosi sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan avlod va bo'lajak mutaxassislarining barkamol bo'lib voyaga yetishlariga alohida e'tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs ta'lim-tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohatlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birinchi yurtboshimiz I.A.Karimov ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir" – deb alohida ta'kidlagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 20-dekabrda murojaatnomasida "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", – deydi. "Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundaygina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu bois ham kelgusi yillarda boshlang'ich ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab

olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat".

Darslikda mualliflar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonida boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya fanining mazmuni, shaxs rivojlanishining umumiy qonunlari, uning tashxisi to'g'risida g'oyalari, boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogika, an'anaviy va innovatsion ta'limning qiyosiy tahlili, boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuv, masofaviy ta'limda innovatsionning roli, innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchining kreativligi, hozirgi davrda jahon mamlakatlari masofaviy ta'lim tizimi, tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv kabi masalalar tizimli, izchil va ketma-ketlikda yoritib berilgan.

Muallif tomonidan tayyorlangan darslik 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU rektorining 2020-yil 12-iyulda tasdiqlangan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" fanining namunaviy dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, har bir bo'limda tayanch so'zlar berilgan bo'lib, darslik oxirida o'tilgan mavzular bo'yicha Glossariy, "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" fanidan testlar berilgan. Darslik nafaqat universitet talabalari, balki magistrlar va o'qituvchilar uchun, shuningdek, ushbu kursga qiziquvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkin, mazkur darslik 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" kursiga qo'yiladigan talablarga javob beradi va uni nashrga tavsiya etish mumkin.

# I. BOSHLAG'ICH TA'LIMDA INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYA FANING MAZMUNI, PREDMETI, METODOLOGIYASI, ILMIY TADQIQOT OBYEKTI, METODLARI



*Tayanch so'zlar: Pedagogika, maqsad, vazifa, obyekt, predmet, kategoriya, pedagogikaning sohalari, pegagika fani metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot metodlari.*

## Boshlag'ich ta'lim pedagogikasi fanining tarixi va rivojlanishi

1-5

Har qanday davlatning rivojlanishi uning intellektual salohiyatiga bog'liq. Intellektual salohiyat xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotni ta'minlay oladigan mustaqil fikrli, malakali, bilimli, yuksak insoniy fazilatlarga ega kadrlarni tayyorlash mezonidir.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi"ga erishishda "Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz" deya alohida urg'u berilgani bejiz emas.



**Pedagogika** (yunoncha pedagogike bo'lib, peida – "bola" va gogike – "yetaklayman") ijtimoiy tarbiyaning umumiy

## IQISM

# MA'RUZA


# MASHG'ULOTLARI

# MAZMUNI

qonuni yatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

**Pedagogika** ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

**Pedagogika** – ta'lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o'rganadigan fan sohasi. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi



**Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi** – boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.

**Didaktika** (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos "o'rgatuvchi", didasko "o'rganuvchi") ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakli, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tadqiq etadi.

**Tarbiya nazariyasi** – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakli, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o'rganadi.

**Ijtimoiy tarbiya** fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

**Pedagogika fanining obyekti** – yaxlit pedagogik jarayon.

**Pedagogika fanining predmeti** - ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakli, metod va vositalari.

## 2-9 Fanning maqsad va vazifasi

**P**edagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlarning mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

### Fanning asosiy vazifalari

- **Metodologik:**  
pedagogik fanlarning umumnazariv asoslarini aniqlashtirish.
- **Analitik**  
– ta'lim va tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, sabab-oqibati aloqadorligini o'rganish;  
– pedagogik tajribani tahlil etish, umumlashtirish va baholash.
- **Prognostik**  
– ilmiy asoslangan maqsadlarni belgilash va ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish strategiyalarini belgilash;  
– Ta'lim siyosatini samarali boshqarishni ta'minlash.
- **Tashkiliy**  
– yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion shakl va vositalarni ishlab chiqish;  
– pedagogik tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish;  
– ta'lim jarayonini boshqarishning ilmiy-metodik ta'minotini yaratish.

### Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi.

“

Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi.

”

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish.

**Shaxs** – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

**Tarbiya** – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ong, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

**Ta'lim** – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

**Bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

**Ko'nikma** – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

**Malaka** – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

**Kompetensiya** – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

**Ma'lumot** – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

**Shakllantirish** – shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarini belgilangan talab va me'yorlar asosida tarkib toptirish jarayoni.

**Rivojlanish** – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

### 3-5 Fanning metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot metodlari

**P**edagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni hal etish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika fani metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalarning ishonchligini ta'minlash, boshqa tomondan metodologik bilimlarsiz pedagogik tadqiqotlarni samarali tashkil etish va o'tkazish mumkin emasligini uqtiradi.

Bugungi kunda ijodiy jarayonda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilarniz.

Metodologiya alohida fan sifatida ikkita funktsiyani bajaradi: deskriptiv (ifodalovchi) va perskriptiv (me'yorlovchi). Birinchisi ob'yektni nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, keyingisi – tadqiqotchi uchun aniq mo'ljal olishga shart-sharoit yaratadi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi – nazariy va me'yoriy.

#### Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- "metodologiya" tushunchasi ta'rif;
- fan metodologiyasining umumiy tavsifi, uning

darajalari;

- metodologik bilimlar va faoliyat tizim sifatida;
- pedagogika sohasidagi tadqiqot faoliyatini metodologik ta'minlash manbalari;
- pedagogik tadqiqot ob'yekti va predmetining metodologik tahlili.

#### Me'yoriy asos quyidagi savollar doirasini qamrab oladi:

- pedagogikani ob'yektiv borliqni ma'naviy jihatdan o'zgartirishning boshqa shaklidan farqli tomonlarini ilmiy asoslash;
- pedagogika sohasidagi ishlarni fanning fundamental asoslariga muvofiqligini aniqlash;
- maqsadning aniqligi;
- maxsus tadqiqot ob'yektini ajratish;
- maxsus bilish metodlari va vositalarini qo'llash;
- atamalarining bir xil qo'llanilishi;
- pedagogik tadqiqotlarni tizimlashtirish;
- tadqiqot asosnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot ob'yekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazi, himoya qilinadigan holatlar, ilmiy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati; pedagogik tadqiqotning tarkibi va mantiqiy ketma-ketligi;
- pedagogik fanlar tizimi, ularning o'zaro aloqasi:

Tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va me'yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini tashkil etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta'limot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog'i, metodologiya **predmeti** – faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariya demakdir.

Pedagogika metodologiyasi o'zida pedagogikaning nazariy asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishga doir yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, mazkur bilimlar tizimini qo'lga kiritishga doir faoliyat tizimini o'zida mujassamlashtiradi.

Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ilmiy bilishning ikki jihati – bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqot faoliyat qamrab olingan. Har ikki faoliyat turi – metodologik tadqiqot va metodologik ta'rimot hisobga olingan. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatlari va yo'nalishlari, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish prinsiplari, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi – metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi.

Shu bilan birga pedagogik muammolarning umumnazarini muammolar bilan almashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki, birinchisi "qanday qilib metodologiyani pedagogikaga qo'llash mumkin?" degan savolni aniqlashtirsa, ikkinchisi - umumnazarini savollar esa pedagogikaning predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, ta'lim va tarbiya mohiyati kabi umumiy savollar yechimiga qaratiladi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyekt va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni

va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;
- tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olingani;
- tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o'tish;
- tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

#### Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

- Pedagogik kuzatish metodi.
- Suhbat metodi.
- Anketa metodi.
- Intervyu metodi.
- Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
- Test metodi.
- Pedagogik tahlil metodi.
- Bolalar ijodini o'rganish metodi.

- Pedagogik tajriba metodi.
- Matematik-statistik metod.

**Pedagogik kuzatish metodi.** Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijaga erishish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

**Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:**

- kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

**Suhbat metodi.** Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon etilishiga erishish muhim. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
- suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- suhbat ishtirokchilarining soni haqida ma'lum to'xtamga kelish;
- suhbatdosh to'g'risida avaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil aytib olishi uchun sharoit yaratish;
- savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

**Anketa metodi** (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan mulohazotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

1. ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
2. yopiq turdagi savollar (respondentlar "ha", "yo'q", "qisman" yoki "ijobiy", "qoniqarli", "salbiy" va hokazo tarzidagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

**Anketa metodini qo'llashda ham qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:**

- anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmisligi kerak;
- anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;
- anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;
- anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

**Intervyu metodi** respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

**Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi.** Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

**Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat:**

- O'quv mashg'ulotlarining jadvali;
- o'quv dasturi;
- guruh (yoki sinf) jurnallari;
- o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar;
- Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar;
- Pedagogik Kengash qarorlari;
- ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti;
- tarbiyaviy ishlar rejasi;
- o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar;
- ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

**Test metodi.** Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

1. ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
2. yopiq turdagi savollar (respondentlar "ha", "yo'q", "qisman" yoki "ijobiy", "qoniqarli", "salbiy" va hokazo tarzidagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).
3. to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar

(respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra "to'g'ri" deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas.

**Pedagogik tahlil metodi.** Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

**Bolalar ijodini o'rganish metodi.** Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

**Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:**

- bilimlar bellashuvi;
- fan olimpiadalari;
- turli mavzulardagi tanlovlar;

- maktab ko'rgazmalari;
- festivallar;
- musobaqalar.

**Pedagogik tajriba** (eksperiment - lotincha "sinab ko'rish", "tajriba qilib ko'rish") metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsialarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlab hamda unga baho bera olishi zarur.

## 4-S O'zbekistonda va xorijda boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimi

**O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida O'zbekistonda ta'lim tizimi va turlari quyidagicha belgilangan:**

### 6-modda. Ta'lim tizimi

- davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini;
- davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini;
- ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

**Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.**

### 7-modda. Ta'lim turlari

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

### 9-modda. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim

- Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.
- Umumiy o'rta ta'lim (I – XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:
  1. boshlang'ich ta'lim (I – IV sinflar);
  2. tayanch o'rta ta'lim (V – IX sinflar);
  3. o'rta ta'lim (X – XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim, ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarining zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish

uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Boshlang'ich ta'lim O'zbekistonda majburiy, bepul va barchaga taalluqli hisoblanadi. Bu maktab yoshiga yetgan barcha bolalar umumiy yoki maxsus (nogiron bolalar va rivojlanishdan orqada qolgan bolalar) boshlang'ich maktabga borishlarini bildiradi. Bolalarni boshlang'ich ta'limga jalb qilish mos keluvchi yoshidagi bolalarning 100% tashkil qiladi. Bola boshlang'ich maktabni tugatar ekan, u o'qish, yozish va hisoblash mahoratiga ega bo'lishi kerak. O'quvchiga nazariy fikrlash elementlari, o'rgatilgan harakatlarni boshqarish mahorati singdirib boriladi. Nutq madaniyati, shaxsiy gigiena asoslari, sog'lom hayot tarzi va jamiyatda o'zini tutish bilimlari ham berib boriladi. O'quv fanlarining sifat va tarkibi boshlang'ich maktabda, maktab turi va o'qitish sharoitlariga ko'ra o'zgarib turadi.

Maktabning barcha birinchi sinf o'quvchilari bepul o'quv kitoblari va o'quv asboblari bilan ta'minlanadi.

O'zbekistonda boshlang'ich va o'rta ta'lim tashkil qilinishi va tarkibiga ko'ra bir-biri bilan bevosita bog'liq. Har bir umumta'lim maktabi ikkala pog'onada umumiy o'rta ta'limni amalga oshiradi. Bu boshlang'ich maktabda bitiruvchilarning to'liq hisobini olib borishni va umumiy o'rta ta'lim tizimida uzluksizlikni ta'minlaydi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogika fani nimani o'rganadi?
2. Pedagogika fanining obyekti va predmetini izohlang.
3. Pedagogika fanining asosiy vazifalariga izoh bering.
4. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini asoslang.
6. Pedagogik fanlar tizimini shartli ravishda asosiy, yordamchi va mustaqil fan sohasi yo'nalishlariga turkumlang.
7. Pedagogika fani metodologiyasi tushunchasiga izoh bering.
8. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari haqida gapirib bering.

## II. BOSHLANG'ICH MAKTABDA PEDAGOGIK JARAYONNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TEKNOLOGIYALARI



*Tayanch so'zlar: pedagogik jarayon, bilim, ko'nikma, va malaka, baho, baholash, mezon, nazorat, tendensiya, texnologiya, ta'lim texnologiyalari.*

### 1-S Pedagogik jarayonning zamonaviy tendensiyalari

**O**zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z asarlarida "Yana bir bor ta'kidlagan: - Men Yangi O'zbekistonda obod va farovon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renesansni barpo etishda pedagoglar, professor-o'qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch deb bilaman... Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilmi-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz", deb ta'kidlaganlar.

Bunday jihatlar uzluksiz ta'lim tizimida qo'lga kiritilayotgan sifat o'zgarishlarining mazmun-mohiyatiga bog'liq bo'lib, u ko'proq boshlang'ich ta'limga ham tegishlidir. Bunga sabab boshlang'ich ta'limda o'quvchilar savodxonlik asoslari, hisoblash tafakkuri, mehnat ko'nikmalari va shaxs ma'naviyati elementlari bilan qurollantiriladi hamda yuqori sinflarda o'rganiladigan fanlar asoslari bilan tanishtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning PQ-5847-sonli qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da: oliy ta'lim mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga

munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilishi Konsepsiyadan kutilayotgan natija sifatida e'tirof etiladi.

Shu sababdan zamonaviy ta'lim tizimi, uning maqsad va vazifalari mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan muammo yechimiga mos kelishi kerak. Bular zamonaviy ta'lim tizimida millat ruhiyatining nozik jihatlariga kirib borish va boshlang'ich ta'limda savodxonlik asoslarini puxta egallash hamda hisoblash tafakkurini shakllantirishning innovatsion usullarini yaratishni taqozo etadi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarni uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichi bo'lmish boshlang'ich ta'limdan boshlash ahamiyatli va foydali hamda istiqbolli ekanligi hozirda hech kimga sir emas. Chunki, bu orqali O'quvchilar jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asoslarini egallagan, Vatanning istiqbolini o'ylaydigan, Vatan ravnaqiga, yurt tinchligiga va xalq farovonligiga munosib hissa qo'sha olish mumkinligini ongli ravishda his qila oladilar. Bu tabiiyki, boshlang'ich ta'lim mazmuniga katta mas'uliyat yuklaydi.

Qadriyatlar o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashi va intellektual salohiyatini kengaytirib, ularning tashabbuskorlik va fidoyilik hamda ijodkorliklarga bo'lgan moyilliklarini yanada oshiradi. Bu borada donishmandlarimiz tomonidan qoldirilgan va bizgacha yetib kelgan boy milliy va ma'naviy meroslarimiz hamda umuminsoniy, shu jumladan, milliy qadriyatlarimizni o'quvchilar ongiga singdirishimiz ularning kelajakda ma'naviy barkamol shaxs bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o'quvchilarning turli tahdid va salbiy ta'sirlar domiga tushib qolishining oldi olinadi, chunki, ma'naviy jihatdan yetuk va intellektual salohiyatli o'quvchilar hech qachon turli salbiy ta'sirlar domiga tushib qolmaydi.

Pedagogik faoliyat o'z mehnatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldiga biror muammo tanlangandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatiga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsad va xarakteri bilan aniq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarini yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topishda ifodalanaadi.

“

Pedagogik ijodkorlik manbai – bu pedagogik tajribadir.  
Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir.

”

Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishni, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz.

Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan shu shakli va usullari, uslub va vositalaridir.

Ilg'or pedagogik tajriba o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarini ochish o'quv-trbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarni bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi

faqatgina muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalish, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Mustaqil Respublikamizning o'tgan 32 yillik tarixi davomida mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida, jumladan, ta'lim tizimida ham keskin o'zgarishlar yuz bermoqda.

O'zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun ta'lim tizimida har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Buni amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida shaxsning aqliy va ma'naviy-axloqiy, kasbiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'langan uzluksiz ta'lim tizimi deb qaralgan.

**“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.**

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimiz ilm-fani, yetakchi ilmiy maktablar, birinchi navbatda, eng yirik va muhim ahamiyatga ega tashkilot – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ham qabul qilingan farmon va qarorlar yangi tarixiy voqeeliklarga mos keladigan fan-texnika va innovatsiya sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun o'ziga xos rag'bat bo'ldi. Ana shu rag'batlarni amaliy qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1992-yil 8-iyuldagi “Ilm-fanni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risida”gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-iyuldagi “Ilm-fanni rivojlantirishni va innovatsiya

faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida"gi qarori ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish sohasidagi dastlabki asosiy hujjatlaridir. 2006-yil 7-avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston ilm-fanini boshqarish va moliyalashtirishni davlat tomonidan tartibga solish, uning sa'y-harakatlarini ustuvor sohalarga yo'naltirishga qaratilgan islohotlar davom ettirildi.

Sir emaski, XXI asr – texnika va texnologiya asri. Ha, bu nom bejizga berilmadi. Atrof-muhitda sodir bo'ladigan hodisalar uni o'rganishga bo'lgan qiziqishni yanada ortirdi. Bu qiziqish ortidan ilm-fan sohasida misli ko'rilmagan kashfiyotlar paydo bo'ldi va paydo bo'lmoqda. Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tishni o'rinlidir: "Kelajgimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq".

Innovatsion texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlash uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonida ma'lum o'zgarishlarga, ta'lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo'ladigan turli tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo'ladi. Ilm, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo'llanilishi o'qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda. O'qituvchilarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

Ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga

qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat. Bugungi kunda maktab va oliy ta'lim tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalari rivojlanishida o'ziga xos yangilik bo'lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda.

“**Innovatsiya (in-lik, novus-"yangi") yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni anglatadi.**

Ta'lim sohasida mamlakatimizda birinчилardan bo'lib faol innovatsion harakatni boshladi. Ma'lum bosqichda XX asr oxirlarida bunday harakatlar yo'lga qo'yilgan edi. Masalan, A.G.Rivin va V.K.Dyachenko tomonidan o'qitishni jamoaviy o'qitish, D.B.Elkonin, V.V.Davıdov, L.V.Zankovlar tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi innovatsion ta'lim to'g'risidagi qarashlar o'z vaqtida ma'lum ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga boshqa innovatsion ta'lim texnologiyalari:

- dialektik o'qitish usullari (A.I.Goncharuk, V.L.Zarina);
- o'qitishning individual yo'nalishli usuli (A.A.Yarulov);
- "Ekologiya va dialektika" (L.V.Tarasov);
- evristik o'qitish (A.V.Xutorskoy);
- dialog madaniyati (V.S.Bibler, S.Yu.Kurganov);
- loyihali o'z-o'zini refleksiya (G.P.Shedrovitskaya) va b.q.larni keltirish mumkin.

Ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashtirish, xususiy tadbirkorlar va davlat o'rtasidagi hamkorlik, kichik va o'rta innovatsion biznesning xalqaro aloqalarini qo'llab-quvvatlash innovatsion faoliyatni keng rivojlantirishning muhim shartlaridir. Shuni ta'kidlash kerakki, dunyoning rivojlangan

davlatlarida yangiliklarning qariyb yarmi tshkilotlar, kichik va o'rta biznes firmalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Chunonchi, AQSh Milliy ilm-fan fondi ma'lumotlariga ko'ra, kichik firmalarda hayotga tatbiq etilayotgan yangiliklar soni sarf-xarajatlar birligi bo'yicha o'rta va yirik firmalarga qaraganda ancha ko'pdir. Bundan tashqari, kichik firmalar yangiliklarni jadal o'zlashtirish va iste'molchilarga yetkazib berishda ham yirik firmalarga qaraganda taxminan uchdan bir barobar ilgari lab ketgan.

## 2-S Pedagogik jarayonda o'quv-pedagogik texnologiyalar

Hozirgi kunda har bir pedagog yoki ishlab chiqarish xodimi axborot kommunikatsiya texnologiyalari va texnik tizimlari majmuini puxta bilishi taqozo etilmoqda. Shu bilan birga pedagog ishlab chiqarishning faol ishtirokchisi, ishlab chiqarish mutaxassisi ham o'z navbatida pedagog vazifasini bajarishi lozim.

O'quv - tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarini talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga munosabat bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan tomonidan

baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv - tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

**Pedagogik texnologiya** va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

**Pedagogik texnologiyalarning shakllanishi va tadiriy rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak**, ilmiy texnik taraqqiyot natijasida XX asr oxiriga kelib faqatgina ko'plab ishlab chiqarish sohalarini texnologiyalashtirishga sabab bo'lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, gumanitar bilimlar sohalariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta'lim sohasida ham. «**Texnologiya**» tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi. **Texnologiya** - bu belgilangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishning iqtisodiy samarali loyihalangan jarayonlar ketma-ketligi majmuidir.

«Texnologiya» so'zi lotincha «Thegnos» - san'at, hunar, soha va «Logos» - fan degan ma'noni anglatadi. Biroq bu ifoda texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon, bu - mehnat qurollari bilan mehnat ob'yektlari (xom ashyo) ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir.


«**Pedagogik texnologiya**» so'z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish

uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

**Texnologiya** deganda sub'ekt tomonidan kiritilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy **ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasini ilgari surgan**. U ta'limni "texnikaviy" qilishga undagan, ya'ni hamma narsa nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi o'quv jarayonini, u "didaktik mashina" deb atagan. Bunday didaktik mashina uchun aniq qo'yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan.

FOTO: Yan Amos Komenskiy



Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun **50-yillarda** birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun

majmuali texnik vositalarni yaratishda topgan.

**XX asr 30-yillar o'rtasida** AQShning Indiana universitetida talabalarga eshitish va ko'rish (audiovizual) ta'limi bo'yicha ma'ruzalar o'qilgan, 1946-yil shu yerning o'zida eshitish va ko'rish ta'limi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash kursi: ishlab chiqarishni rejalashtirish, eshitish va ko'rish vositalarini ishlatish va ular sifatini baholash, shu vositalarni qo'llab o'quv jarayonini boshqarish dasturlari kiritildi. Bu jarayon "**Ta'limda texnologiyalar**" deb nomlandi.

**1954-yil** — professor B.F. Skinner tomonidan dasturlashtirilgan ta'lim modeli asoslab berildi. Bu operatsiyalar asosida o'qitish texnologiyasi bo'lib (mavzu — qadam — lavha), u har bir o'quv topshirig'ining to'g'ri bajarilganligini tezda baholash va xatolikka yo'l qo'ygan bo'lsa orqaga qaytish kabi qaytar aloqani nazarda tutadi. **1958-yil** — N.Krauder tomonidan Dasturlashtirilgan ta'limning tarmoqlangan sxemasi taklif etildi. Bunda taklif qilingan bir qancha javoblardan birin tanlash va javoblarning to'g'ri-noto'g'riligidan kelib chiqib qaytar aloqa nazarda tutiladi. Bu "**O'rgatuvchi texnologiyalar**" deb nom oldi. **70-yillarda** — ta'lim texnologiyasining ilmiy asosini informatika, telekommunikatsiya nazariyasi, pedagogik kvalimetriya, tizimli tahlil, bilish faoliyatini boshqarish nazariyasi, o'quv jarayonini qulaylashtirish, pedagogik mehnatni ilmiy tashkillashtirish kabilar tashkil qildi.

Ko'rish va eshitish vositalarining yangi turlari: videomagnitofon, aylanmali kadroproektor, elektron va bloknotli yozuv taxtasi va boshqalar chiqara boshlandi.

Ta'lim texnologiyasi muammolari bo'yicha Xalqaro anjumanlar o'tkazildi.

**Texnologiya** — zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur mahsuli degan xulosaga kelish mumkin. U faoliyatni tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligini, tezkorligini, texnikaviy qurollanganligini oshirishga oid amaliy tadqiqotlar yo'nalishini aks ettiradi.

Shunday qilib, "texnologiya" deganda insonning aniq,

murakkab jarayonni ketma-ketli o'zaro bog'liq muolaja va amallar tizimiga taqsimlash yo'li bilan kafolatli natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan usullar tushuniladi.

#### **Texnologiya (jarayon sifatida) uchta qoida bilan tavsiflanadi:**

- jarayonni o'zaro bog'liq bosqichlarga taqsimlash;
- izlanayotgan natijaga (belgilangan maqsad) erishishga qaratilgan harakatlarni izchil va bosqichma-bosqich bajarish;
- qo'yilgan maqsadga mos natijaga erishishning zaruriy sharti hisoblangan texnologik muolaja va amallarni bajarishning alohida ahamiyat kasb etishi.

Hozirgi kunda jahon miqyosida ishlab chiqarilgan va foydalanilgan texnologiyalarni ikki turga bo'lish mumkin: sanoat va ijtimoiy texnologiyalardir.

Ijtimoiy texnologiyalar har qanday sharoitga moslasha oladi. Pedagogik texnologiya esa insonga ta'lim va tarbiya berishning ilmiy asoslangan, inson tafakkuriga, ya'ni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining intellektual salohiyatiga

“

Shunday qilib, "pedagogik texnologiya" – bu o'qituvchining o'quvchilarga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o'qitish texnologiyasi», «ta'lim texnologiyasi» tushunchalari ham shu ma'noda ishlatiladi.

”

bog'liq holda amalga oshiriladigan jarayonlar majmuidir. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasianiq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Shunday qilib, "pedagogik texnologiya" – bu o'qituvchining o'quvchilarga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o'qitish texnologiyasi», «ta'lim texnologiyasi» tushunchalari ham shu ma'noda ishlatiladi.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishi, fanining muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yuritga olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olish va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlash, tadqiqot ishlariga o'rgata olishni talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish davomida ma'lumotlarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradilar. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarini egallaydi.

Pedagogik tajriba o'qituvchining o'quv ishlari jarayonida egallaydigan bilimi va ko'nikmalari yig'indisidir. Bu o'qituvchining pedagogik mahorati bo'lib, u pedagogika fanini rivojlantirishida boshlang'ich omil hisoblanadi.

Maktab o'qituvchilarini ilg'or tajribalarni o'rganishning taxminiy tarkibi

#### **Sh.A. Amonashviliining pedagogik metodikasining mazmuni.**

U o'quvchilarni fikrlashga o'rgatadi. Uning o'quvchilari o'z o'rtog'larining ishlari tekshirib baholaydilar (baho qo'ymasdan, albatta!). Bir-birlarining yozma ishlari taqriz qilishadi.

### V.F. Shatalov metodikasining mazmuni.

Metodika takrorlash asosida o'z-o'zini nazorat va o'z-o'zini baholashdan iboratdir. U ma'lum vaqtda topshirilgan vazifa yuzasidan barcha o'quvchilarni baholaydi.

Tayanch signali nima? Bu signallar ma'no ahamiyatini bosuvchi assotsiativ simvolidir. Bu simvol ma'lum tushunarli bo'lgan axborotni bir lahzada xotirada tikdaydi. Yo'l harakatini eslatuvchi belgilar eng yaxshi tayanch signalidir. Qizil rang – mumkin emas, sariq rang – ogohlantirish, yashil rang – ochiq degan ma'noni bildiradi.

### S.N. Lisekovaning pedagogik metodikasini mazmuni.

U darslarda ko'rgazmalilik, chizma modellar yordamida dars berishni o'quvchilarni faollashtiradi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. O'tilayotgan mavzuni sharhlab boshqaruv darsni harakatlantiruvchi asosiy kuchdir deydi. Sharhlab beruvchi 3 ta xususiyatni o'zida mujassamlashtiradi:

#### Xususiyatlar

Fikrlash

So'zlash

Yozish

Bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi boshqalar qatori mas'uliyatni sezgan holda harakat qilsa, u ham o'z orqasidan butun sinfni ergashtirib faollashtiradi.

### I.V. Volkov pedagogik metodikasi mazmuni.

U maktabda bolalar uchun "Ijod xonasi" tashkil etib, o'quvchilar bilan ishlashda turli xil yo'nalishdagi ishlarni tanlab, har bir o'quvchini xilma-xil faoliyatida (adabiyot, tasviriy san'at, foto, kino) o'z qiziqishiga ko'ra kuchini sinab ko'rish, ularni ijodkorlik sifatlarini namoyon qilishga erishadi.

### N.P. Paltashevning pedagogik metodikasi mazmuni.

U sinf o'quvchilarini qatoriga bo'lib o'qitishni tashabbuskori.

1– qator – a'lochilar;

2– qator – o'rta;

3– qator – yomon o'zlashtiruvchilar.

Bu metodda edago 2-qatorning o'quvchilari o'z joylarini o'zgartirishi uchun xuddi 1-qatordagi kabi o'qishga majburdir.

### Ochilxon Sharafiddinov pedagogik metodikasini mazmuni.

Uning metodi:

- Darsga puxta tayyorlanish;
- O'tilgan mavzuni to'g'ri rejalashtirish;
- O'quvchilarda faollik;
- Ko'rsatmali qurollardan foydalanish;
- Dars daqiqalarini unumli o'tkazish;
- Dars jarayonida o'tilgan mazmuni ilmiy-g'oyaviy, pedagogik va psixologik jihatdan o'quvchilarga mos bo'lishi;
- Amaliy mashg'ulotlar davomida hayotdan olingan misollar bilan bog'lash;
- Mustaqillikni o'stirishga e'tibor berish muhim o'rin tutadi.

Ta'lim tizimini isloh etish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy-siyosiy sohalar sekin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi, inson jamiyatdagi o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi.

Ta'lim-tarbiyaga yangicha yondoshish ta'lim berish jarayonini ongli ravishda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Yangicha ta'lim-tarbiya berishda milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilib, ularni muhim tomonlarini tarbiyalash jarayoniga tadbiiq etilsa, bu tadbirlar yaxshi samara beradi. Jamiyat ishonib topshirgan bu ulug' vazifani bajaruvchi fidokor kadrlar o'zlari har jihatdan barkamol bo'lmoqlari kerak.

Agar maktabda ta'lim-tarbiya to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, maktabni bitiruvchilar emas balki maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar yetishib chiqadi. Yana bir yangi pedagogik texnologiyaning asosiy bo'limi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom bo'lishi lozim, chunki demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Bunday hol ta'lim-tarbiyani samarali o'tishini ta'minlaydi.

O'quvchilarni mukammal ilmiy qilib tarbiyalashda o'qituvchi faoliyatini to'g'ri tashkil etish ularni baholashda ko'p ballik reyting tizimida baholarni to'g'ri va adolatli qo'yish, ularni ko'proq o'zlari mustaqil bilim olishga undash, kasbni tanlashda ongli ravishda yo'naltirish kabi masalalar yangi pedagogik texnologiyaning asosini tashkil etadi. O'quv muassasalarini zamonaviy tarzda jihozlash, o'quvchilarni barcha o'quv darsliklari bilan to'la ta'minlash, pedagoglar uchun munosib hayot tarzini yaratib berish, yosh kadrlarni bilimli va malakalarini oshirish maqsadida chet ellarga o'qishga yuborish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va kerakli mablag' bilan ta'minlaydi.

#### **Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:**

- ta'lim mazmuni tizimini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini isloh qilish;
- ota-ona, o'qituvchi o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini yaratish;
- yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma, malaka balki umumiy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi juda muhimdir. Ilg'or pedagogik, ijtimoiy tajribalar pedagogik mahoratni shakllantirishda muhim omildir.

#### **Ular quyidagi yo'nalishda o'z aksini topgan:**

- faoliyat turlari (moddiy-amaliy, ijtimoiy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san'at, siyosat, falsafa, fan va boshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy ijtimoiy va tabiiy borliq (pedagog avlodlarga meros qilib qoldiriladigan boyliklar).

Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy tomoni maktab darsliklarini qaytadan yuksak darajada, yuqori saviyada tuzish lozimligidir. Darsliklar tuzish ko'p yillik ilmiy, madaniy, estetik, ma'naviy tajribalarga tayangan holda tuzilmog'i kerak.

O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishda ilg'or pedagogik tajribalarga tayanish yaxshi natijalarga olib keladi.

Dars jarayonida asosiy tashabbus o'qituvchi qo'lida bo'ladi. U darsini tez-tez o'tish, ko'proq bilim berish bilan mashg'ul, lekin sinfda bu ma'lumotlarni barcha o'quvchi turli tarzda qabul qiladi, ularning xohish istaklari turlicha, ular passiv eshituvchi, quloq soluvchi, bu hodisalar o'quvchilarning o'quv jarayonidagi mas'uliyatini, javobgarlik hissini susaytiradi. Bu hol ularni erkin fikrlash, mustaqil o'ylash imkoniyatidan mahrum etadi. Shuning uchun tarbiyani samarali chiqishni maqsad qilgan ekanmiz, bu jarayonda o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch, ta'lim jarayonini sub'ekti bo'lishi kerak, ya'ni o'qish, o'rganish, mutolaa qilish o'quvchi zimmasida bo'lishi kerak. O'qituvchi esa o'quvchini o'qishga o'rgatishda, bilim

berishda o'quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashlariga ko'maklashishi, mas'uliyatni sezishga o'rgatishi kerak. Ilm – quyosh, o'quvchi nihol, o'qituvchi esa quyosh nurini niholga eltuvchi zarrachadir. Har bir dars tarbiyaviy rivojlantirishi uchun uchta maqsad qo'yiladi. Darsni tashkiliy shakli uning qatnashchilarining o'zaro aloqalariga bog'liq bo'lib ta'lim metodlariga va o'quv imkoniyatlariga bog'liq. Bunga erishish uchun o'qituvchi rag'barligida o'qituvchi bilan o'quvchi birgalikda faoliyat yuritishlari kerak. Bu o'quv jarayonining talab darajasida bo'lishi o'qituvchi mahoratiga bog'liq. O'quv jarayonini boshqarish faoliyati, bilim faoliyatidan iborat. O'quv jarayoniga bunday yangicha qarashning tub mohiyati shundaki o'qitishda ichki motivatsiyadan, ya'ni idrok, ichki tuyg'u diqqatni tortish, istak, mas'uliyatdan foydalanish ahamiyatga molikdir. O'quvchi bilim olishga intilishi, o'qishi, o'rganishi ularning ichki ehtiyojlariga aylanishi, real hayotga kirib borishi, dunyoni anglashi kabi xislatlariga o'qituvchi mas'uldir.

O'qituvchilardan o'quvchilarda tashabbuskorlik, mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirishni, zarur malaka va ko'nikmalarni, ularda kuzatuvchanlikni tafakkur va bog'lanishli nutqni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktik prinsip bu ta'limdagi faoliyatdir. Bunday tizimda o'quvchi ham o'qituvchi ham ta'limni tarbiya jarayonida birgalikda mas'uldir. Ular birgalikda har bir o'quvchini bilim va qobiliyatini, individual ehtiyojlarini aniqlaydilar. Bunday holatda o'qituvchi faqat "baholovchi" emas, balki yangi bilimlar beruvchi, yetkazuvchi manbaga aylanadi. Mahorati o'qituvchi darsni quyidagi uslublarda o'tishi mumkin: ma'ruza, o'zicha o'qish, audio-video orqali o'qish, ko'rgazma, namoyishlar orqali o'qish, bahs munozara orqali o'qish, o'quv jarayonini amaliyotga bog'lash, bir-birini yakka tartibda o'qitish.

**Pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, uni amaliyotda qo'llash uchun yo'nalishda olib boriladi:**

- Pedagogik neologiya, bunda pedagogika sohasidagi har qanday yangiliklar o'rganiladi.
- Pedagogik aksiologiya, pedagogik yangiliklar ichidan samaralisi tanlanadi.
- Pedagogik transologiya, bunda tanlab olingan pedagogik yangiliklar amaliyotda qo'llaniladi.

**O'qituvchining mahurat bilan dars o'tishi, darsni tushuntirish g'oyalari asosida o'qituvchining bolalar bilan o'zaro harakati tushuniladi, sinfda psixologik birlik yaratish har bir metodik yondashuv uchun o'ziga xos muloqot yo'lini tanlab pedagog kabilar kiradi:**

- ta'lim jarayoniga yangicha yondashish, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilisagina, ta'lim samaradorligi yuqori bosqichga ko'tariladi, ya'ni bolaning talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- o'quvchining o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- u umr bo'yi o'z bilimini boyitishga ishonch paydo bo'ladi;
- erkin fikrlash malakasi shakllanadi;
- shaxs jamiyatda o'zining o'rnini tezroq topib olishga muhit yaratadi.

O'quvchilarda har tomonlama o'zi jamoada erkin tutish ko'nikmalari, to'g'riso'zlik, fikrini to'la, to'g'ri bayon etishga o'rganishda o'qituvchining o'rnini muhimdir. O'qituvchi bunday tarbiyani berishda ajdodlarimiz boy merosidan foydalanishi juda foydalidir. Ajdodlarimizning yurt-tinchligi, farovonligi yo'lida qilgan mislsiz qahramonliklari, mardliklari haqida

gapirib berib o'quvchilarni hamisha shunday bo'lishga chorlash kerak. Bunday hikoyalar o'quvchilarda g'urur tuyg'usini uyg'otadi, ular hali bobolari kabi erkin, to'g'ri so'z, mard bo'lishlariga undaydi.

Bugungi kunda pedagog uchun eng muhim fazilat sadoqatdir. O'z fanini chuqur bilgan va bolalarni chin dildan yaxshi ko'rgan muallimgina ta'lim pedagog muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Zamonaviy dars... Bu so'z pedagogik davralarda tez-tez tilga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda bu jarayonga pedagog, psixolog, metodistlarning ish faoliyatlarida o'z tasavvuri va o'z uslubi bilan qo'llanib, betakror va yangicha bir dars mezonini yaratishga harakat qiladi. Bu jarayonni boshqarishda ularning maqsadlari mushtarakdir. Negaki, har bir pedagog dars mashg'uloti davomida o'quvchilarga tarbiya berib, ular ongida bilim, ko'nikma, malakalarni ketma-ket uzviy holda hosil qilishi o'z maqsadiga aylantiriladi.

Bu haqda buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o'qituvchining dars berishga, o'ylashga majbur eta olish, eng muhimi o'quvchida mustaqil ishlash istagini uyg'otish zarurligini bundan yarim asr muqaddam ta'kidlagan edi. Zamonaviy darsning talabi ham bu ulug' olim fikriga monandir.

Sharqning benazir olimi, donishmand Abu Ali ibn Sino o'zining "Donishnoma" kitobida tarbiya va ta'lim xususida fikr, yuritib, har bir shaxsning o'ziga xos nihoyasini o'zi-o'zidan paydo bo'lmasdan, balki shaxs rivojlanishi jarayonida qay tarzda vujudga kelishi juda aniq tasvirlab bergan, ya'ni, endi tug'ilgan go'dakda faqatgina hissiyot bo'lishini, shaxsning boshqa psixologik xususiyatlari: diqqat, idrok, xotira, tafakkur esa shaxs tarbiyasi davomida paydo bo'lishini alohida uqtirgan.

Demak, shundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchilarda, darsga kirgan vaqtda faqatgina hissiyot hukmron. O'quvchidan yuqorida ta'kidlangan ketma-ketlik (diqqat, iroda, idrok, xotira, tafakkur) esa o'z o'rnida kelishi va ular tafakkurida yuqori darajali bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish o'qituvchining mahoratiga bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy darsning poydevori tarbiya turlarining o'quvchiga singdirib, ularga ta'lim berishini taqozo etadi. Olimlarning fikricha, har qanday dars 10 ta talabga javob berishi lozim:

- Tarbiyaviy maqsadni ta'lim bilan mushtarkaligi.
- Mavzu mazmunning ilmiyligi.
- Darsda manbaini hayot bilan bog'lash.
- Kasbiy yo'naltirishga qaratilganligi.
- Mavzu mazmuniga mos vositalarini qo'llash.
- O'quvchining mustaqil malakalarini mutahkamlashga qaratilishi.
- Mavzu mazmuniga mos metod va usullardan foydalanish.
- Fanlararo bog'liqligi.
- Tug'ilib o'sgan joy bilan bog'liqlikni ta'minlash.
- Ekologik tarbiya.

O'qituvchi dars jarayonida bu bosqichlarni amalga oshirishi davomida o'quvchilarda namunal tarbiya sifatlarini (axloqiy, aqliy, jismoniy, mehnat va boshqalar) singdirish, ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish, ta'limning hayotiyiligiga sharqona did va nafosatga tabiatni, Vatanni e'zozlashga qaratilgan fazilatlarini shakllantiradi. Sanab o'tilgan talablar asosida o'tkazilgan dars zamonaviy dars bilan hamohangdir.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Texnologiya nima?
2. Pedagogik texnologiyalar qachondan rivojlana boshladi?
3. Ta'lim jarayonining zamonaviy tendensiyalari deganda nimani tushunasiz?
4. Qanday pedagogik texnologiyalarni bilasiz?

### III PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLAR INTEGRATSIYASI



**Tayanch so'zlar:** shaxs, yosh xususiyatlari, individ, individuallik, kuzatish, tashxis, munosabatlar tizimi.

## 1-S O'quvchi shaxsini kuzatish, pedagogik-psixologik tashxislash

**Sh**axs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi.

Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilimg'i kerak.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

**Shaxs rivojlanishi.** Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va ta'lim-tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholalanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga xos munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara

ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan

sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqealik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Falsafiy-antropologik yondashuv o'zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy funksiyasiga ko'ra o'quvchining ma'naviy dunyosiga yo'naltirilgandir. Ana shu sababli mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda mulqot va o'zaro bir-birini tushunish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Mazkur yondashuvning o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha sub'ektlariga nafaqat dunyoqarash ko'rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi navbatda borliqni anglab etish sifatida tushunish lozim. Ikkinchidan, mazkur mavjudlik usulini uzluksiz ravishda o'z-o'zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan mulqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya omili amalga oshiriladi.

**Birinchidan**, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

**Ikkinchidan**, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

**Uchinchidan**, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

**To'rtinchidan,** tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.  
Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs shakllanishiga oid turli yondashuvlar.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan:

**Biologik yondashuv** - inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

**Ijtimoiy yondashuv** – inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarining ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

**Psixologik yondashuv** – insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi - qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

**Yaxlit yondashuv** – shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari – motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida yosh bosqichlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayoni tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, metodikasini bilish muhim.

Temperament lotincha "temperamentum" "qismlarning bir biriga munosabati" ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui hisoblanadi.

**Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:**

- Go'daklik – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.
- Bog'chagacha bo'lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
- Maktabgacha bo'lgan yosh davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
- Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (bolalar) – 7 yoshdan 11-12 yoshgacha.
- O'rta va katta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar, ilk o'spirinlar) - 12-17 yosh.

**Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:**

- Go'daklik (1 yoshgacha);
- Ilk yosh (1-2 yosh);
- Ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- Kichik yosh (3-4 yosh);
- O'rta yosh (4-5 yosh);
- Katta yosh (5-6 yosh);
- Maktabga tayyorlov davri (7 yosh, majburiy ta'lim).

Kichik maktab yoshida o'yin faoliyatining o'rnini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskulari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi.

O'rta va katta maktab yoshi (o'smirlilik, ilk o'spirinlik 12-17 yosh). O'smirlilikning murakkabligi anatomic-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davrni o'tish davri ham deyiladi. Ushbu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe'l-atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shashadi. Bu davr o'spirinlarning ilk balog'atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O'spirinlik – bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g'o'r fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoa va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turтки bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan o'lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoa shaxslari bilan

muomala-muloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada, ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki o'spirin-yoshlar mustaqil hayot ostonasida bo'lib, ularning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo'lishining muhim shartidir.

Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari. "Gender" atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, "jins" ma'nosini bildiradi. Jinsiy munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o'rganilgan bo'lsa-da, yangi atamaning paydo bo'lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirdi. "Gender tarixi", "Gender psixologiyasi", "Falsafaning gender tomonlari", "Gender antropologiyasi", "Gender sotsiologiyasi", keyinchalik esa "Gender pedagogika" kabifan tarmoqlari shakllandi. "Gender" tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi.

Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: «Gender» inglizcha so'z bo'lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlarini ma'nosini anglatadi. Bu tushuncha erkaklar va ayollar o'rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarning butun majmuini hisobga oladi.

Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bog'liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi. Psixologlar ham gender tushunchasiga o'ziga xos tarzda yondashganlar: psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog'liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko'rinishidir. Olimlar orasida bu xususiyatlarning qaysi biri tug'ma, qaysi biri esa ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlanganligi to'g'risida keskin munozaralar bormoqda. O'g'il va qiz bolalarning har bir xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular maktabga kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma'lum bo'ladi. Bu farqlar orasida psixologlar (A.E.Taras, 2002) qizlar

o'g'il bolalardan matematik va vizual qobiliyatlari bilan ustunroq deb ta'kidlashadi. O'g'il bolalarda qizlarga qaraganda o'ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalar bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni yengilroq qabul qilishadi. O'zgaruvchan muhitga tez moslashishadi. O'g'il bolalar har bir holatni umumiy tarzda baholashsa, qizlar yaxshilab tekshirib, o'rganib, keyin unga baho berishadi.

Pedagogik ma'noda gender - o'g'il va qiz bolalarning murakkab ta'limiy sotsiomadaniy birligi bo'lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emotsional xususiyatlari, o'quv faoliyatidagi o'zaro teng va farqli jihatlarini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda o'g'il va qiz bolalarning rivojlanishidagi fiziologik, axloqiy, emotsional, xulq-atvorga oid farqlar to'liq o'rganilgan. Shu asosdan kelib chiqib, o'quvchilarning rivojlanishida hisobga olish lozim bo'lgan quyidagi gender xususiyatlarni sanab o'tish mumkin:

1. qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda ikki marta ko'proq savol berishadi;
2. qizlar to'g'ridan-to'g'ri o'zining istaklari haqida gapirmaydi, lekin tezda kelishib ketadi;
3. o'g'il bolalar esa hal qiluvchi fikrni ayta olishadi va o'z nuqtai nazarida qolishni afzal ko'rishadi;
4. mustaqil hal etish bilan bog'liq vazifalarni bajarishda o'g'il bolalar sifati, qiz bolalar esa hajmini hisobga olishadi;
5. o'g'il bolalar ko'proq falsafiy fikr yuritadi, fikrning mantig'iga e'tibor berishadi;
6. qizlarga ko'proq psixologiya, adabiyot yoqadi;
7. o'g'il bolalar dialog, munozarani afzal ko'rishadi;
8. qiz bolalar monologlikka moyil, eshitishni va o'zida aks ettirishni yoqtiradi;
9. o'g'il bolalar ko'proq virtual(mo'jiza)likka, xayolotga qiziqishadi;
10. qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda ratsional va

pragmatik. Ular o'z tanlovlarini foydallilik nuqtai nazaridan, ya'ni tanlanayotgan narsa qanchalik maqsadga erishishga imkon berishiga qarab amalga oshirishadi;

11. o'g'il bolalar o'z tuyg'ularini ochiq bayon etishadi;
12. qiz bolalar o'z xohish va istaklarini yashirishadi, aytish uchun uzoq vaqt kutishadi.

**Shaxs ijtimoiylashuvi.** Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo'lgan quyidagi holatlar aniqlangan:

1. Shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish jarayonida ro'y beruvchi ijtimoiy omillar (mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqealiklar hamda ularning ta'siri yetakchi o'rin tutadi;
2. bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga ega;
3. shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi, shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi;
4. shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o'zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo'ladi - mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihati hisoblanadi;

5. shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivoji-ning muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davri shaxsning ijtimoiylashuvida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi;

6. ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo'lmay, shaxs hayoti-ning barcha davrlarini qamrab oladi.

Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarini qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviy va shaxsiy yetuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi.

**Shaxsning ijtimoiylashuvi** – ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi.

Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga (uning xususiyatlari, sifatlari, o'ziga xosliklari) ko'ra murakkabdir. Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil madaniy, axloqiy, huquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlarini aks ettiradi. Pedagogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni pedagogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o'ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e'tibor bilan qarab o'tiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtdan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi

tajribalarni tarbiyalanganlik, ta'lim olganlik, ma'lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir.

Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarining va pedagogik tizimning sub'yekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi sub'yekt sifatida qaraladi. Pedagogikaning vazifasi - insonga fikrlovchi shaxs, ijtimoiy faol fuqaro bo'lib yetishishiga, jamiyatda o'z o'rnini va xulq-atvorini, o'z istak-maqсадlarini yo'nalishini angelaydigan, pedagoglar va jamiyatdagi pedagogik tizim bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarini saqlash va mustahkamlashga yo'nalgan shaxs bo'lishiga yordam berishdir.

**Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud:**

- **ana'naviy** – oila va yaqin muhit orqali o'quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda maqbul shart-sharoitlarni yaratish;
- **institutsional** – ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari tomonidan o'quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish;
- **shaxslararo** – o'quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish;
- **refleksiv** – o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini loyihalashni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali individual ongni taraqqiy ettirish.

O'quvchilarni ijtimoiylashtirishning muhim sharti ularda ijtimoiy kompetentlikni qaror toptirishdir. Ijtimoiy

kompetentlik insondan ijtimoiy vaziyatlarga yo'nalganlik va boshqarish qobiliyatini talab etuvchi boshqa kishilar bilan kommunikatsiyani yo'lga qo'yishda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalariga moslashuv, ijtimoiy oriyentatsiya, shaxs integratsiyasi va umumijtimoiy tajribani kabilar kiradi.

Ijtimoiy tajriba o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning integral natijaviy tavsifini o'zida aks ettirib, faoliyatga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlarga asoslanishni talab etadi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy tajriba o'quvchining boshqa kishilar, atrof-muhit bilan o'zaro harakati natijasida yuzaga keluvchi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ustanovkalar yig'indisini o'zida aks ettiradi. Ana shu sababli shaxsda o'z-o'zini tashkillashtirish va o'z-o'zini korreksiyalash madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan "o'z-o'zini boshqarish tajribasi" ni ijtimoiy tajribaning komponenti sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

**O'z-o'zini boshqarish tajribasini shakllantirishning asosiy ijtimoiy sohalari sifatida:**

- individni sub'yekt-sub'yekt munosabatlarga jalb etish;
- sub'yektda tashabbuskorlikni shakllantirish;
- hayotiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini tashkillashtirish universal namunalarni qabul qilish kabilarini kiritish mumkin.

Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsda ijtimoiy tajribani shakllantirish ikkita o'zaro aloqador yo'nalishda amalga oshadi. Birinchidan, inson hayotining mazmuni, shaxslararo munosabatda ma'naviy-axloqiy me'yor va qoidalar sifatida individda qadriyatga yo'naltirilgan oriyentatsiyani shakllantirish, ikkinchi tomondan shaxsiy nuqtai nazardan yuqori mavqega ega o'z-o'zini boshqarishda aks etuvchi o'zaro birgalikdagi faoliyat jarayonidagi xatti-harakatlar, ijtimoiy

va hayotiy ahamiyat kasb etuvchi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish bilan bog'liqlikni o'zida aks ettiradi.

O'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish pedagogik hodisa sifatida shaxs salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq intellektual, emotsional-hissiy va faoliyatga yo'naltirilgan sohalar uyg'unligini talab etadi hamda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish asosida ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

### **O'quvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:**

- ijtimoiy moslashuv: ijtimoiy vaziyatlarda o'zining rolini aniqlay olish, vaziyatga moslashuvchanlik va safarbarlik;
- loyihaviy: ijtimoiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini anglash, individual xulq-atvor strategiyalarini tanlay olish;
- interiorizatsiya: ijtimoiy faoliyatning asosiy me'yorlarini qabul qilish va faoliyatda namoyon etish.

Akseleratsiya (lot. *acceleratio* – tezlashish) (biologiyada) – embrion (pusht) rivojlanishining ma'lum bosqichlarida uning ayrim a'zolari shakllanishining tezlashuvi. Bolalar va o'smirlar o'sishi hamda jismoniy rivojlanishining tezlashishi. Hozirgi bolalar va o'smirlar har bir yoshda ancha oldingi yillardagi tengqurlariga nisbatan bo'ychan bo'lib, vazni og'irroqdir. Bolalar katta bo'lgan sari, bu farq shunchalik seziladi. Ularning sut tishlari oldin bo'rtadi, doimiy tishlar bilan tezroq almashinadi, skeletining suyaklanishi ham oldinroq yuz beradi. Og'ir mehnatning kamayishi, umumiy hayot tarzi, maishiy-gigiyenik shart-sharoitlarning yaxshilanishi, shuningdek yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohga yo'l qo'ymaslik va boshqa akseleratsiyaga olib kelishi mumkin. Akseleratsiya faqat bolalar gavda o'lchamlarining jadal kattalanishida emas, balki

ularning dunyoqarashi hamda fikrlashlari ilgari lab ketishi, shuningdek erta balog'atga yetishida ham namoyon bo'ladi.

Akseleratsiya yosh avlodning ruhan va jismonan tezlashuvidir. Hozirgi davrda keyingi 100-150 yil ichida bolalar va o'smirlar akseleratsiya jarayonlari kuzatilmoqda. Bunday akseleratsiya O'zbekistonda ham ko'zga tashlanmoqda. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning bo'yi 5-6 sm.ga, kichik va o'rta maktab yoshidagi bolalarning bo'yi 10-15 sm.ga, vazni esa 8-10 kg.ga ortdi. Akseleratsiya ruhiy va jismoniy rivojlanishda kuzatilmoqda.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ko'p mamlakatlarda bolalarning bo'yiga o'sishi tezlashganligi aniqlangan va bu haqida ma'lumot 1876-yilda matbuotda e'lon qilingan. 1935-yilga kelib nemis olimi E. Kox rivojlanishdagi bu tezlashuvni akseleratsiya deb atagan.

**Akseleratsiya** – lotincha so'z bo'lib, *accele* – tezlashuv degan ma'noni bildiradi.

Akseleratsiya yosh avlodning oldingi tengdoshlariga nisbatan ruhan va jismonan rivojlanishidir, 100 yil ya'ni bir asr ichida yaqqol ko'zga tashlanganligi uchun uni keng ma'noda "sekulyaoniy trend" ya'ni asriy tendensiya deyiladigan bo'ldi. Keyingi 100-150 yil ichida yer yuzida akseleratsiya jarayonlari kuzatilmoqda, jumladan, O'zbekistonda ham.

Rivojlanishdagi akseleratsiya muammosi va butun dunyo biologlar, tibbiyotchilari va sotsiologlari diqqatini jalb qilib kelmoqda. Akseleratsiyaning ijtimoiy va biologik turlari o'zaro farq qilinadi.

Biologik akseleratsiya deganda, insonning biologik rivojlanishiga taa'luqli barcha o'zgarishlarni tushunish kerak. Bunga odamning morfologik va funksional rivojlanishini tavsiflovchi bir qator ko'rsatkichlar kiradi. Ushbu o'zgarishlar

ma'lum bir ijtimoiy muhitda sodir bo'ladi va ko'p jihatdan ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi.

Ijtimoiy akseleratsiya deganda, bolalar bilimlarining hajmini ulardan 50-100 yil ilgari yashagan tengdoshlarinikiga nisbatan ortganligini tushunish kerak.

XX asrning 20-yillaridan boshlab Shvetsiya, Angliya, Germaniya, AQSh, Yaponiya va boshqa mamlakatlardagi 6-14 yoshdagi bolalar o'z rivojlanishida, ulardan yuz yil ilgari yashagan tengdoshlariga nisbatan ancha o'zib ketganligi to'g'risidagi ma'lumotlar paydo bo'la boshladi. Kichik va o'rta yoshdagi bolalarning bo'yi 10-15 sm, og'irligi esa 8-10 kg ortgani aniqlandi. Ushbu hodisa- bo'y va og'irlikni asriy ortishi degan nom oldi. Keyingi yillarda akseleratsiya yanada yorqin namoyon bo'lganligi kuzatilgan. Bundan 50 yil ilgari odamlar bo'yining maksimal uzunligi 25-26 yoshga to'g'ri kelgan bo'lsa, bizning zamonamizda o'g'il bolalar 18-19 yoshda, qiz bolalar esa 16-17 yoshda to'liq jismoniy balog'atga yetadilar. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar tanasining uzunligi 1930-1940 yillardagiga nisbatan o'rtacha 1 sm ko'p.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. "Individ" tushunchasi nimani ifoda etadi?
2. Odamning shaxs sifatida shakllanishining asosini nima tashkil etadi?
3. Shaxsning rivojlanishi tushunchasiga izoh bering.
4. Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Shaxs rivojlanishiga doir zamonaviy yondashuvlarni izohlang.
6. Shaxs rivojlanishining yosh davrlariga tavsif bering.
7. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari deganda nima tushuniladi?
8. Shaxs ijtimoiylashuvining mazmun-mohiyatini yoritib bering.

## IV. AN'ANAVIY VA INNOVATSION TA'LIMNING QIYOSIY TAHLILI

**Tayanch so'zlar:** *pedagogika, an'anaviy ta'lim, ijtimoiy pedagogika, qiyosiy tahlil, tamoyil, shaxs, ta'lim-tarbiya, ijtimoiylashuv va b.*

### 1-5 Pedagogikaning tamoyillari

**P**edagogikaning tamoyillari haqida so'z yuritganda, pedagogikada tarbiya tamoyillari va ta'lim tamoyillari bir-biridan farqlanadi.

**Tarbiya tamoyillari** – bu tarbiyaviy ishning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlariva tashkilotilishiga, tarbiyajarayonining ishtirokchilari orasidagi mimosabatlariga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

**Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:**

- maqsadga qaratilganligi va g'oyaviy yo'nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko'rish;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qq'shib olib borish;
- o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta'sirlarining birligi;

- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiya jarayonining tizimligi va uzluksizligi.

**Ta'lim yamoyillari** o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakli va metodlarini belgilab beruvchi boshlang'ich qoidalaridir.

Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta'limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari.

**Ta'lim mazmuniga aloqador tamoyillarga** quyidagilar kiradi: insonparvarlashtirish; tabiat bilan uyg'unlik; madaniyat bilan uyg'unlik; ilmiylik; ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi; ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi.

**Ta'limni insonparvarlashtirish** – uning mazmuni, tamoyillari, shakli va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirishdir.

Shaxsning rivojlanishi va o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirok etishga jalb etish, uning bilish bilan qo'shiluvi va madaniyatni o'zlashtirishi so'nggi yillarda sezilarli shakllandi. Mazkur yo'nalishda tarbiyalanuvchilar ongidagi aldam-qaldamlik, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat'iy belgilash, ularga qattiq ta'sir etish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo'lmagan qarashlardan voz kechish yordamida ko'plab innovatsiyalar yo'naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama-qarshi o'laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo'naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalaridan foydalanish, «ta'limni insonparvarlashtirish», ya'ni insonparvarlik tamoyiliyuzaga

chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta'lim esa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

**Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili.**  
Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot, bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya'ni tabiati bilan uyg'un bo'lishi lozim.

**Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili.**  
Ta'limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasi, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish holatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat. Ta'lim butun umr davom etadi va ta'lim olish chegaralanmaydi. U insonga o'z dunyosi va boshqa madaniyatlarni anglash, mazkur madaniyat vakillari fikrini eshitish olish, ularni qadrlash, ularning dunyosini tushunish, o'zining shaxsiy fikriga tayanish, o'zining bu yorug' olamdagi mavjudligini anglash va o'zining hayotdagi, madaniyatdagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Ta'limning bugungi kundagi ma'no-mantig'i ham ana shundadir.

Ta'lim o'zini madaniyatlar dunyosida faraz qilish orqali insonda olam manzarasini yaratish, insonning tabiat, boshqa odamlarga, jamiyat, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimini shakllantirish sifatida qaratadi. Inson o'zining ongi, irodasi, his-tuyg'usi, bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarini o'zlashtiradi, buning natijasida individual ijodiylik shakllanadi. Bunday individuallikning namoyon bo'lishining o'ziyiq nafaqat madaniyatning merosiyligi, iste'mol qilinishi, balki rivojlanishini ham anglatadi. Bunday tushunish pedagogikadagi yangi paradigma – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tashkil etuvchi jamiyatdagi yangicha qadriyatlar – shaxsning o'zini-o'zini rivojlantirishi, o'ziga-o'zi ta'lim berish

va o'zini-o'zi loyihalashning namoyon bo'lishini aks ettiruvchi madaniyat bilan uyg'unlik tamoyilini shakllanishiga olib keladi.

**Ta'limning ilmiylik tamoyili** – o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahmiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni o'quvchilarni obyektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollari ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

**Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyilining** ahamiyati shundaki, umumiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorgarlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'liq va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanganlik bilan tavsiflanadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlarga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi.

**Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili** yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan

shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

**Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga** quyidagilar kiradi: ta'limning tizimliliigi va izchilligi; ta'limda ongillik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi; ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili; tushunarlilik.

**Ta'limning tizimliliigi va izchillik tamoyili** bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilishini, o'quvchilarning uzluksiz va tizimli sur'atda mustaqil ish olib borishlarini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi. Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis – qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi. Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Tizimlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning tizimliliigi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

**Ta'limda ongillik, faollik va mustaqillik tamoyili** o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlar hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab olishlari lozim. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: o'quv motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonini samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

**Ta'limda ko'rsatmaliilik tamoyili** o'qitish jarayoni sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning «oltin qoidasi» deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. «Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak, - deb ta'kidlaydi. – Agar qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganishsin».

**Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish tamoyili** deganda o'quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarning jismoniy rivojiga, umumiy tayyorgarligiga – saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo'lishi tushuniladi. Yoshiga muvofiq yondashish o'quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy axloqiy sifatleri, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi o'quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgari ketse, o'quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o'quvchilarning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini

tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

**Ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili** muhim didaktik talab va qoidalarni, ya'ni o'quvchilar tomonidan tizimli va ongli o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab qolish hamda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o'z turmush faoliyatlarida qo'llay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Ta'limning chuqurligi va mustahkamlik talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental qoidalardan, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

## Ijtimoiy pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.

### 2-9 Ijtimoiy pedagogika kategoriyalari

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq-atvorning me'yor va qoidalari haqidagi turli bilimlarni, jamiyatga funktsiyaga yordam beruvchi turli ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalikda juda jadal sur'atlar bilan amalga oshadi.

Bola ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati, uning jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishining qiyinligidadir. U bularni faqat o'zlashtirib boradi, shuning uchun ham bola shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ahliyatotgan mutaxassislarining (psixolog, shifokor, pedagog va shu kabilar) ta'siri katta bo'lib, bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq, o'zlashtirishlari, ularni hayotda qullashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir.

Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasida ta'lim olish jarayonida bola, avvalo, akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir vaqtda unda muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida – bolaga maxsus yordam kerak bo'lganda juda zarur bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot obyekti va predmetini tahlil qilishdan avval ijtimoiy pedagogika terminining o'ziga ahamiyat bermoq kerak. Bu termin ijtimoiy va pedagogika sozlaridan tashkil topib, ularni ma'nosini o'zida jamlayadi. Bu birlik fanda differentsiya va integratsiya hodisalari bilan birgalikda namoyon biladi. Yangi bilimlarni osishi ilmiy fikrlarni real hayotga tatbiq etilishi, yangi muallimlarni yuzaga kelishi jamiyatni ilmga ehtiyojini yuzaga keltirish darajasi fanning differentsiysiyasi va maxsuslashtirish tendentsiyasi ko'zatiladi.

Chunonchi, asosiy fan mustaqil rivojlanuvchi xususiy tarmoqlarga ajratiladi. Shuningdek, qator muammolarni hal qilishda to'plam nuqtai nazardan bir obyektini o'rganuvchi mustaqil fan birligini o'zida namoyon qiluvchi integratsiya hodisa kuzatiladi. Masalan: pedagogikani boshqa fanlar bilan aloqasida tadqiqotning mustaqil obyektlari alohida kuzatiladi: falsafa bilan birgalikda ta'lim falsafa psixologiya bilan o'zaro munosabatda psixolo-pedagogika, siyosatshunoslik bilan birlikda. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

"Ijtimoiy" tushunchasida odamlarning birga yashashi bilan bog'liq jarayonlar ifodalangan, ammo ularning muloqoti va o'zaro aloqalari turli shakllarda bo'ladi. Demak, pedagogika o'sib kelayotgan avlod tarbiyasi va ta'limi to'g'risidagi fan bo'lib, ijtimoiy pedagogika esa jamiyat a'zosini tarbiyalash va unga ta'lim berish to'g'risidagi fandır. Ijtimoiy pedagogika jarayon va hodisalarni ma'lum spetsifik aspektda o'rganadi. Pedagogik bilimlarning bu yangi tarmog'i spetsifikasi "ijtimoiy" so'zida namoyon bo'ladi.

**Ijtimoiy pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.**

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi ta'rifi bir qator bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, qar qanday fan bilim sohasi sifatida nazariya va amaliyotning birligi sifatida faoliyat yuritadi. Bu ikki soha doimo bir-birini to'ldirib boradi va voqelikning mukammallashuviga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demak, biz ijtimoiy pedagogikani ham fan va amaliy faoliyatining sohasi sifatida o'rganishimiz lozim. Bundan tashqari, ijtimoiy pedagogika ko'pgina boshqa fanlar (falsafa, matematika, biologiya) kabi o'quv fani bo'lib ham xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston tarixiy pedagogik an'analarga ega davlatdir. Sharq mutafakkirlari va diniy arboblarning asarlarida ijtimoiy pedagogika fanining rivojlanishiga asos bo'ladigan goyalar mavjud. XIX asrda o'zbek ma'rifatparvarlari, XX asrdagi novator pedagoglarning ijtimoiy tarbiya sohasidagi faoliyati ijtimoiy pedagogika uchun boy manba hisoblanadi.

Biroq ma'lum bir davrda ijtimoiy pedagogikaning MDH hududidagi tadrjiiy rivojlanishi to'xtatib qo'yildi. Ijtimoiy pedagogikaning tiklanishi faqatgina XX asrning 90-yillaridan boshlanadi. Uning qayta "tug'ilishi" ijtimoiy pedagogiami hozirgi sharoitdagi amaliy faoliyatlarida ijtimoiy pedagogika fani yutukdaridan foydalanish zarurati tug'ilgani bilan izohlanadi. Bu yerda davlat va jamiyat faoliyat yuritishining yangi tamoyillari: bozor iqtisodiyoti, raqobat, byudjetdan pul ajratishni ko'paytirish yoki kamaytirish, iqtisodiy holatning beqarorligi kabilar nazarda tutilmoqda.

Rossiyalik qator olimlar ijtimoiy pedagogikaga ta'rif berishga harakat qilganlar. Masalan, Yu. V. Vasilkova bu fanni "alohida shaxs yoki guruhni tarbiyalash, o'qitish nazariyasi va amaliyotidir" deb ta'kidlaydi.

A.V. Mudrikning fikricha, "Ijtimoiy pedagogika – barcha yosh va ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy tarbiyasini o'rganuvchi pedagogika"dir.

B. D. Semenov ijtimoiy pedagogika yoki muhit pedagogikasini "Ma'lum yutuqlarni birlashtiruvchi va ularni

ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiradigan fan", - deb hisoblaydi.

I.P. Podlasiyning "Pedagogika" darsligida quyidagicha ta'rif mavjud: "Ijtimoiy pedagogika - ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishga va ijtimoiy tarbiya muammolariga ta'siri qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir".

M. A. Galaguzova ijtimoiy pedagogikaga uning obyektivi predmetini aniqlash orqali ta'rif bermoqchi bo'lgan. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi mohiyatini aniqlash uchun "fan" tushunchasining o'zi obyektiv bilimlarni tizimlashtirish va ishlab chiqishga qaratilgan faoliyat ekanini ta'kidlash lozim. Tushunchaning ilmiy-mazmuniy jihatini o'rganish "ijtimoiy pedagogika" atamasiga e'tibor qaratishni talab qiladi. U ikki sohadan iborat bo'lib, "Pedagogika" va "Sotsiologiya" fanlari ma'nosining integratsiyasidan (birlashuvidan) vujudga kelgan. Bu birlashuv "ijtimoiy pedagogik faoliyat", "ijtimoiy ta'lim" va "ijtimoiy tarbiya" kategoriyalarini kiritganlar.

Bolani ijtimoiylashtirish murakkab va davomli hodisadir. Bir tomondan har qanday jamiyat o'zining rivojlanish etapida ma'lum ijtimoiy, ma'naviy qadr-qimmat, o'zini titishi, axloqiy qonun-qoidalar, normalar ishlab chiqadi. Jamiyat bir avlod shu jamiyatdagi qonun-qoidalarini egallab uning teng huquqli a'zosi sifatida yashab, faoliyat ko'rsatishni ko'zda tutadi. Buning uchun jamiyat ta'lim-tarbiya normasi orqali shaxsga ta'sir ko'rsatadi Ikkinchi tomondan, atrof'dagi olamda sodir etilayotgan turli hodisalar uning shakllanishga ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Jamiyat o'zaro munosabatda bilgan o'zaro shakllanadigan xilma-xil ijtimoiy institutlarni o'zida namoyon qiladi. Shular orqali bola tomondan ijtimoiy normalarni egallash jarayoni amalga oshadi. Bulardan ba'zilari bolani rivojlanishi va ijtimoiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, boshqalari esa uning shaxsiy sifatlarini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday ijtimoiy institutlar qatoriga oila, ta'lim, madaniyat va din kiradi.

**O'z qobiliyatini inson tomondan jamiyatda ko'plab quyidagi jarayonlarda amalga oshadi:**

1. Insonni jamiyat bilan stixiyali izaro munosabatda va uning shayotiy jabhalariga stixiyali ta'lim jarayonida.
2. Insonlarni u yoki bu kategoriyasiga davlat tomondan pedagogika nimani o'rgatadi? Ijtimoiy pedagogika insonlarning butun egalayotganayotgan davom etayotgan amalga oshiradigan ijtimoiy tarbiyani ta'kid ta'sir ko'rsatish jarayonida.
3. Inson rivojlanishi, uni tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.
4. Inson o'zini tarbiyalashi va rivojlantirish jarayonida.

Shunday qilib, rivojlanish insonni shakllanish jarayoni, ijtimoiylashtirish konkret ijtimoiy sharoitlar asosida rivojlantirishdir. Inson tarbiyasi asosan oilada amalga oshiriladi.

Bu holatda biz oilaviy pedagogika obyektivi bilgan oilaviy xususiy tarbiyalarda mulohaza yuritamiz. Tarbiyalash diniy idoralari orqali amalga oshadi. Bunda konfessional tarbiyaga duch kelamiz. Tarbiyalash davlat va jamiyat tomondan shu maqsadida tashkilotlar orqali yuzaga keladi. Bu ijtimoiy pedagogika tadqiqot obyektivi bilgan ijtimoiy tarbiyalash jarayoni xususida fikrlaymiz.

### **Ijtimoiy pedagogikani nima uchun o'rganish lozim?**

Ijtimoiy pedagogika - fanning shunday tarkibiki, uning vositasida:

**Birinchi**dan, inson hayotda ma'lum sabablar asos ichida yuzaga kelgan hodisalar o'rganiladi.

**Ikkinchi**dan, insonning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

**Uchinchi**dan, ta'sir etuvchi hodisalarning oldini oladi.

Ijtimoiy pedagogika o'quv predmeti sifatida ijtimoiy pedagogik faoliyat tasvirini xarakterlaydigan vazifasini amalga oshiradi. Bu vazifani amalga oshirish ijtimoiy pedagogikani o'rganish jarayonida o'quvchilar tomonidan bir qator maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi: ma'lum doiradagi nazariy bilimlarni egallash va bularni amalda qo'llash muammoni oldindan ko'rish va yechishga subyekt va ijtimoiy jarayonga ko'ra ijtimoiy gumanitik munosabatlarni shakllantirish.

#### **Ijtimoiy pedagogika fanining maqsadi va vazifasi.**

Ijtimoiy pedagogika faning maqsadi jamiyatlardagi har bir shaxsning shayotida uchraydigan ijtimoiy muammolarni bartarafetish va hal qilishdan iborat. Ta'limvatarbiyamasalalari bilan shug'ullanish, keksalar, qariyalar, kasal va boquvchisini yo'qotganlar, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalar holidan xabar olish. Shu jumladan fohisha bozilik, narkomaniya va qonunbuzarlikka qarshi ko'rashish. Bu illatlardan jamiyatni, ayniqsa, kelajak avlodni himoya qilish zarur.

#### **Ijtimoiy pedagogika fanining vazifasi quyidagi 4 bosqichni o'z ichiga oladi.**

1. Bolani va o'smimi haqiqatga o'z qilib tarbiyalash va voyaga yetkazish;
2. Shaxsning mustaqil fikrlay olishi, muammoga duch kelganida uni mustaqil ravishda hal qila olishi va o'z munosabatini bildirishi;
3. Atrofdagi kishilar bilan erkin va madaniy holda muomala qilishni o'rgatish;
4. Hayotdagi o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini ongli ravishda tushunishga o'rgatish.

Ijtimoiy tushunchasi. "Ijtimoiy tushuv" so'zi dastlab siyosiy iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy iqtisodiyotda yer va ishlab chiqarish vositalarining umumlashuvi ma'nosini

anglatgan.

"Ijtimoiy tushuv" atamasini birinchi bo'lib, amerikalik sosiolog F. G. Keddings insonlarga nisbatan qo'llagan. U "Ijtimoiy tushuv nazariyasi" (1987) kitobida hozirgiga yaqin ma'noda "Ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir" degan fikrni bildiradi.

XX asr o'rtalarida ijtimoiy tushuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida o'rganuvchi hamda fanlararo bog'lanuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiy tushuvning turli kontseptsiyalarini tahlil qilish uni, shartli ravishda, ikki asosiy yondashuvga ajratish imkonini beradi:

- subyektiv-obyektiv. Unda insonga jamiyat ta'sirining sust iste'molchisi sifatida qaraladi (E. Dyurkgeym, T. Parsons);
- subyektiv-subyektiv. Bunda ijtimoiy tushuv jarayonida insonning faol o'rni, uning hayotiy holatlarga ta'sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko'proq mos keladi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiy tushuv insonning madaniyatni o'zlashtirish jarayonidagi rivojlanishi va o'zgarishi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy tushuv jarayoni. Bolaning ijtimoiy tushuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo'lgan obyektiv ehtiyojli jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bolada boshqa bir obyektiv ehtiyoj - o'ziga xoslikni namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Shaxsning faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy xulq-atvori esa takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan ikki

yo'nalishda olib boriladi: moslashuv (ijtimoiy madaniy tajriba, madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbatan uziga xoslikka ega bo'lish). Shunday qilib ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda inson shaxsining moslashuvi va individuallashuvi jarayonlarini o'zaro bog'laydi. Inson (bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi (individuallashuvi) ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil qiladi.

Moslashish sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J. Piale, R. Mertoj).

### 3-S Shaxsni o'zini boshqarish mexanizmlari

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudotga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashuv insonning obyektiv ehtiyojlar bilan bog'liq holda jamiyatda ma'lum darajada alohidalikka intilishi bulib, uning yoshligidayoq o'z-o'zini namoyon qilishga bo'lgan harakatlarida paydo bo'ladi. Bu ehtiyoj quyidagicha namoyon bo'ladi:

- A. o'z qarashlariga ega bo'lish;
- B. o'ziga xosliklarga ega bo'lish;
- C. o'ziga tegishli bo'lgan masalalarni o'zi hal qilish;
- D. o'z mavqeini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida moslashuv va individuallashuv jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi. Shu bilan birga, bunday hollarda shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etishi ham

sodir bo'ladi.

Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon uch asosiy sohada amalga oshadi:

1. Faoliyat turlarining kengayishi, uning shakli va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish.
2. Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish.
3. Shaxsiy "Men" obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, uz ijtimoiy mansubligi va o'rni anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish.

Inson ijtimoiylashuvi yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bulgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi. Ularga quyidagilar kiradi:

Go'dakni emizish va g'amxo'rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari, insonni o'rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari (alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari: muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug'ullanish.

Bolaning barqaror rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri muloqotdir. Muloqot va faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo'llaniladi:

1. go'daklik davri – bevosita hissiy-ruhiy;
2. go'daklikdan keyingi davr – predmetli faoliyat;
3. maktabgacha davr – rolli o'yinlar;
4. ilk maktab davri – o'quv faoliyati;
5. o'smirlik davri – kasb ta'limi faoliyati;
6. o'spirinlik davri – shaxsiy muloqot faoliyat

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq-atvorning me'yor va qoidalari haqidagi turli bilimlarni, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalikda juda jadal sur'atlar bilan amalga oshadi.

Bola ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati, uning jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishining qiyinligidir. U bularni faqat o'zlashtirib boradi, shuning uchun ham bola shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarining (psixolog, shifokor, pedagog va shu kabilar) ta'siri katta bulib, bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq, o'zlashtirishlari, ularni hayotda qullashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir. Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasida ta'lim olish jarayonida bola, avvalo, akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir vaqtda unda muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida – bolaga maxsus yordam kerak bo'lganda – juda zarur bo'ladi.

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni unga yetkazish, ijtimoiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish ijtimoiy ta'lim deyiladi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Ijtimoiy pedagogikaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Ijtimoiy pedagogianing predmeti nimalardan iborat?
3. Ijtimoiy pedagogikaning obyekti nimalardan iborat?
4. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish deganimiz nima?
5. Ijtimoiylashuv – ijtimoiy-pedagogik jarayon deganda nimani tushunasiz?
6. Bolaning ijtimoiylashuvi nimalarda namoyon bo'ladi?

## **V. BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV**



**Tayanch so'zlar:** innovatsion ta'lim, innovatsion muhit, ona tili va o'qish savodxonligi, tarbiya, matematika, innovatsion yondashuv, metod, texnologiya va usul.

### **1-9 Innovatsion ta'lim muhitini yaratish**

**I**nnovatsion muhit – bu pedagogik jamoada, umuman ta'lim muassasasida shunday ijodiy, samimiy, do'stona sharoit tug'diradiki, unda o'qituvchi o'zini erkin his qiladi, jamoada ichki intilish, moddiy, ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. U muhitda o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga, ishlashga tayyor bo'ladi.

"Innovatsion ta'lim" deganda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bog'liq. Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga;
- pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;
- ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;
- o'quv-metodik ta'minotiga;
- tarbiyaviy ishlar tizimiga;
- o'quv reja va o'quv dasturlariga;
- o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga bog'liq.

Yangilik tarixiy aspektda nisbiylik ahamiyat kasb etadi. Yangilik aniq tarixiy xarakterga ega, ya'ni o'z vaqtidan oldin paydo bo'lishi mumkin, o'z vaqtida me'yor bo'lishi yoki eskirishi ham mumkin. Maktab yoki oliy tizimning rivojlanish jarayonida, ehtimol ta'lim tizimi butunicha:

- absolyut yangiligi (o'xshashi, prototipning yo'qligi);
- nisbatan yangiligi;
- o'ziga xos, ixtirochiligi ko'rinishidagilar hisobga olinadi.

Yangilik xillari (tiplar) maktab va oliy tizimda turlicha asoslarga ko'ra guruhlanadi:

**Birinchi klassifikatsiya (guruh)** – yangiliklarni kiritish, maktab va oliy tizimda sodir bo'ladigan pedagogik jarayonga aloqadorligi bilan asoslanadi. Ushbu jarayonni tushunishga tayanib, quyidagi ko'rinishdagi yangilik xillarini ajratish mumkin:

- ta'lim maqsadi va mazmuniga;
- pedagogik jarayon metodikasi, vazifalari, usullari, texnologiyalarga;
- ta'lim va tarbiyani tashkil etish shakllari va vositalari;
- rahbariyat, pedagog va o'quvchilar faoliyatiga.

**Ta'lim tizimiga ikkinchi klassifikatsiya (guruh)** – yangilikni kiritish mashtabi (hajmi) belgisiga asoslanadi. Bu yerda quyidagi o'zgarishlarni ajratish mumkin:

- bir-birlari bilan bog'liq bo'lmagan lokal va alohida (bir tomonlamalilik);
- kompleks, o'zaro bir-biri bilan bog'liq;
- butun maktab va oliy tizimni qamrab oluvchi, tizimli.

**Uchinchi klassifikatsiya (guruh)** – innovatsion imkoniyatlarga qarab amalga oshiriladi. Bu holatda e'tiborga olinadi:

- ta'lim dasturlari, o'quv rejalar, tuzilmalarni takomillashtirish, ixtirochilik;
- ko'rinishlarni o'zgartirish bilan bog'liq ma'lum va qabul qilinganlarni modifikatsiyalash;
- kombinatorlikka (o'zgartirishlar) xos yangilik kiritish; radikal o'zgartirishlar.

Ta'lim tizimida yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari masalasi o'rganishga kirishishdan oldin "Pedagogik tizim" va "Pedagogik tizimda yangiliklar kiritish" tushunchasini aniqlab olaylik.

Pedagogik jarayon bilimziki, pedagogik tizim asosida yo'lga qo'yiladi. Pedagogik tizim – bu tashkil etuvchilarning birlashtirilgan majmui bo'lib, ular o'zgarishlarda ham barqarorligicha qolaveradi. Agarda o'zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir mumkin bo'lgan chegaradan oshib ketssa, tizim buziladi, uning o'rniga yangi boshqa xususiyatli tizim yuzaga keladi.

Pedagogik tizim – elementlarning juda mustahkam birlashuvidir. Har qanday pedagogik tizimning tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar yig'indisidan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda quyidagi ko'rinishga ega:

- o'quvchi; tarbiyaning maqsadi;
- tarbiya mazmuni;
- tarbiya jarayoni; o'qituvchilar (yoki TTV – ta'limning texnik vositalari);
- tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllaridan iborat bo'ladi.

Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har biri har qanday

darajada elementlarga bo'lib, yoyib ko'rsatilishi mumkin.

Ko'rilgan tizimni mukammal tarkibiy tuzilish emas, deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko'rsatib o'tilganlarga qo'shila olmaydiganlar pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismlari, shuningdek, "natijalar", "o'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish", "texnologiya"lardan iborat, deb ham hisoblashlari mumkin.

Pedagogik tizimning tashkil etuvchi tarkibiy qismi sifatida alohida omillar birligi deb ta'kidlagan holda ularni ko'pincha, o'quv-tarbiya jarayonining texnologiyasi deb ko'rsatadilar. Bunday yondashishda pedagogik tizim ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan mustahkam tashkiliy texnologik kompleks bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik tizim har doim ham texnologiyadir. Ana shu belgisi bo'yicha pedagogik tizimning tarkibiy qismlar ixtiyoriy "to'plarni" dan ajratib olish osondir.

## Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda innovatsion yondashuv

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan darslar orqali o'quvchilarda yangi bilimlar egallanadi, mustahkamlanadi va kompetensiya shakllanishi uchun dastlabki qadam qo'yiladi va egallanadi.

Keling, innovatsiya so'zining ma'nosidan kelib chiqqan holda ushbu fandan darslarni tashkil etishda qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi metodlarning bir nechta bilan tanishib chiqaylik:

**"Bog'la" metodi.** Ushbu metod orqali o'quvchilar og'zaki va yozma nutqi hamda fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Metodni amalga oshirishda uchta turli xil mavzulardagi rasmlardan foydalaniladi, dastlab o'quvchilar diqqatiga uchta

rasm ketma-ketlikda ko'rsatiladi va ushbu rasmlardagi o'zaro bog'liq jihatlarni topish va kichik bir hikoya tuzish topshirig'i beriladi. Og'zaki hikoya tuzilganidan so'ng vaqt belgilanib, uni mashq daftariga yozish topshirig'i beriladi. O'qituvchi yozilgan hikoyalardagi so'zlarni bir-biriga bog'langani va imlo xatolarsiz yozilgan hikoyalarni baholaydi.

**"Kakografiya" metodi.** "Kako" so'zi xato ma'nosini anglatadi. Ushbu metodni ikki va uch bosqichda o'tkazish mumkin. Dastlabki bosqichda kichik bir matn o'quvchilarga tarqatiladi va imlo xatolar topish topshirig'i beriladi. Keyingi bosqichda turli xil peshtaxtalarga xato yozilgan so'zlarning rasmi taqdim etiladi, xatolarni to'g'irlash topshiriladi. Navbatdagi bosqichda ko'chada yurgan paytimiz shunday xato yozilgan peshtaxtalarni ko'rsak, xatolarni to'g'ri yozilgan shaklini o'zimiz uchun bilishimiz lozimligi aytiladi.

## 2-§ Matematika, tarbiya fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuv

Matematika darslarida o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini shakllantirish maqsadida kompyuterdan foydalanish masalasiga to'xtalib o'tamiz. O'qituvchi o'z mashg'uloti davomida o'quvchilarga ma'lum hajmdagi mashg'ulotlarni beribgina qolmay, ularda turli vositalardan, jumladan, kompyuterdan foydalanib, mustaqil ravishda boshqa ma'lumotlarni izlab topishga ishtiyok tug'dirishni shakllantirishga erishishi lozim. O'quvchilarning mustaqil ravishda bilishga harakati yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, mashg'ulot shuncha samarali va sifati o'tadi. Kompyuter o'quvchilarni mustaqil ish olib borish imkoniyatini oshiradi, o'qituvchi esa o'tilgan materialni o'zlashtirish jarayonini turli shakllarda nazorat qilishi mumkin.

“Matematika fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar” – matematika fani o'qituvchilari malakasini oshirish kursining o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, u matematika fani o'qituvchilariga ta'limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib beradi. Fanlarni o'rganish uchun kerak bo'ladigan ba'zi mobil ilovalardan namunalarini ko'rib chiqamiz. “Matematik topqirlik” og'zaki hisob-kitob qobiliyatini o'stirish ilovasi. Ilova tez hisoblash uchun mavjud algoritmlarni aks ettiradi. Har bir o'quvchi ularni o'rganishi mumkin, so'ngra nazariy bilimlarni amaliy mashqlarda mustahkamlashi, shu tariqa og'zaki hisoblash amaliy tajribalarini boyitishi mumkin. Bu ilovani yaratuvchilari og'zaki hisobda tarmoqdagi boshqa foydalanuvchilar bilan raqobat qilish imkonini ham hisobga olishgan [1;2].

Matematika fanini o'qitishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlari – agar biror tizimni yangilashga qaratilgan faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, innovatsiya (inglizcha “innovatsion” – yangilik kiritish) deb muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatga aytiladi.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'inidagi ta'lim muassasalari, shu jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida yangi muammolar, ya'ni o'qitilayotgan fanning o'zlashtirish sifatini oshirish vazifasi turibdi. Bu borada matematika fanini o'qitishda ham turlicha metodlar qo'llanilmoqda, bundan ko'zlangan asosiy maqsad matematika fanini o'qitishni taqdim o'zlashtirishdan iboratdir. Matematika fanini o'qitishda, undagi mavzularni tushuntirish va ko'rgazmalilikni tashkil etishda zamonaviy axborot

texnologiyalari vositalaridan ham foydalanish mumkin. Axborot texnologiyalari vositalaridan biri multimedia muhitida har xil animatsiyalar, dasturlar orqali matematikani o'qitishni tashkil qilish mumkin.

Oo'yilgan talablar bo'yicha axborot texnologiyalarining multimedia vositalari asosida dars jarayonini tashkil qilish pedagog o'qituvchilarning yumushini osonlashtirib, o'quv jarayonini boshqarish, uning samaradorligini yanada ko'tarishga erishiladi. Shu bilan bir qatorda ta'lim muassasasi rahbariyatiga talaba, guruh, mutaxassisliklar bo'yicha test natijalarini ko'rib borish va ularning o'zlashtirish natijalariga baho berish, o'qituvchilarning ma'ruza matnlari va boshqa mustaqil ishlariga mo'ljallangan materiallarining tayyorlash sifatiga baho berish, multimedia vositalari asosida laboratoriya ishlarini bajarish uchun kompyuterda modellashtirilgan virtual stendlar joriy etish, kursni o'zlashtirish bo'yicha uslubiy materiallarni tayyorlash uchun takliflar ishlab chiqish kabilarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir: differentsial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilish; o'qish jarayonini baholash, teskari (qarshi) aloqa bog'lashi; o'z-o'zini nazorat qilish va tuzatib borishi; o'rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularni dinamik jarayonini ko'rsatishi; fan ma'ruzalarida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishi; o'quvchi-talabalarga fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar hosil qilishi va hokazo [1;2].

Shuningdek, multimedia vositalarining amaliy tomoni ulardan o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o'quv jarayoni uchun ma'lumotlar bazasini va virtual stendlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf (3-sinf) matematika darslari uchun elektron ishlanmalar yaratish

metodikasi, darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish va shu asosida darslar o'tish metodikasi ishlab chiqilgan. Yaratilgan elektron ishlanmada sarvara, mundarija, o'quv materiallarini bayon qilish sahifalari mavjud bo'lib, bilimlarni nazorat qilish uchun test va topshiriqlar ham ishlab chiqilgan.

Elektron ishlanmaning asosiy bo'limi matn, grafik, animatsiya va test dasturlarini o'z ichiga olgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf matematika darslarini yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'tishda kompyuterlardan foydalanib, multimedia imkoniyatlari asosida dars o'tish noan'aviy dars turlaridan biri hisoblanadi.

Ishda keltirilgan elektron ishlanma orqali 3-sinf matematika darslarini kompyuter imkoniyatlaridan foydalanib, maktabda dars o'tganimizda, olingan natijalar bo'yicha quyidagi xulosalarga keldik:

- elektron ishlanma imkoniyatlaridan foydalanib, o'quvchilarga mavzuni to'liq tushuntirish imkoniyati oshadi;
- harakatli tasvirlar va animatsiyalar o'quvchilarning tasavvurlarini kengaytirish uchun muhim rol o'ynaydi;
- dars o'tishda vaqtdan yutish imkoniyati tug'ildi, ya'ni mavzuning tushuntirilishiga va o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishlariga kam vaqt sarflandi; Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar amaliy ishlarga, ya'ni misol va masalalar yechishga, hayotiy misollar keltirishga, o'quvchilar o'rtasida savol-javob o'tkazishga ko'proq vaqt qoladi;
- yuqoridagilar asosida, ularning bilim, ko'nikma va malakalari oshadi; barcha o'quvchilarni baholashga imkon tug'iladi, ya'ni misol va masalalarni yechishga baho qo'yilsa, uyuq berilgan vazifalarni bajarishlariga qarab, test topshiriqlarini bajargach, ular jamlanib baho qo'yiladi;

- o'quvchilarning o'zlarini mustaqil o'rganishlari uchun imkoniyat yaratiladi, ya'ni o'quvchi ushbu elektron ishlanmadan foydalanishi o'qituvchi ishtirokisiz mustaqil ravishda multimediyaga imkoniyatlaridaidan foydalanib mavzuni o'rganishi va yaxshi o'zlashtirishi mumkin.

O'sib kelayotgan avlodni barkamol va aqlli qilib tarbiyalashda avvalo maktab tizimini tubdan o'zgartirib har bir fanlar uchun (SMART) xonalarni tashkil qilsak maqsadga muvofiq bo'lardi. O'quvchilarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda planshetlar bilan darslar o'tilishini ta'minlasak va matematika fanidagi barcha mavzularni (SMART) xonalarda o'quvchilarni planshetlarda mustaqil ishlashlarini ta'minlasak bilim olishni samaradorligiga erishishimiz mumkin. Xonalarda ko'proq o'quvchilar ushlab ko'rib misollarni bajaradigan jihozlar bilan jihozlash kerak. Bolalar ushlab, amalda bajarsalar har bir misol va mashqlarni tezda o'zlashtiradilar. Har bir bola SMART telefon yoki kompyuter texnologiyalaridan foydalangisi, uning ishlash funksiyalari, imkoniyati darajasidagi barcha o'yin va programmalarni tez o'rganib olishga qiziqadi. Demak, biz matematikani bolalarga tez va sifatli o'rgata oladigan elektron programma ishlab chiqishimiz kerak.

Uy vazifalarini ham o'zlarini qiziqib tayyorlashadi. Uning ichida o'yinli va mulohaza qilishga majbur qiladigan masalalar, tezkor, sodda misollarning javoblarini og'zaki aytishadigan bo'lishi kerak. Bu programma ham darsda foydalana olinadiga ham darsdan tashqarida mustaqil foydalanish uchun yaratilgan bo'lishi kerak. O'yinli qismida labirintdan chiqish o'yinini o'ynash bilan birga labirintdan chiqish uchun qancha vaqt sarflanganini, nechta qadam yurganini, umumiy qancha yurganini to'g'ri ko'rsatishi shart bo'ladi, to'siqlardan o'tish uchun misollar beriladi javobini to'g'ri yechsa to'siqlar olinadi. Noto'g'ri javob berilsa, to'siqlar olinmaydi, misollarni yana qayta yechishga to'g'ri keladi, barcha shartlarini to'g'ri

bajarishmasa past ko'rsatkich olishi mumkin bo'ladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda innovatsion yondashuv
2. Matematika, fanini o'qitishda innovatsion yondashuv
3. Tarbiya fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuv
4. Innovatsion muhit va innovatsion ta'lim nima?

## VI. MASOFAVIY TA'LIMDA INNOVATSIYANING ROLI



**Tayanch so'zlar:** masofaviy ta'lim, innovatsion yondashuv, usul, metod, texnologiya.

### 1-S Yaponiyada ta'lim tizimi

**Y**aponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868-yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: 1-bo'yish, 2-G'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligi aytiladi.

1872-yili «Ta'lim haqida Qonun» qabul qilindi. Bunda yapon ta'limi G'arb ta'limi bilan uyg'unlashtiriladi. 1908 yil Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893 yili kasb yo'nalishidagi dastlabki kollej paydo bo'ldi.

1946-yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari shart ekanligi belgilab qo'yilgan. Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimlarining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlari. Bolalar yosh xususiyatlariga qarab 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9% xususiy, 40,8% munitsipal, 0,3% davlatnikidir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik kichik o'rta maktab, 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir, tekin darsliklar bilan ta'minlangan. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta,

o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan taqdirda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu qatorda xususiy maktablar ham mavjud.

Yuqori bosqich o'rta maktab 10, 11, 12 sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o'qiydilar.

Yaponiyada o'quv yili 240 kun (AQSH 180). O'quv yili 1-apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi ta'til iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o'tiladi.

Dorilfununlarga katta o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasixususiy, 1-toifadagi universitetlarda har biri o'qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi: buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar.

Bu sinovlardan o'tgan o'quvchilar universitetlarga yo'llanma oladilar va yana sinovdan o'tadilar. Xususiy universitetlarga esa to'g'ridan-to'g'ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o'zining uzluksiz shahobchasiga ega (bog'chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi). Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o'qish muddatini cho'zish mumkin (4 yillik o'qish 5-6 yilgacha cho'zilib ketishi mumkin).

#### **Kollejlar:**

- 1-kichik kollej;
- 2-texnik kollej

3-maxsus kollejlariga bo'linadi.

Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 3 yoki 4 kurslariga qabul qilinadi.

## 2-S

### Janubiy Koreyada ta'lim tizimi

**J**anubiy Koreyada ta'lim haqidagi Qonun 1948-yilda qabul qilingan. Ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan: 6 yil – quyi maktab, 3 yil – o'rta, yana 3 yil – oliy maktab; so'ngra to'rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqur o'rganilgandan so'ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo'lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

Mamlakatda oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koreyada 104 ta oliy o'quv yurti bor, ularning 80 foizi xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o'quv yurtlarida o'qishga qiziqish kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o'qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Lekin maktabgacha ta'lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojini qondira olmayapti. Shuning uchun 1982 yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. SHu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir.

Boshlang'ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshli kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o'qiydi. Dars nagruzkalari ham ko'proq. Lekin o'yinlar dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor. Boshlang'ich maktabda dars 40 minut davom etadi. O'rta maktabda esa darslar 45 minut.

**FOTO: Koreya maktablari**

Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 minutga teng. Bu yerda ikki muhim jihatta to'xtalib o'tish zarur. Oliy maktabga, albatta, kirish imtihonlari topshirib kiriladi, o'qishlar pullik. Boshlang'ich maktabda 9 ta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi.

O'rta maktabda fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7-sinfdan boshlab chet tillar o'rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bemaol gaplasha oladi. Chet tillarni o'qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni – klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi.

Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir. Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan.

Koreyada nogironlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni har qadamda kuzatish mumkin. Aytaylik, bu yerda aravachalar yordamida harakatlanuvchilar uchun yer osti liftlari mavjud, maxsus jihozlangan past qilib qurilgan telefon-avtomatlardan nogironlar bemaol foydalanadilar, rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan. Davlat maktablarida din o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab «Odobnoma» kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan. Bu fan o'z ichiga dini ham qabul qiladi. U qotib qolgan bir narsa sifatida emas, qadriyat sifatida o'qitiladi. Bu butun tarbiya tizimi natijasidir. Ehromlarga

borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma'naviy tarixni o'rganish maktab fanining majburiy davomi hisoblanadi.

Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo'lajak pedagoqlardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar kollejlari mavjud. Har bir provinsiya o'z kollejiga ega. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish kerak. Fan o'qituvchisi birmuncha ko'proq o'qiydi.

Soliqlar tizimida ta'limiy soliq joriy qilingan: ishlab chiqaruvchilar foydaning ma'lum foizini maorifga yuboradilar. Davlat byudjetining 24 foizi ta'limga sarflanadi. Mamlakat prezidenti (u xalq ta'limi Davlat kengashini boshqaradi) shaxsan provinsiyalarda ta'lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta'limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda maorifga qanchalar zo'r ahamiyat berilishini ko'rsatib turibdi.

### 3-S Fransiyada ta'lim tizimi

Fransiya ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda «Ta'lim haqida»gi Qonun dastlab 1955-yilda qabul qilinib, 1975-yilda unga qator o'zgartirishlar kiritilgan. Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilina yotgan «Ta'lim haqida»gi Qonuni 1989-yil 10-iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatdagi islohotlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish,

shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir.

Bu yerda:

Davlat maktablari;

Xususiy maktablar;

Oraliq maktablari mavjud.

#### **FOTO: Eyfel minorasi, yonida studentlar**

Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablari 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy.

**Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:**

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

Dasturlarda o'quv predmetlarning barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talablar qo'yiladi. 1990 yildagi hukumat qarorida bolalarni bilimiga, qobiliyatiga qarab dars jadvalini tabaqalashtirgan holda tuzish huquqi berildi.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib, sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi.

Sirtqi ta'lim shoxobchalari juda keng bo'lib, u 500 turdagi o'rta, oliy professional ma'lumot berishni tavsiya eta oladi.

2000-yilda Fransiya maktablaridagi ahvol sinchiklab o'rganilib, o'quvchilarning ko'pchilik darslarga kirmay boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'lib yurishi aniqlangach, bu kamchilikni tuzatish uchun jiddiy choralar ko'rilmogda. Politsiyani bu ishga jalb etib, dars vaqtida boshqa joylarda yurgan bolalarni aniqlash, ularga jarima solish va maktabga jalb qilish yuklatiladi. Bu o'z navbatida ham ota-onalar, ham ularning farzandlariga mas'uliyat yuklaydi.

## **4-S Germaniyada ta'lim tizimi**

**G**ermaniya – jahon ilm-fani va madaniyati o'choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlarni bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada e'tirof etilgan olmon ta'lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e'tibor beriladi. Ta'lim tizimiga ta'biqatlayotgan yangi usullar, so'nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o'z o'rniga ega bo'lish amri mahol. Darvoqe, olmonlarga xos temir intizom, birso'zlilik xislatlari ham aynan ta'lim dargohlarida shakllanadi.

### **Tafakkur ustaxonasi**

Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog'chasi xayriya jam'armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyiligidagi faoliyat yuritadi. Shu bilan birga korxon va tashkilotlar ham o'z bog'chasiga ega bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmagan bolalarda o'z fikrini ifodalash, tengdoshlari va

kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda bog'chalarining o'rnini katta. Shu bois ham olmonlar bog'chalarni "tafakkur ustaxonasi" deb atashadi.

### Bepul va majburiy talim

Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab ta'lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang'ich ta'lim 4 yil (birinchi sinfdan to'rtinchi qadar), poytaxt Berlinda esa - 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiy tartib-qoidalar amal qiladi. Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart qilib belgilangan. Maktab ta'lim tizimi esa boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'linadi.

Bolalar 5-6 yoshdan boshlang'ich maktabga qatnaydi. Boshlang'ich maktabda o'qish davri to'rt yildan olti yilgacha. Maktablarda birinchi, ikkinchi sinf davomida o'quvchilarga baho qo'yilmaydi. O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual, psixologik rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi. O'quvchilarga 3-sinfdan baho qo'yila boshlaydi.

Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Bunga ko'ra,

- 1 - a'lo;
- 2 - yaxshi;
- 3 - qoniqarli;
- 4 - yetarli;
- 5 - yetarli emas;
- 6 - qoniqarsiz.

O'quvchilar fanlarni eng kamida "4"ga o'zlashtirishi kerak.

Boshlang'ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetika fanlari o'tiladi.

### FOTO: Germaniya ta'limi

#### Tanlash imkoniyati.

Olmon ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchilar boshlang'ichni tugatib, kelajak yo'lini aniqlab olishi zarur. Ana shunga asoslanib, u bir necha turdagi maktabdan birida o'qishni davom ettiradi.

#### Asosiy maktab.

Bu yerda bolalar to'qqizinchi sinfgacha o'qitiladi. Asosiy maktablarda oliy ta'lim muassasalarida o'qish niyati yo'q bo'lgan, biror bir kasb etagidan tutishni ko'zlagan o'quvchilar ta'lim oladi. Bu turdagi maktablarda bazaviy bilimlar beriladi va asosiy e'tibor amaliy mashg'ulotlarga qaratiladi. Asosiy maktabni tugatgan o'smirlar tugallanmagan o'rta ta'lim haqida shahodatnoma oladi. Ushbu hujjat bilan kasb-hunar maktablariga kirish mumkin. Bizdagi kasb-hunar kollejlarga o'xshab ketadigan mazkur maktablarda talaba muayyan kasb-hunar bo'yicha bilim va tajriba oshiradi.

#### Real maktab.

Bu turdagi maktablarda matematika va tabiiy fanlarga moyil, kelajakda oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lishni niyat qilgan bolalar o'qiydi. O'qish 5-sinfdan 10- sinfgacha. Mazkur muddat mobaynida yoshlarga turli fan sohalari bo'yicha kengaytirilgan bilim beriladi. Real maktabni tugatgan o'smirlar o'qishni gimnaziyada davom ettiradi.

### Gimnaziyayu.

O'quvchilar o'rta ta'limning eng muhim bo'g'ini bo'lgan ushbu bilim maskanida to'qqiz yil – 5-sinfdan 13-sinfgacha ta'lim oladi. Real maktabning 10-sinfini tamomlagan yoshlar esa gimnaziyada uch yil o'qiydi. Mazkur ta'lim dargohida gumanitar, tabiiy fanlar va xorijiy tillar chuqur o'rgatiladi. O'quvchilar o'n birinchi sinfdan tanlagan yo'nalishidan kelib chiqib, asosiy vaqtini bir necha fanni chuqur o'rganishga sarflaydi. Gimnaziya – oliy ta'limga tayyorgarlikning hal qiluvchi bosqichi. Negaki, gimnaziyani tugatganlik to'g'risidagi imtiyozli shahodatnoma universitetga imtihonsiz kirish huquqini beradi. Ammo imtiyozli shahodatnomani olish oson emas. O'quvchiga ushbu hujjatni berishda uning o'n uch yil davomidagi natijalari hamda to'rtta fan bo'yicha yakuniy imtihon baholari inobatga olinadi. Olmon zaminida oliy o'quv yurtiga kirish uchun o'n uch yil yaxshi natija bilan o'qish kerak. Ana shundan keyingina universitet yo'llari ochiladi.

### "Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!"

Germaniyada davlatga qarashli maktablar bilan birga xususiy ta'lim maskanlari ham faoliyat yuritadi. Xususiy maktablar o'rta ta'lim maskanlarining 2 foizini tashkil etadi. O'quv dasturlari an'anaviy maktablardan farq qiluvchi xususiy maktablarni Federal ta'lim va madaniyat vazirligi nazorat qiladi. Xususiy maktablar sanoat, til, kosmetika, gimnastika, uy xo'jaligi kabi ixtisoslashgan yo'nalishlarda ta'lim beradi. Nodavlat ta'lim maskanlari bir-birini qo'llab-quvvatlash uchun Xususiy maktablar uyushmasiga birlashgan. Shuningdek, nogiron va aqliy qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktablar ochilgan. Olmon maktablarida xorijlik fuqarolar ham ta'lim olishi mumkin. Xorijliklar mahalliy shart-sharoitga moslashishi, nemis tilini puxta o'zlashtirishi uchun tayyorlov kurslari tashkil etiladi.

Nemis pedagoglari iste'dodsiz o'quvchining o'zi yo'q, deb hisoblashadi. Shunga ko'ra ular o'quvchining ochildirgan qirralarini kashf etish, ularni yangilik va ixtirolar ruhida tarbiyalashga intiladi. "Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!" deydi mashhur faylasuf Rene Dekart. Olmon maktablarida ana shu naql oltin qoida sifatida qabul qilingan. Pedagoglar birinchi navbatda o'quvchining, hatto xato bo'lsa-da, mustaqil fikri bo'lishiga erishishni maqsad qiladi. Ta'lim jarayoni esa ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi.

### Aslzodalar orzu qilgan universitet.

Germaniyada Yevropaning boshqa davlatlariga qaraganda bepul oliy ta'lim olish imkoniyati ko'proq. Nodavlat jamg'armalar hamda hukumat grantlari asosida xorijliklar ham nemis universitetlarida tahsil olishi mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mahalliy gimnaziyalarni bitirib, ityozli shahodatnomani olgan yoshlar universitetlarga imtihonsiz kiradi. Chet elliklar esa o'qishga kirish uchun nemis tili bo'yicha imtihondan o'tadi. Universitetlarda bakalavr bosqichi to'rt yarim yilgacha, magistratura bir yildan to'rt yilgacha, doktorantura ikki yildan besh yilgacha davom etadi. Odatda, bakalvriyat va magistratura talabalari o'qish yakunida davlat imtihoni topshiradi va dissertatsiya himoya qiladi. Talaba o'qish uchun qishki yoki yozgi o'quv mavsumini tanlash huquqiga ega. Yozgi mavsum aprel-sentabr, qishkisi esa oktabr-mart oylarini o'z ichiga oladi.

Germaniya Geydelberg, Kyoln, Frayburg, Tyubingen kabi qadimiy universitetlar vatani hisoblanadi. 1386 yilda asos solingan Geydelberg universiteti ko'hna qit'aning eng nufuzli oliy ta'lim dargohlari ro'yatiga kiritilgan. O'rta asrlardayoq ushbu universitetga kirish yevropalik aslzodalarning orzusi bo'lgan. Germaniyaning mo'jazzgina Geydelberg shahrida joylashgan mazkur universitetning nufuzi hozir ham baland. Bu yerdan Gegel, Yaspers kabi jahon tanigan olimlar, o'nga yaqin Nobel mukofoti egalari yetishib chiqqan. Universitet

yurisprudensiya, biologiya, kimyo, tibbiyot yo'nalishlarida kuchli kadrlar tayyorlaydi. Bu yerda o'qiydigan 25 ming talabani 12 foizi xorijliklardir. Myunxendagi Lyudvig-Maksimilian universiteti

Yevropani tibbiyot bo'yicha yetuk mutaxassislar bilan ta'minlaydi. Besh asrlik tarixga ega bo'lgan ta'lim maskanida ayni paytda 45 ming talaba tahsil oladi. Kasbiy oliy maktablar yoki institutlar olmon ta'lim tizimining o'ziga xos bo'g'ini sifatida muhandis, iqtisodchi, dizayner, mashinasozlik, ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari va sog'liqni saqlash yo'nalishlarida mutaxassislar yetkazib beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyaning 370 dan ortiq oliy ta'lim muassasalarida 2 millionga yaqin talaba, jumladan, 246 ming xorijlik tahsil olmoqda. Olmon yurti chet ellik talabalar soni bo'yicha dunyoda AQSH va Buyuk Britaniyadan keyingi o'rinda turadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Yaponiya ta'lim tizimi haqida gapiring.
2. Janubiy Koreya ta'lim tizimi.
3. Germaniya ta'lim tizimi.
4. Fransiya ta'lim tizimi.

## VII. TARBIIYA JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUV



*Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, innovatsion yondashuv, tarbiya fani, texnologiya.*

### 1-S

## Bola shaxsini o'rganish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarini yangilash

**O**zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z asarlarida ta'lim-tarbiya borasida alohida to'xtalib: "Xalqimizda "ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi" degan hikmatli bir so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi", deb ta'kidlaganlar.



**Tarbiya nazariyasi** – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakli, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o'rganadi.



Tarbiya jarayonining mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi.

Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi. Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini

amalg oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

#### Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;
- ma'lum jins va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

#### Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va ta'lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

#### Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- maqsadga yo'naltirilganligi;
- ko'p qirrali jarayon;
- uzoq muddat davom etishi;
- uzluksizligi;

- yaxlitligi;
- variativligi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi;
- ikki tomonlamalilik;

**Tarbiya qonuniyatlari** – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar.

#### Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatlari mavjud:

- ijtimoiy muhitning ob'ektiv va sub'ektiv omillariga bog'liqligi;
- tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi;
- faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;
- tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari amalda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish;
- tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning intensivligi;
- tarbiyalanuvchining "ichki olarni"ga ta'sir etishning intensivligi;
- tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish.

**Tarbiya tamoyillari** – bu tarbiyaviy ishning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlariva tashkilotilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

**Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:**

- maqsadga qaratilganligi va g'oyaviy yo'nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko'rish;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo'shib olib edagog;
- o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta'sirlarining birligi;
- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiya jarayonining tizimligi va uzluksizligi.

Tarbiya turlarining umumiy tavsifi. Tarbiya turlari turli sohalarga ko'ra tasnif etiladi. Ko'proq umumlashgan tasnif o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning turli yo'nalishlari bilan bog'liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo'linadi. Institutsonal belgilari bo'yicha oila, ta'lim muassasasi, ta'lim tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta'lim bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta'lim muassasalaridagi tarbiyaga bo'linadi.

Herbert Spencer ingliz olimi "Tarbiya – bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning amaliy jarayonlarini o'z ichiga olishi kerak" – deb yozadi, va "bolaning yashash sharoitlari uning shaxs sifatida ulg'ayishiga bog'liqligi, ta'sirini misollar orqali keltiradi. O'zining "Butun shaxsni rivojlantirish" kitobida tarbiyaning aqliy, axloqiy va jismoniy turlarini ko'rsatib o'tib, ulardan eng asosiysi axloqiy tarbiyadir deb ta'kidlaydi.

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko'ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy kontsepsiyalar bilan bog'liqlikda pedagogik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

Tarbiya metodlarini o'rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish davomida ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda to'rtta guruhga bo'lib olarniz:

- ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari;
- ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari;
- rag'batlantirish va jazolash metodlari;
- o'z-o'zini tarbiyalash metodlari.

### Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari.

Bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongli, hislari va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. Bu guruh usullarining mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar qo'yayotgani yetkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar ishlatiladi.

**Suhbat.** Talaba shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda talabaning jonli so'zi eng ta'sirli usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim. Suhbat turli mavzularda uyushtirishi mumkin: etnik mavzular (kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o'zini tutish qoidalari), estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi), siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari), ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot dunyosi).

**Hikoya.** O'quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to'liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Suhbat ham, hikoya ham talabalarning

yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'zbek tilida o'tkazilishi lozim. Eng yaxshisi suhbat va hikoya mavzularini talabalarning o'zlari tanlasin, bunda suhbatning zavqi ta'minlanadi, talabalar mavzuga befarq qaramaydilar.

1. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlarga pand-nasihah, tushuntirish metodlari ham kiradi.
2. Ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari.

**Namuna.** O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarini ko'rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir. O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofidagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarilishini kuzatib boradilar.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o'z farazandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan: "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Juda oddiy xulosa. Shu oddiy ibora ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham fahmiga boravermaydilar. Bu bilan xalq, uyingda tartibli bo'l, aks holda bolang ko'chada tartibsiz bo'ladi. Bola oldida birovlarining g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi, demoqchi.

Bunga o'xshash fikrlarni ko'plab keltirish mumkin. Bola rivojlanishining, o'zligini belgilashning asosiy omili – bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondashish qoidasi ta'lim-tarbiya jarayoniga singib ketadi.

Faoliyat talabalarni bilimlarni mustaqil egallashga undaydi, ularni qaysi ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o'zlashtirishlariga yordam beradi.

### **Mashq va o'rgatish metodlari.**

Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikda tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish talaba uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, talabaning aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi kengayadi. Odatsiz tarbiya – poydevorsiz binoga o'xshaydi, odat esa muntazam mashq orqali mustahkamlanadi.

**O'rgatish** – ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlari, amaliy ishlardir.

**Topshiriq.** O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. O'quvchilar o'z kuchlarini ommaviy ishlarga sarflashga, jamoa uchun ma'suliyatni his qilishga o'rganadilar.

**Pedagogik talab.** Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab – bu talabaning turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; u yoki bu harakatda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

### **Rag'batlantirish va jazolash metodlari.**

O'quvchi-yoshlarning har biri o'sib, ulg'ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo'layotganini sezishi kerak. Faqat

shundagina bola o'zining olg'a siliyb borayotganini ko'ra biladi, o'z kuchiga ishonadi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, unga quloq solishadi, u jamoaga kerak, u o'qituvchisini qiziqtiradi. Bunga erishish uchun rag'batlantirish usulidan foydalaniladi. Chunki, rag'batlantirish bolaga ishonishga, unga bo'lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarining kuchini e'tirof etishga asoslangan.

Ta'lim maskanlari tajribasida rag'batlantirishning quyidagi turlari qo'llaniladi:

- O'quvchining kuchi yetadigan, ma'suliyatli topshiriq berish orqali ishonch bildirish; bunda o'quvchi o'z qadr-qimmatini bilan faxrlanadi;
- Maqtash (ota-onalar, jamoa oldida);
- Esdalik sovg'asi berish (kitob, ruchka, o'quv asbobi va boshqalar);
- Maqtov yorlig'i berish;
- Hurmat taxtasiga fotosuratini qo'yish;
- Mas'uliyat va jamoaning minnatdorчилиги;
- Safda birinchi o'rinda turish;
- Musobaqalarda bayroq ko'tarish;
- Gazetada, radioda e'lon va hokazo.

Har qanday rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim.

Jazolash – bu tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo ham talabani va butun guruh manfaati uchun qo'llanadigan oxirgi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo'rqitish, g'azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, talaba qo'rqqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi, ikkiyuzlamachi bo'lib qoladi. Maktablarda qo'llash mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:

**Tanbeh berish** – eng yengil jazo chorasidir. O'qituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

**Ogohlantirish** – noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

**Hayfsan berish** – agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, talaba belgilangan intizomni buzaversa, talabani aybi qay darajada va uning intizomini qanday sharoitda buzganini e'tiborga olib unga xayfsan e'lon qilish mumkin.

**Uyaltirish.** Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda, odamda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa. Avvalo o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ta'riflab berilgan tarbiyaning umumiy usullari talabalarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohalarining hammasini qamrab olmaydi.

#### **O'z-o'zini tarbiyalash metodlari.**

O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. O'quvchilarni, ayniqsa, o'rta va katta yoshdagilarni o'z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga yo'naltirish kerak.

**O'z-o'zini tarbiyalash** o'quvchilarning o'zini-o'zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash sifatлари bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda

mustaqillik ko'rsata boshlagan vaqtda paydo bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalashda (axloqiy, jismoniy, hissiy-irodaviy va intellektual) maslahat va ko'rsatmalar berilishi lozim.

**O'z-o'zini tahlil qilish.** O'z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlari haqida o'ylashga o'rgatadi.

**O'z-o'zini nazorat qilish** uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

**O'z-o'zini baholash.** O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlash zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga yetarli darajada tayyorlash mumkin. Shu bois o'quvchi irodali bo'lishi, o'z burchini tushunishi, ta'lim va tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo'lishi lozim.

**Tarbiya nazariyasi. Sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalari.**

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Masalan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashda ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

**Abu Nasr Forobiyning e'tirof etishicha,** inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

**Abu Rayhon Beruniy** quyidagilarni ilgari suradi: "Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi". Mutafakkir insonning bilimlarni o'zlashtirishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: "Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqbollari bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahlini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. Ayniqsa, hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi".

**Abu Ali ibn Sino** esa bilimni chuqur o'zlashtirish donishmandlik ekanligini aytadi: "Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato qilmasdan va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordi-yu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsa-yu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmandlik deyildi".

**Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"** ("Saodatga boshlovchi bilim") asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi asar sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir, bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi. Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

**Bahovuddin Naqshbandiy** tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish

## 2-S Tarbiyaviy tadbirlarda innovatsion yondashuv

yetakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan "Xilvat dar anjuman", "Safar dar vatan" g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi.

**Alisher Navoiy** bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

**Abdulla Avloniy** ilmi afzalligini quyidagicha bayon etadi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zero, kim bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur". Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning samarali vositasikanligiga ham urg'u beradi: "Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur".

Muhtaram Prezidentimiz ham o'z asarlarida Abdulla Avloniyning tarbiyaga oid hikmatlariga alohida to'xtalib: "Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning: "Inson tafakkurining quvvati va kengligi avvalo muallim tarbiyasiga bog'liq", deb ta'kidlaganlar.

**B**oshlang'ich ta'lim – umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni qamrab oladi va ta'lim oluvchilarga ta'lim berish, ma'naviy va jismoniy tarbiyalash, tafakkurini o'stirishning dastlabki bosqichi.

Boshlang'ich ta'limning asosini shaxs kamoloti, uning barkamol inson bo'lib yetishishi, rivojlanishi haqidagi g'oyalar belgilaydi. Boshlang'ich ta'lim shaxsga yo'naltirilganda va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangandagina ta'lim taraqqiy etadi, rivojlanadi, shu bilan birga o'quvchilarni jamiyat talablari asosida yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish. Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning darslarni puxta o'zlashtirishlarida ota-onalarning o'rni muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish lozim. DTSda ko'zlangan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni ota-onalar ham bilishlari va shu asosda farzandlariga ularni egallashda ko'maklashishlari lozim. Buning uchun maktab ma'muriyati bilan ota-onalar o'rtasida hamkorlik o'rnatilishi kerak. Farzandning ta'lim olishi, tarbiyasiga befarq bo'lgan ota-onalarga esa mahalla qo'mitasi tegishli choralarni qo'llashi mumkin.

### Umumiy o'rta ta'limda "Tarbiya" fanining joriy etilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020-yilda o'zbek "Pedagogika" fani tarixida ilk bor "Tarbiya" yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

Qarori qabul qilindi va mazkur Qaror bilan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani Konsepsiyasi" tasdiqlandi.

#### **Qarorga binoan "Tarbiya" fani amaldagi quyidagi fanlarni qo'shish hisobiga tashkil etildi:**

1. boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "Odobnoma" va "Vatan tuyg'usi" o'quv fanlari;
2. yuqori sinflarda o'qitiladigan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslar" hamda "Dunyo dinlari tarixi" o'quv fanlari. Buning natijasida yangi fan shakllantirildi.

#### **Ushbu "Tarbiya" fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:**

- ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlar;
- tarbiya asoslari va manbalari;
- tarbiya qonuniyatlari, metodlari va texnologiyalari;
- tarbiyaning amaliy masalalari.

Aynan mazkur asoslar o'quv fanining negizini tashkil etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu asoslarni talab darajasida o'zlashtirishi kerak. Aks holda, ularning mazkur fan metodikasi bo'yicha kasbiy tayyorgarligi talab darajasida bo'lmaydi.

Shuningdek, qaror bilan 2021-2022 o'quv yilidan boshlab "Tarbiya" fani bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani Konsepsiyasi"ga ko'ra, mazkur faning umumiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- huquqiy asoslar;
- tashkiliy asoslar;
- ilmiy-metodik asoslar.

Bunda huquqiy asoslar ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlardan iborat, tashkiliy asoslar fanni umumta'lim maktablarida, jumladan, boshlang'ich ta'limda talab darajasida o'qitishni va ilmiy-metodik asoslar esa fanning metodologiyasini anglatadi.

#### **Qarorga ko'ra, "Tarbiya" fanining asosiy tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi:**

1. milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi;
2. ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish;
3. fanga oid zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish;
4. ochiqlik va shaffoflik;
5. tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
6. tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi hamda mutanosibligi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fanga oid bu tamoyillarini chuqur o'zlashtirilishini taqozo etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida, tarbiyaviy tadbirlarda va mustaqil ta'lim izlanishlarida ana shu tamoyillarni o'zlashtirish, faoliyatda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish hamda kasbiy faoliyatda ularga amal qilish kompetensiyasini egallash dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun har bir talabning individual shug'ullanishi, ustozlar bilan hamkorlikda faol ishlashi va tarbiya tamoyillarining hayotdagi ifodasini o'rganib borishi taqozo etiladi. Bunda oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlari, ta'lim jarayonining sharoitlari va faoliyatning amaliy samaradorligidan oqilona foydalanish kerak. Har bir talabning mazkur fan tamoyillarini, asoslarini va istiqbolli maqsad-muddoalarini o'zlashtirishi kasbiy tayyorgarlikning negizlaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik hamkorlik jarayonida jamoa bo'lib ishlash boshlang'ich sinf tarbiyalanuvchilarida mavzu doirasida yangi, mushtarak g'oyalarni tug'ilishiga zamin hozirlaydi. Tabiiyki, bu texnologiya ta'lim jarayonida samaradorligi sinalgan ilg'or metodlardan foydalanishni taqozo etadi. O'qish darslari jarayonida ulardan vaqti va o'rinda foydalanilsa, o'quvchining izlanuvchanlik qobiliyati muntazam rivojlanib borayotganini payqash mumkin. Hamkorlikda ishlaganda qo'yilgan muammoning yechimiga yo'naltirilgan savol va topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarni yangi farazlar, his-tuyg'uga asoslangan xulosalar chiqarishga undaydi va bunga ma'lum miqdorda erishiladi. O'quvchilar asta-sekinlik bilan o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishga odatlanib boradilar.

Boshlang'ich ta'lim hamkorlikda tashkil etilganda bilimlarni o'rganish (o'rgatish emas!)da e'tibor subyekt sifatida nafaqat muayyan bir o'quvchiga, balki o'quvchilar, ya'ni sub'ektlar guruhiga ham qaratiladi. Bu o'rinda o'qituvchi bilan o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi o'zaro sub'ekt-sub'ekt munosabatiga kirishadilar. Bu jarayonda o'qituvchi timsolida yo'naltiruvchilik, o'quvchilar faoliyatida esa izlanuvchanlik birgalikda amalga oshiriladi. Hissiy-obrazli muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam birgalikdagi harakat vujudga keladi, hamkorlikka oid ishlab chiqilgan qat'iy talablar uni o'quv jarayonida to'g'ri amalga oshirilishiga asos bo'ladi. Mazkur murakkab va serqirra texnologiyadan boshlang'ich sinflar o'qish darslarini tashkil etishda ko'zlangan maqsad yo'lida foydalanish o'qituvchidan yuksak darajadagi bilim, pedagogik-psixologik tayyorgarlik, mahorat va fidoyilikni talab qiladi. Agar ta'lim beruvchida shu jihatlarning birortasi yetishmasa yoki qaysidir jihatida «kemtik»lik sezilsa, mazkur jarayon o'rganish faoliyatiga aks ta'sir ko'rsatishi ham hech gap emas.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasio'quvtopshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki birgalikda o'qish-o'rganish hamdir. Hamkorlikda o'qitish har bir boshlang'ich sinf o'quvchisini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va

mustaqil fikr yuritishga yo'naltirish, uning shaxsida ongillik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadri-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashni, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

O'quv jarayonida o'zaro hamkorlikka asoslangan do'stona muhitni vujudga keltirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limdagi o'quv-biluv jarayoni o'quvchining huquqlari va erkinliklarini himoya qilish asosida tashkil qilinishi lozim. O'qituvchi bilan o'quvchi orasida o'zaro hamkorlik muhiti yaratilayotganda barcha o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlari hisobga olinishi juda muhimdir. Bu jarayonda o'zaro tenglik muhiti hukmron bo'ladi, o'quvchilarning aksariyat muammolarini hal etishga ko'maklashadigan ta'lim-tarbiyaviy muhit tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiya maktab, ota-onalar, mahalla va o'quvchilar jamoasi hamkorligida, demokratik va tolerantlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Hamkorlikda faoliyat olib borish jarayonida o'quvchilar oddiy ta'lim oluvchilar emas, ta'lim-tarbiya jarayonining teng huquqli, sheriklik asosida jipslashgan ishtirokchilari bo'lishlariga erishiladi. Sinfdagi barcha o'quvchiga bir xil muomala va munosabat, o'quvchi, o'qituvchi va ma'muriyat orasida do'stona muhit ustuvorligi asosida sifatlil ta'lim berish sharoiti vujudga keladi. Kichik o'quvchilarga nisbatan do'stona munosabat o'zaro adolatli muhit zamirida yaratiladi. Adolat bor joyda haqiqat, haqiqat bor joyda o'zaro hurmat hukm suradi.

Boshlang'ich ta'limda o'qituvchi o'quvchilarning o'zaro faoliyatini hamkorlikda tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning bor imkoniyatlarini ularning o'zlarini uchun maksimal darajada yuzaga chiqara bilishi muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni muallim o'quvchilarning jamiki imkoniyatidan oqilona va samarali foydalana bilishi zarur. Jumladan:

1. o'quvchilar o'zlarining yosh va intellektual imkoniyatlari darajasidagi muammolarni yechishga maksimal darajada jalb etilishi, bu jarayonda ularda muayyan qiziqishlar hosil qila olishi;
2. mantiqiy mulohaza talab qilinadigan topshiriqlarni yechish yo'llarini to'g'ri tashkil eta bilishi va natijalarni tekshirishning adolatli yechimini vujudga keltirishi;
3. qo'lga kiritilgan natijalar, aksariyat hollarda, og'zaki shaklda ifodalanishini unutmashligi lozim.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar faoliyatini, dunyoqarashini har tomonlama o'zgartirish tamoman yangi ilmiy-pedagogik asoslarga tayanishni taqozo etadi. Boshlang'ich sinflar ona tili va savod o'rgatish darslari oldidagi maqsad va vazifalar, ularga erishish yo'lida qo'l keladigan texnologiyalarni amalga oshirish nafaqat ta'lim mazmunini o'zgartirishni talab qilmoqda, balki uning shakllari, metodlarini takomillashtirish, ayni zamonada o'qituvchi faoliyatini tubdan yangilashni taqozo etmoqda.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Keng va tor ma'nodagi tarbiya tushunchalariga izoh bering.
2. Tarbiya mazmuni deganda nima tushiniladi?
3. Tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalarini bayon eting.
4. Tarbiya jarayoni qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
5. Tarbiya qonuniyatlarini sharhlab bering.
6. Tarbiya tamoyillarini izohlang.
7. Tarbiya turlarining umumiy tavsifini bayon eting.

## VIII. INNOVATSIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK ASOSLARI



*Tayanch so'zlar: innovatsiya, integratsiya, innovatsion ta'lim, innovatsion muhit, pedagogik asos, tashkiliy jarayon.*

### 1-S Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

**Sh**axsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. Bu turdagi ta'lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etadi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Pedagog ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilardan iborat:

- har bir talabani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;

- talabani hurmat qilishi;
- talabani ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
- talabani xohish-istaklarini inobatga olishi;
- har bir talabaga tolerant munosabatda bo'lishi;
- talabani kuchli, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir talaba uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi;
- talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlariga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- talabalarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish;
- ta'lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o'tkazmaslik;
- alohida talabani kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmaslik;
- ta'lim jarayonida har bir talaba uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish;
- har bir talabaga ta'lim olishda muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabani ta'lim tizimiga pedagog sifatida har bir talabani hurmati va ishonchini qozona olishi moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Pedagog tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi.  
Xususan:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;

- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va b.

Mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o'quv axborotlarining talabalar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

### Ta'lim jarayonida pedagoglar tomonidan:

- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- talabani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta'minlash.

Eng muhimi pedagoglar o'quv mashg'ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsa-da, fikr bildirishlari)ga imkon berish nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'naltirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

### Ta'lim jarayonida quyidagilardan foydalaniq shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yana bir belgisidir:

- ijodiy topshiriqlar;
- kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;
- muammoli vaziyatlar;
- rolli va ishbilarmonlik o'yinlari;

- bahs-munozara, debat;
- musobaqa ko'rinishidagi bellashuvlar

## 2-S Innovatsion ta'lim, innovatsion faoliyat va innovatsion jarayon

**Innovatsion faoliyat** – to'plangan bilim, texnologiya va uskunalarni tijoratlashtirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlari majmui. Yangi yoki qo'shimcha tovarlar/xizmatlar yoki yangi xususiyatlarga ega tovarlar/xizmatlar innovatsion faoliyatning natijasi hisoblanadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish, tarqatish va ulardan foydalanish faoliyati sifatida ham belgilash mumkin.

**Innovatsion faoliyat** – ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar) nomenklaturasini kengaytirish va yangilash va sifatini yaxshilash, ularni tayyorlash, keyinchalik ichki va xorijiy bozorlarda joriy etish va samarali amalga oshirish texnologiyalarini takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini ishlatish va tijoratlashtirishga qaratilgan, birgalikda innovatsiyalarga olib keladigan ilmiy, texnik, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlarini kompleksni nazarda tutuvchi faoliyat.

**Innovatsion faoliyatning bir necha turlari mavjud:**

1. Ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI);
2. Yangi foydali xususiyatlarga ega mahsulotlarni yaratish;

3. Texnologik innovatsiyalar: mavjud mahsulot, buyum, texnikani yangi yoki samarali ishlab chiqarishni olish; ishlab chiqarishni tayyorlash va tashkil etish, yangi mahsulotni ishlab chiqarish yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish va sifat nazorati taomillari, usullari va standartlaridagi o'zgarishlar;

4. Jarayon innovatsiyalari: ishlab chiqarishni loyihalash, ishlab chiqarishning yangi usullari, yangi ishlab chiqarish jarayonlari, shu jumladan, rejalar va chizmalarni, texnik spetsifikatsiyalar va boshqalar dizayni va ishlab chiqish;

5. Tashkiliy yangiliklar – menejment tizimini takomillashtirish;

6. Amalga oshirilgan texnologiyalar – o'z texnologik maqsadiga ko'ra texnologik va boshqa innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan mashina va uskunalarni sotib olish;

7. Ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellardan foydalanish, nou-xauni oshkor qilish, shuningdek texnologik mazmundagi xizmatlardan foydalanish uchun patent, litsenziyalar (shartnomalar) shaklidagi amalga oshirilmagan texnologiyalarni xarid qilish; texnologik innovatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq dasturiy vositalarni xarid qilish;

8. Xodimlarni o'qitish, tayyorlash va qayta tayyorlash;

9. Marketing innovatsiyalari – mahsulotlar dizayni va qadog'idagi muhim o'zgarishlarni o'z ichiga olgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan marketing usullarini amalga oshirish, mahsulot (xizmatlar) ni sotish va taqdimoti, ularni marketing bozorlarida taqdim etish va targ'ib qilish, yangi narx strategiyalarini shakllantirishning yangi usullarini qo'llash.

**Innovatsion faoliyat** – bu, birinchi navbatda, intellektual faoliyat va bu faoliyatning qancha ko'p turlari bo'lsa, innovatsiyalarning ko'plab shakllari bo'lishi mumkin.

Innovatsion faoliyat turli resurslarni jalb qilish bilan bog'liq. Ularning asosiy lari ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga, shuningdek, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni keng miqyosda rivojlantirish bilan bog'liq dizayn, texnologik va boshqa ishlarni amalga oshirishga sarflangan investitsiyalar va vaqtdir. Innovatsion faoliyatning ajralmas tizimi fan, texnologiya, iqtisodiyot va ta'lim kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Innovatsion faoliyatning mohiyati uning ichki mazmuni sifatida tushuniladi, u mavjudlikning turli shakllarida topilgan barcha xilma-xil xususiyatlar va munosabatlarning o'zaro bog'liqligida ifodalanadi: ilmiy, konstruktorlik, texnologik faoliyat, eksperimental ishlanmalar, ishlab chiqarishda innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha ishlar; ularning amalga oshirilishi. Innovatsiyaning mazmuni, mualliflarning fikricha, uning barcha tarkibiy elementlari, xususiyatlari, ichki jarayonlari, aloqalari, qarama-qarshiliklari va tendentsiyalarining birligi. U ilmiy-texnikaviy g'oyalar, ixtirolar, ishlanmalarni amaliy foydalanish uchun yaroqli natijaga yetkazish bo'yicha o'zaro bog'liq va samarali faoliyatda ifodalanadi, bu ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat faoliyatining butun majmuasini o'z ichiga oladi, ular birgalikda innovatsiyalarga olib keladi.

Hozirgi vaqtda turli nazariyalarni o'zaro bog'lash va yo'nalishning oldingi natijalarini umumlashtirish, sintez qilish bo'yicha ma'lum tendentsiyalar mavjud bo'lishiga qaramay, innovatsiyaning mohiyati bo'yicha qarashlarning yakuniy birligiga hali erishilgani yo'q. Ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan innovatsiyalar nazariyasining rivojlanish yo'nalishlari ko'pincha mavjud tushunchalarning umumiy rasmini aks ettirmasdan bir-birini to'ldiradi. Mahalliy ishlanmalar ko'proq tahliliy tadqiqotlar natijalarini emas, balki bizning

sharoitimizda xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlarini qamrab oladi.

**Innovatsion jarayon** - bu g'oyadan ma'lum mahsulot, texnologiya yoki xizmatga qadar innovatsiya amalga oshiriladigan va iqtisodiy amaliyotda taqsimlanadigan ketma-ket hodisalar zanjiri. Bundan tashqari, innovatsion jarayon amalga oshirish deb ataladigan narsa bilan tugamaydi, ya'ni yangi mahsulot, xizmatning bozorda birinchi paydo bo'lishi yoki yangi texnologiyani loyihaviy quvvatiga olib kelishi. Jarayon to'xtatilmaydi, chunki iqtisodiyotda tarqalishi natijasida innovatsiya yaxshilanadi, samaraliroq bo'ladi, yangi iste'mol xususiyatlariga ega bo'ladi, bu esa yangi qo'llash sohalari, yangi bozorlarni va shuning uchun yangi iste'molchilarni ochadi.

Innovatsion jarayon innovatsion faoliyatga qaraganda kengroq tushunchadir. Buni turli nuqtai nazardan va har xil darajada batafsil ko'rib chiqish mumkin:

birinchidan, ilmiy-tadqiqot, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish faoliyati va innovatsiyalarning parallel-ketma-ket amalga oshirilishi sifatida qarash mumkin; ikkinchidan, uni vaqtinchalik bosqichlar deb hisoblash mumkin hayot davrasi g'oyaning paydo bo'lishidan boshlab uni ishlab chiqish va amalga oshirishgacha bo'lgan innovatsiya.

Har qanday boshqa jarayon singari, innovatsion jarayon ham o'ziga xos bosqichlarga ega:

Davomida birinchi bosqich ilmiy-texnikaviy g'oyalar ilgari suriladi. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning yangi usullarini yangilash va eksperimental sinovdan o'tkazish bilan tadqiqot ishlari yakunlanmoqda.

Ustida ikkinchi bosqich amaliy tadqiqot ishlarini amalga oshirish salbiy natijalar olishning yuqori ehtimoli bilan bog'liq, shuning uchun amaliy tadqiqotlarga sarmoya kiritishda yo'qotish xavfi mavjud.

Ustida uchinchi bosqich dastlabki loyihalarni ishlab chiqish

bilan bog'liq ishlab chiqish va loyihalash ishlari amalga oshiriladi (Avan loyihasi- bu tizim / quyi tizim darajasida to'liq tizim dizayni; odatda bu bosqichda faqat cheklangan miqdordagi testlar talab qilinadi. Funktsiyalar va vazifalarning spetsifikatsiyasiga qo'shimcha ravishda, muqobil dizayn tushunchalari ko'rib chiqiladi, dastlabki uskunalar chizmalari va ish jarayonining tavsiflari ishlab chiqiladi va ko'rib chiqiladi. Batafsil loyihalashda dastlabki dizayn chizmalari batafsilroq tuziladi, qayta ko'rib chiqiladi va komponentlar darajasiga keltiriladi), dastlabki loyihalash, ishchi loyiha hujjatlarini ishlab chiqarish, prototiplarni ishlab chiqarish va sinovdan o'tkazish.

Ustida to'rtinchi bosqich ishlab chiqarishga ishga tushirilganda ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish, kadrlar tayyorlash va h.k. uchun katta investitsiyalar talab etiladi. Innovatsion jarayonning ushbu bosqichida innovatsiyalarga bozor munosabati hali ma'lum emas va taklif etilayotgan mahsulotning rad etilishi xavfi katta. To'rtinchi bosqichda yangi mahsulotni keng ko'lamli ishlab chiqarishni rivojlantirish va keyinchalik innovatsion jarayonlar orqali texnologiyani takomillashtirish bilan bog'liq ishlarni moliyalashtirish tadqiqot va ishlanmalar bilan bog'liq xarajatlardan 6-8 baravar ko'p xarajatlarni talab qiladi. Yirik ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun yuqori xarajatlarni hisobga olgan holda, innovatsion jarayonning ushbu bosqichida qo'shimcha investitsiyalarni jalb qiladigan qimmatli qog'ozlar chiqariladi.

Innovatsion jarayonning to'rtinchi bosqichi bo'yicha ishlarni moliyalashtirish, agar oldingi uch bosqichda tubdan yangi hech narsa yaratilmagan bo'lsa, raqobatbardosh bo'lmagan mahsulotni texnik ishlab chiqishni tashkil etishga olib kelishi mumkin. Innovatsion jarayonning to'rtinchi bosqichini investitsiya loyihasi deb hisoblash mumkin, chunki u mahsulotning hayot aylanishining ikkinchi bosqichiga to'g'ri keladi. Boshqa tomondan, agar innovatsion jarayonning dastlabki uch bosqichida yaratilgan innovatsiyalar xorijiy analoqlari bo'lmagan yangi mahsulotlarni texnologik

rivojlantirish va tijoratlashtirishni tashkil etish imkonini bersa, bu ishlarni moliyalashtirishda davlat qisman ishtirok etadi.

Innovatsion jarayon o'zaro bog'langan va o'zaro bog'liq bo'lgan yagona kompleks butunlikni tashkil etuvchi individual elementlardan iborat. Ushbu jarayonning natijasi amalga oshirilgan, ishlatilgan o'zgarish sifatida innovatsiyadir.

### 3-§ Pedagogning ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvi

**M**a'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlarni malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratilyapti.

Bunda innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shu bo'yicha zarur huquqiy mexanizmlarni yaratishga ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotgani muhimdir.

Shular asosida, oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hamda attestatsiyadan o'tkazish tizimi yanada takomillashtirilmogda, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichiga qator yangiliklar tatbiq etilayotir. Shuningdek, dissertatsiya tadqiqotlarining sifatini, ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish bo'yicha zamon talablari asosida muayyan ishlar olib borilyapti.

Yurtimizda yuridik kadrlar tayyorlash sohasiga ham aynan manashunday progressiv nuqtai-nazar bilan yondashilayotgani yaqin kelajakda o'zining yorqin samaralarini berishi shubhasiz. Zero, shu bo'yicha qabul qilinayotgan Farmon va qarorlar, boshqa huquqiy hujjatlarda mamlakatimizda amalga

oshirilayotgan tub demokratik va huquqiy islohotlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning yuksak talablari va zamonaviy xalqaro standartlariga javob beradigan yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilab berilmoqda. Ularning ijrosi esa so'zsiz va izchil ta'minlayapti.

Biroq mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu bilan bir joyda turib qolishi kerak emas, balki u jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hamohang tarzda rivojlanib borishi dardkor. O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar sharoitida davlat qurilishi va huquqiy siyosatning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish, uning maqsad hamda vazifalarini islohotlarning bugungi taraqqiyoti asosida shakllantirib borish zarur. Inson manfaatlarini ta'minlashning strategik jihatdan yangi vositalar bilan bir qatorda, ham taktik xususiyatga ega bo'lgan ilg'or usullarni qo'llash, shaxs hamda jamiyat manfaatlarini yana-da samaraliroq himoya qilish, korrupsiyani oldini olishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Shu asosda professor-o'qituvchilar tarkibini yuqori darajada kasbiy pedagogik mahoratga, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega mutaxassislar bilan mustahkamlash, amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarni ta'lim jarayoniga keng jalb etilmoqda. Talabalarining mustaqil tayyorgarligini chuqurlashtirishni hisobga olgan holda nazariy mashg'ulotlar yana-da optimallashtirildi, ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, yuristda tahliliy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv rejasi, dastur va o'quv-metodik materiallar o'quv jarayonida qo'llanilyapti.

Modul tizimi va o'qitishning innovatsion metodlarini rivojlantirish, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash, talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarni global axborot-huquqiy va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, amaliyot, stajirovka o'tish tartibini takomillashtirish, shuningdek, klinik ta'limni joriy etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

O'quv, ilmiy va boshqa adabiyotlar, shu jumladan xorijiy

adabiyotlar fondini, o'qitishning texnik vositalari, shuningdek, global axborot-huquqiy va ta'lim resurslarini muntazam yangilana-yotir. Yetakchi xorijiy ilmiy-ta'lim muassasalari, tahliliy, tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar, qolaversa, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, advokatura bilan faol hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Shunga uyg'un tarzda davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'lim tizimini chuqur isloh qilishga doir vazifalar ko'rsatib o'tildi, ularni amalga oshirish yo'llari o'rta ta'limda tashlandi.

Bu bevosita pedagogik faoliyatni zamon talablaridan kelib chiqib, yo'lga qo'yish masalasiga ham daxldordir.

Zero, bugun ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik faoliyatga har qachongidan ham ko'proq zaruriyat tug'ilyapti. Bu darslarni samarali o'tish, vujudga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni oqilona hal etish imkonini beradi. Binobarin, ta'lim xodimi – eng avvalo, innovator “xavfsiz sinovlar o'tkazish” psixologiyasining bilimdoni bo'lishi kerak.

O'qituvchini aniq maqsadni ko'zlagan holda innovatsion faoliyatga tayyorlash – bu yaxlit, bir butun jarayon. U o'zaro bog'liq va bir-biri bilan shartlangan davrdan tashkil topgan: oliy ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalash, shuningdek, maxsus muassasalarda o'qish va maktabdagi amaliy pedagogik faoliyatning o'zaro almashib kelishi asosida tashkil qilingan OTMdan keyingi ta'lim. Qayd etib o'tilgan davrlarni o'qituvchi shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishning yaxlit jarayoniga birlashtirilishi – uni innovatsion faoliyatga kiritishning asosidir. O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash konsepsiyasini yaratishda o'qituvchi shaxsini shakllantirishning bir butun jarayonini loyihalashni va faoliyat olib borishini ta'minlovchi tizimli, refleksiv-faoliyatli, individual-ijodiy yondashuvlar asos qilib olinadi. Masalan, tizimli yondashuv jihatdan – pedagogik ta'limning barcha bo'g'inlari innovatsion faoliyatning barcha komponentlarini ularning yaxlitligida yuzaga chiqishini maksimal darajada

rag'batlantirishi kerak.

Refleksiv-faoliyatli yondashuvni amalga oshirish esa o'qituvchining o'z faoliyatiga nisbatan, faoliyat subyekti sifatida o'quvchi shaxsini rivojlantirish borasidagi samaradorligini tanqidiy tahlil etish, mulohaza qilish va uni baholash maqsadida o'ziga nisbatan ham faol tadqiqiy mavqeiga kirishish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Individual-ijodiy yondashuv o'qituvchida ijodiy individuallikni aniqlash va shakllantirish, unda innovatsion ongini rivojlantirishni takrorlanmas faoliyat texnologiyasini ta'minlovchi shaxsiy darajaga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogni innovatsion faoliyatini yo'lga qo'yish obyektiv voqelikni qabul qilishdagi qarashlarini aniqlab beradi. Pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosi ma'lum maqsadlarga bo'ysunuvchi bir necha o'zaro aloqador va funksional komponentlarni o'z ichiga olgan tizim sifatida ifodalanishi mumkin.

Bo'lg'usi o'qituvchining innovatsion tayyorligi uzluksiz ta'lim sharoitida pedagogik innovatikaning to'liq mazmun-mohiyatini egallash bo'yicha uning nazariy, amaliy va psixologik-fiziologik saviyasidir. Bunday tayyorlik pedagogik tizim natijasi sifatida nazariya va amaliyotning bir butunligini ta'minlash, o'quv ishlariga vijdonan munosabatda bo'lishni tarbiyalash hamda ijodiy faollikni rivojlantirish asosida o'quvchilarda ma'lum fanlar, umumkasbiy faoliyat ko'rinishlari bo'yicha bir butun bilimlar va malakalarni shakllantirishga ko'mak berishi kerak.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Innovatsion ta'lim nima?
2. Innovatsion muhit nima?
3. Pedagogning ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvi asosan nimalarda aks etadi?

## IX. MAKTABNI INNOVATSION BOSHQARUV MODELII



*Tayanch so'zlar: maktab, sinf, rahbar, o'qituvchi, o'quvchi, dars, rivojlantirish, boshqaruv, dastur va bq.*

### 1-S Maktabni rivojlantirish dasturi

**O**zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Davlatimiz rahbari bu hayot-mamot masalasi ekanini ta'kidladi.

– Bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Bunga barcha e'tiborimiz va resurslarimizni safarbar qilarniz. O'yin yo'lni tanlayapmiz, lekin shu yo'l muammolarni yechadi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Maktablarni yaxshilash faqat Xalq ta'limi vazirligining emas, balki barcha vazirlik va idoralar, hokimliklar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo'lishi kerakligi ta'kidlandi. Xususan, mamlakatimiz bo'yicha 10 ming 130 ta maktabni isloh qilish zarur. Bu 6 milliondan ziyod o'quvchilar, 500 mingdan ortiq muallimlar, umuman, jamiyatimizning barcha qatlamlari, har bir oilaning kelajagiga daxldor.

Bugungi kunda 1 ming 695 ta maktab mukammal ta'mirga muhtoj. Afsuski, hanuzgacha 179 ta paxsadan qurilgan maktab bor. 3 mingdan ziyod maktab uchun qo'shimcha o'quv binolari zarur. 2 mingdan ortiq maktabda sport zal yo'q. Bundan tashqari, yangi massivlar barpo etilishi, qishloq infratuzilmasi kengayishi va aholi o'sishi hisobiga yana 270 ta maktab qurishga ehtiyoj bor. Shu paytgacha foydalanib kelinayotgan

ta'lim standartlari, o'quv dasturlari faqat nazariy bilim berishga yo'naltirilgan bo'lib, bolalarni mantiqiy fikrlashga, amaliyotga, hayotga o'rgatmayapti.

Maktablarda ishlayotgan 504 ming pedagogdan 60 ming nafari o'rta maxsus ma'lumotli, 190 ming nafarida esa umuman malaka toifasi yo'q. Ko'p pedagoglarning bilimi va mahorati yetarli emas. O'qituvchi sifatli dars o'tishga emas, "ko'proq soat olish"ga intiladi.

Tizimda hanzugacha 200 dan ortiq hisobotlar mavjud, o'qitish, tadbirlar o'tkazish kabi jarayonlar haddan tashqari qolipga solingan. Maktab kutubxonalaridagi kitob fondi yillar davomida yangilanmagan. Atigi 615 ta maktabda milliy musiqa anjomlari mavjud.

Maktablarni baholash, ularni attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish nomiga bo'lib, ta'lim-tarbiya muhitini yaxshilashga xizmat qilmaydi. Bu kabi kamchiliklar xalq ta'limi tizimida barcha yondashuvlarimizni tubdan qayta ko'rib chiqish, ularni mutlaqo takomillashtirishni talab qiladi. Shu bois, maktablarning ham ichki, ham tashqi qiyofasini yangilash, ta'lim sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha katta islohotlar boshlanishi aytiladi.

– Umuman, o'qitish metodikasi, darsliklari, partadan tortib, binosigacha to'liq qayta ko'rib chiqamiz. Ta'limga, muallimga sharoit yaratmasak, jamiyat o'zgarmaydi. Tuman, viloyat va respublika darajasida Maktab ta'limini isloh qilish kengashlari tuziladi. Respublika kengashiga shaxsan o'zim rahbarlik qilaman. Tuman va viloyat kengashlariga esa hokimlar bosh bo'ladi, – dedi Prezident. Bu kengashlar sohaga oid ishlarni xalq bilan kengashib, o'qituvchilar, ota-onalar va mutaxassislarining fikrlari asosida tashkil qiladi.

Qurilish vazirligiga yangi talablardan kelib chiqib, "namunaviy maktab" loyihalarini ishlab chiqish topshirildi. Sharoitdan keyingi ikkinchi muhim masala bu – maktablardagi muhit. Davlatimiz rahbari buning uchun boshqaruvni isloh qilish zarurligini ta'kidlab, xalq ta'limi bo'limi mudirligi va maktab direktorligiga malakali menejerlarni tayinlash,

xorijdan mutaxassislar jalb qilish bo'yicha tavsiyalar berdi.

Xalq ta'limi vazirligiga ushbu mutaxassislarga aniq natijaga asoslangan talab va mezonlarni ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Yana bir tashabbusga ko'ra, har bir viloyatda pedagogika institutlari, universitetlar, akademik litsey va ixtisoslashgan maktablar o'qituvchilaridan iborat "mobil metodik guruhlalar" tashkil qilnadi. Ular ta'lim sifatini past bo'lgan maktablarga borib, pedagoglarga yangicha o'qitish uslublarini tushuntiradi va ko'maklashadi. Buning uchun ularga alohida oylik ustamalari beriladi.

Maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, bolalarni fikrlashga chorlaydigan metodikalarni joriy qilish, darsliklarni ilg'or tajribalar asosida to'liq yangilash bo'yicha topshiriqlar berildi.

O'quvchilarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport va san'at to'garaklarini faollashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari maktab ta'limi sohasidagi islohotlar juda muhim ekanini ta'kidlab, mutasaddilarga xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda strategiya ishlab chiqish vazifasini qo'ydi. Shu asosda, Maktab ta'limini rivojlantirish dasturi qabul qilinishi belgilandi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son 11.05.2022 yilda tasdiqlangan.**

Jumladan, maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Jumladan, yangi maktablar qurish, xususiy milliy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi alohida dastur ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Maktablarni rekonstruksiya qilish va yangidan barpo etish orqali esa 2026-yilga qadar 1,2 million, xususan 2022-yilda

141 ming o'quvchi o'rmini yaratish mo'ljallanmoqda. Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushi 2022 yilda 3 foizga, 2026 yili 8 foizga yetkaziladi.

Farmon loyihasiga ko'ra, 2022–2026 yillarda 217 ta «Barkamol avlod» bolalar maktabini rivojlantirish bo'yicha dastur amalga oshiriladi.

Yoshlarni san'at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan ortiq bepul to'garak faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklar ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqilib, amaliyotga joriy etiladi.

Milliy o'quv dasturiga asosan, 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan, 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish rejalashtirilmoqda. Milliy o'quv dasturi bo'yicha yangi metodikalarga o'qituvchilarni o'qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026 yilga qadar jami 769 ta videodars yaratiladi.

Umumta'lim maktablarida darslik va o'quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o'tkazish tizimini joriy etish taklif etilmoqda.

Shuningdek, umumta'lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta'lim maskanlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'ldirish ishlarini davom ettirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash tizimini joriy etish rejalashtirilgan.

Dastavval Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tajriba-sinov tariqasida boshlang'ich sinf (1–4-sinf) o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash tizimi amaliyotga tadbiq etiladi.

## 2-S Rivojlantirish muhitida maktab ichki ishini tashkil etish

Maktabni boshqarish faoliyati yo'nalishida belgilanayotgan zamonaviy talablar rahbarlik lavozimlariga emas, balki rahbar shaxsiga qaratilayotganligi mazkur yo'nalishda izlanishlar olib borish hamda rahbar shaxsini va uning bilimi, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda o'ziga xos muhim vazifalarni belgilaydi.

Direktorning kasbiy, ma'naviy va shaxsiy sifatlari ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish va uning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan ilg'or g'oyalarni amalga oshirish hamda jamoa a'zolarining hamkorlikdagi innovatsion faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jamoa rahbarining kasbiy tajribalari, ko'nikma va malakalarining shakllanib borishi bir tomondan ularning funksional vazifalarini bajarishi jarayonida vujudga kelayotgan vaziyatlarga bog'liq.

Zamonaviy maktab direktori uchun kasbiy bilim, ya'ni boshqaruvning asosiy funksiyalari (axborot-tahlil, maqsadli- motivlashtirish, oldindan ko'rish, rejalashtirish, tashkiliy-ijrochilik, nazorat-tashxis va tartibga solish muvofiqlashtirish)ni innovatsion boshqaruv texnologiyalari va metodlaridan foydalanish, ularni amaliyotga tatbiq etish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini boshqara oladigan mahorati direktorga xos bo'lgan kasbiy pedagogik tushunchalar zarur. Ularni o'zlashtirmasdan boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanish maqsadga muvofiq emas. Shunday ekan direktor shaxsi strukturasini uch asosiy: innovatsion faoliyat, boshqaruvda kompetentlik va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlari kabi komponentlarni o'z ichiga oladi.

### Boshqaruv komponentlarining asosiy ko'rsatkichlari sifatida boshqaruv funksiyalarini bajarishda:

Boshqaruv komponentlarining asosiy ko'rsatkichlari sifatida boshqaruv funksiyalarini bajarishda:

- zamonaviy metod va vositalardan foydalanish;
- tashqi muhitning o'zgarishlarini inobatga olish;
- maktab va sotsium munosabatlarida uzluksiz aloqani ta'minlash;
- jamoaning hayotiy faoliyatini mavjud vaziyatlarga moslashtirish;
- boshqaruvda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish;
- pedagogik jamoani boshqarishda ta'lim menejmenti asoslarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.
- Pedagogik komponentlarning asosiy ko'rsatkichlari sifatida esa:
- ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va zamonaviy ilmiy- metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash;
- davlat ta'lim standartlarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borish, pedagogik xodimlar va o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va test sinovlari o'tkazish;
- lavozimlar bo'yicha davlat talablari asosida kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish, ta'lim muassasasi pedagogik xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etishni keltirish mumkin.

## Zamonaviy, ilg'or innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga tatbiq etish

### 3-S

**T**a'lim-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish orqali boshqaruv faoliyatini muntazam rivojlantirib boorish zamonaviy maktab uchun muhim hisoblanadi.

Maktab direktori maktabning rahbari. Shuning uchun maktab direktorining innovatsion faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlarga ta'lim muassasasi faoliyatini tashqi muhitning o'zgarishiga mos ravishda tashkil etish, muvofiqlashtirish asosida ta'lim muassasasining muntazam rivojlanib borishini oldindan aniqlash, rejalashtirish va shakllantirishdan iborat bo'lib, uch asosiy komponentlar:

- ijodiy,
- tahliliy,
- tadqiqotchilikni o'z ichiga oladi.

Ta'lim muassasasi rahbarining innovatsion boshqaruv faoliyati o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ijodiy hisoblanadi. Chunki mazkur faoliyat refleksiya va empatiya bilan bog'liq holda mavjud jarayonlarni muntazam tadqiq etishni, pedagogik tizimini muvofiqlashtirishda innovatsion xususiyatlarga ega bo'lgan qarorlar qabul qilish va ularning bajarilishini ta'minlashni taqazo etadi. Zamonaviy maktab direktorining innovatsion rahbarlik uslubida ijodiy faoliyat motivatsion tuzilishini ifodalaydi va tizimda amaliy-anglash jarayonining dinamikasini belgilaydi. Innovatsion faoliyat ilmiy-ijodiy fikrlashga oid bo'lib, rahbar tomonidan inobatga olinishi va shakllantirilishi zarur bo'lgan quyidagi xususiyatlarga ega: hodisalarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish va unga asosan xulosa chiqarish (sintez)ga moyillik, asosiylikni ikkinchi darajalilikdan ajrata olish, hodisalar va ularni tashkil etuvchi

elementlarning o'zaro bog'liqligini, shuningdek, tizimni tashkil etuvchi elementlar va integrativ omillarni anglay olish.

Zamonaviy maktabning rivojlanish jarayonini o'rganishda direktorning shaxs sifatidagi o'rnini ham hisobga olish zarur. Boshqaruv ko'nikmalari rahbarning psixologik xususiyatlari, hissiy-irodaviy sifatleri, ijodiy fikrlashi, intellektual qobiliyati bilan uzviy bog'liq. Bular shaxsning integrativ xususiyatlari harakatlarning o'zlashtirish tezligi, sifati va samaradorligini belgilaydi. Qoidaga ko'ra, bular ta'lim olish hamda tushunchalar asosida shaxsiy tajriba orttirish jarayonlarida shakllanadi.

**Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda zamonaviy maktab direktori shaxsining kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarini quyidagi ko'rsatkichlarga ajratish mumkin:**

- insonning noyob va takrorlanmas ekanligi hamda ijodkorligining tan olinishi;
- tizimli fikrlashi;
- rahbarlikdagi prinsipiiallik;
- tadqiqotchilik va tahliliy faoliyatni motivlashtirish, yangiliklarga moyillik;
- oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish;
- jamoada ijtimoiy-psixologik muhitning ijobiy xususiyatlarining barqarorligi;
- zamonaviy maktabda innovatsion jarayonlariga o'qituvchilarning psixologik moslashuvini tezlashtirish uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishi;
- jamoada ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik mahoratni oshirish, mustaqil ta'lim olish va o'zini-o'zi rivojlantirishga nisbatan ehtiyojlarni shakllanganligi;
- jamoa a'zolarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik.

Maktabni boshqarishda rahbarlik mas'uliyati. Boshqaruvning har qanday nazariy xulosalari ko'p yillik tajribalar natijasida shakllanadi, undan so'ng hayotga tatbiq etiladi. Bu, ayniqsa, pedagogikada muhimdir. Ta'lim muassasasi rahbari tomonidan chiqarilgan noto'g'ri qaror nafaqat jamoa o'rtasidagi muhitni buzadi, balki eng asosiy maqsad, biz uchun hayot-marmot masalasi hisoblangan yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada davlat hamda jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladi. Shu bois ta'lim muassasasi rahbarining o'rnini, uning asosiy vazifalari, mas'uliyati haqida doimo qayg'urib mehnat qilgan, ilmiy izlanishlar olib borgan, hayotiy xulosalarga kelgan fidoiy pedagoglar tajribalarini o'rganish ham bugungi maktab direktorlari uchun foydadan xoli emas. «Maktabni boshqarish shartmi?» degan savol ko'pdan buyon mavjud va u doimo bahsga sabab bo'lib kelgan.

Zamonamizning ilg'or pedagogi ta'lim fidoiysi J.G.Yo'ldashevning fikri bilan aytganda, boshqaruv maktab uchun kerak va zarur! Faqat bizga bugun ma'muriy buyruqbozlik, «yuqoridan turib boshqarish» emas, maktab ichki boshqaruvini – uning butun tashkiliy pedagogik faoliyatini meyoriy boshqarish bilan mutlaqo yangi, ko'p qirrali, xilma-xil faoliyatli, quvonch va shodlik keltiruvchi, yangi yutuqlarga ilhomlantiruvchi, ijodiy jamoa mehnatiga asoslangan, sog'lom maktab o'rtasida kechayotgan murosasiz kurashni tez ilg'aydigan, taraqqiyotni tan oladigan, ijodiylik va tashabbuskorlikka qanot baxsh etuvchi, adolat va haqiqatni ro'yobga chiqaradigan boshqaruv kerak», deb yozadi u o'zining «Ta'lim menejmenti» asarida.

Albatta, bunday fikrga kelish uchun J.Yo'ldashevning turli rahbarlik lavozimlarda ishlab, muammo hamda uning yechimlarini, yutuqlarni amalda ko'rgan va bugun ham o'z tadqiqotlari aprobatsiyasini o'tkazish chog'ida to'plagan tajriba va undan olgan xulosalari sabab bo'lgan.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Maktabni rivojlantirish dasturining maqsadi?
2. Rivojlantirish muhitida maktab ichki ishini tashkil etish qanday amalga oshiriladi?
3. Zamonaviy, ilg'or innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga tatbiq etish ta'lim sifatiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?

## X. BOSHLANG'ICH MAKTABDA INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYANING O'ZARO ALOQADORLIGI



**Tayanch so'zlar:** maktab, boshlang'ich sinf, dars, innovatsiya, integratsiya, faoliyat, fan, fanlararo bog'liqlik va bq.

## 1-S 'Innovatsion ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish

Integratsiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va o'zining rivojini integratsiya g'oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo'lgan predmetlarni o'rganish bo'lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlarini yaxlit butunligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi.

**Yu.M. Kolyagin fikriga ko'ra, ta'lim tizimida integratsiya ikki xil ma'noda qo'llanilishi mumkin:**

1. O'quvchilarda atrofimizdagi olam haqida bir butun, yaxlit tasavvurni shakllantirish (bunda integratsiyaga ta'lim maqsadi sifatida qaraladi).
2. Predmetlardan beriladigan bilimlarni yaqinlashtirishning umumiy platformasini topish (bu yerda integratsiya-ta'lim vositasi hisoblanadi).

Birinchi ma'no bo'yicha integratsiya o'quvchi bilim dargohiga dastlabki qadamini qo'yishidanoq, dunyoni yaxlit, bir butun, uning barcha elementlari o'zaro bog'langan tizim sifatida tasavvur qilib olin.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Maktabni rivojlantirish dasturining maqsadi?
2. Rivojlantirish muhitida maktab ichki ishini tashkil etish qanday amalga oshiriladi?
3. Zamonaviy, ilg'or innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga tatbiq etish ta'lim sifatiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?

Ikkinchi ma'noda integratsiya o'quv fanlaridan beriladigan bilimlarning o'zaro to'qnash (uchrash)gan eri (nuqtasi)da yangi tasavvurlarni anglay olsin. Dastlab, fanlardagi fikr (g'oya)lar to'qnashgan nuqtada avvaldan bo'lgan tabaqalashgan bilimlardagi kamchiliklarni to'ldirishga, ular o'rtasida bo'lgan bog'lanishlarni tarkib topirishga da'vat etsin.

### **Integratsiyaning tarkibiy qismlari.**

Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, integratsiya ma'lum bir tarkibiy qismlarga ega ekan. Quyida ana shu haqda fikr yuritiladi.

Ob'ektga doir integratsiya: bunda bir ob'ektning turli fanlardagi timsollari bir mavzu, bo'lim yoki kurslarga (yer, suv, havo, oziq-ovqat va boshqa) kiritiladi.

Tushunchaga oid integratsiya: bunda umumiy tushuncha (energiya, harakat, modda, axborot va boshqalar)lar mazmunini ochib beradigan mavzu yoki kurslar qamrab olinadi.

Nazariyaga oid integratsiya: u fizika, kimyo, biologiyadagi kvant nazariyasi; biologiya, kimyo, astronomiya, texnika, sotsiologiyadagi evolyusion nazariyaga asoslanadi.

Metodologik integratsiya: u falsafa metodologiyasi kabi ilmiy bilishning alohida metodlariga taalluqli integratsiya bo'lib, ularga tizimli yondashuvning qo'llanilishi va uning mohiyati, tabiatshunoslikka oid muammolarning qo'yilishi va ularning hal etilishi; fandagi tushuntirish va prognoz qilish; kuzatish, tajriba, modellashtirishning tuzilish mohiyati va qo'llanilishi kabilar kiritiladi.

Muammoli integratsiya: uturli kenglik darajasidagi fanlararo muammolarni qamrab oladi (atrof-muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikka qarshi kurashish va boshqalar).

Faoliyatga oid integratsiya: munozara, guruhlar tarkibida ishlash, fanlararo reja va loyihalar tuzish va boshqalar.

Amaliy integratsiya: turli jarayon yoki texnik mahsulotlarni har tomonlama ko'rib chiqish, antibiotiklar, sintetik moddalar, biotexnologiya kompyuterlar va boshqalar.

Hozirgi kunda boshlang'ch maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilyapdi. Bu tushunarli - kichik maktab o'quvchisifatrodagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofda olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Bolalarni tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi. biladi. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob boladimi? Bu masala qanday yechilishi kerak. uning mohiyati nimada? Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ch maktabdoyq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy-ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazaridan va boshqalar.

Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o'rnatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shuyoshdatushunarlibolgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib. yaxshi shaldlangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan

har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, «qish», «sovuq». «bo'ron» kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tish metodikasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorini qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir.

#### **Integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi.**

Ularni universal yoki bir necha asosiy tizim kurslarini almashtiruvchi umumiy, deb ham atash mumkin. Masalan, o'qish, tabiat, rasm darslarini bitta umumiy darsga birlashtirish. Odatda, bunday kurslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishadi va o'z kurslarini integrativ yoki kompleks (umumiy), deb ataydilar.

Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar materiallarini berishda to'g'ri ketma-ketlikka faqat darslar tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba'zi e'tiborli olimlar ta'kidlaydilar, bu an'anaviy maktablarda ham tabiiy fanlarni ketma-ket o'rganish yo'li bilan ham hal qilinmoqda. Bir qator olimlar boshlang'ich ta'limda ham darslarga ajratib o'qitish an'analari tarqalgan, deb hisoblashadi.

Tabiiy fanlarni o'qitishning tizim bo'yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko'pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgan kurslar (darslar) taklif qilishadi. Bularga umumiy tushunchalar beruvchi, bolalarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar kurslari (masalan,

boshlang'ich sinflardagi «Tabiatshunoslik») kiradi.

**Chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar.** Keng integratsiya jarayoni oldingi ilmiy yo'nalishlarni bog'lovchi yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keldi. Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni kuzatib, o'qish, tabiatshunoslik, mehnat (tabiiy materiallar bilan ishlash), rasm fanlariga ekologik mavzular kiritilgani ko'rinadi. Bir-biriga yaqin chegaradosh fanlarning qatoriga molekular biologiya, biofizika, geofizika, biokimyo, astrofizika, astrokimyo kiradi. Bu fanlar asosida maktab integrativ tabiiy fanlari tuziladi.

**Asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar.** Bu kurslar zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayonini o'rganuvchi pedagogik psixologiya, fanning insonning boshqa hayot jarayonlariga bog'liqligini o'rganuvchi; kibernetika - boshqarish, aloqa va informatsiyani qayta ishlash; informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi informatika. Inson hayotining turli jaravonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan tizimlarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanilishi. Bu sinfdagi integrativ kurslarning mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasi asosida tuziladi.

**Umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar.** Bu asosda integrativ kurslar yaratish haqidagi fikrlar yaxshi natijalar berdi. Mualliflar orasida yuqori darajadagi umumiylikni bildiruvchi tushunchalar: «materiya», «harakat», «modda», «maydon», «energiva» va boshqalar ko'p ishlatildi. Qonunlar orasida sarmahsuli - tabiatni saqlash qonuni odamlarning mehnat faoliyati, tufayli rivojlanish tabiatga tuyg'u bilan qarash bo'ldi.

Nazariyalar orasida integrativ kurs yaratish uchun asos bo'lib asosiy tabiiy-ilmiy nazariyalar xizmat qiladi. Shunisi

e'tiborga loyiqki, bu asosda integrativ kurslar yaratishga urinishlar ko'p bo'lgan bo'lsa ham, ular qovishmaganligi va ma'lum ketma-ketlikka, didaktik maqsadga ega emasligi bilan ajralib turadi. Fan evolutsiyasi bilan bog'liq muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish uslublarini, olamning ilmiy ko'rinishini o'rganish asosidagi kurslar - yuqoridagi barcha mavzular integrativ mazmunga ega va tatbiq etishga katta imkoniyatlari bor afsuski, bunday kurslar maktab faoliyatida qo'llaniluvchi material va o'qitish uslubining murakkabligi tufayli hali keng tarqalgani yo'q.

**Kompleks obyektlar asosida Integrativ kurs yaratishga** asos bo'lgan kompleks obyektlarga Yer, biosfera, odam va uning yashash muhiti misol bo'la oladi. Bu kurslarning bir xil mavzularida bir obyekt turli fan nuqtayi nazaridan ko'riladi. Shu xildagi integratsiya o'tgan asrning yigirmanchi yillarida ma'orif tizimida qo'llanilgan. Keyinchalik u bekor qilingan, lekin bizning davrimizda, aytish mumkinki, qaytadan tug'ildi. Bizning nazarimizda. Ma'lum hajmda u tabiiy fanlar ta'limiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Turli muammolar asosida Integrativ kurslarni turli lokal (mahalliy) va global (umumjahon) muammolar asosida tatbiq etishga urinishlar ko'p uchraydi. Bunda tabiiy, ilmiy bilimlarning muammolar asosida birlashtirilishi qo'llaniladi. Bu sinfdagi integrativ kurslar (asosan. ekologiya bilan bog'liq kurslar) maktablar ish faoliyatida keng tarqalgan. Muammolar bo'yicha tuzilgan integrativ kurslar rivojlanishiga global ta'limning rivojlanishi ham turtki bo'ldi. Bu yo'nalishning tarafdorlari zamonaviy shaxsning rivojlanishiga bugungi kunda mamlakatlarning va millatlarning ekonomika, fan, siyosat, ma'naviyatining uzviy bog'liqligidan kelib chiquvchi globallik omili kuchli ta'sir ko'rsatadi, degan tasdiqlashni asos qilib olishgan.

Faoliyat asosida tabiiy fanlar asosini o'rganishda o'quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish kabi turli o'quv-ta'lim ish faoliyati bilan to'qnashadi. o'quvchilarni faoliyatning bir

turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. U o'qitish jaravonining har bir vaqtida foydali bolishi mumkin va kichik hajmda ham tabiiy fanlarni o'qitishda, o'quvchilarning ortiqcha kuch sarf qilishlari muammosini hal qilishda. mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni o'quv jarayoniga tatbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik tengdoshlarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirishsa ham, uni tatbiq qilishda sezilarli darajada orqada qolishadi. Ko'pchilik bunga sabab asosiy ko'nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi. Balki, uzoq vaqtdavomida an'anaviy maktabda integrativ darslarga e'tibor berilmaganidadir? Bu yerda bugungi kungacha yaratilgan integrativ kurslarning asosiy sinflari sanab o'tildi. Lekin o'quv fanlarini integratsiyasi jaravonida qator kamchiliklar ham bo'lishi mumkin. Birinchidan, aytib o'tilgan tabiiy integrativ kurslarni tuzish yo'llari ko'pincha bir-birini takrorlaydi va birga qo'llaniladi, bu bilan yangi asoslar yaratilib, ularni tartibga keltirish. ilmiy asos yaratish qiyinlashadi. Ikkinchidan, integrativ kurslar fanlararo aloqaning o'rnini bosa olmaydi. Bizning fikrimizcha, ular bu aloqaning tashkil etuvchilaridan biri. Uchinchidan, tabiiy ilmiy ta'limning qulay tuzilishi shundaki, integrativ kurslar o'quv rejasining o'zgaruvchan qismiga kirib, uning regional tashkil etuvchisi hisoblanadi. To'rtinchidan, to'liq o'quv-metodik qo'llanmalarining yo'qligi integrativ kurslarning o'quv jaravoniga tatbiq etilishida qiyinchiliklar tug'diradi. Ularning mualliflari dastur tuzib, umumiy metodik ko'rsatmalar tuzishgandan so'ng to'xtab qolishadi. Beshinchidan, integrativ kurslar uchun o'qituvchilarni rejali va maqsadga muvofiq tayyorlash tizimi hali takomillashgani yo'q.

## 2-8 Fanlar va mavzulararo integratsiyada innovatsion metodlardan foydalanish

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish uchun avvalo qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi – turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalarida ko'rinadi.

Tanlangan fan va mavzularning integratsiyasini amalga oshirishda mahoratli pedagog mazmundan kelib chiqqan holda hozirgi kundagi innovatsion metodlardan foydalanishi mumkin:

**“Fikriy hujum” metodi.** Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga yo'naltirish hamda bir xil fikrlash inertsiasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash o'rgatish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirkchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash.

“Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

**“Qora quti” metodi.** Ta'lim jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad-o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

1. O'quvchilar juft-juft qilib biriktiriladi;

2. Juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalarni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;

3. O'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradi;

4. Topshiriqni to'g'ri bajaragan guruhning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;

5. Sinf o'quvchilari qayd etilgan fikrni sharhlaydilar;

6. To'g'ri javob bergan o'quvchi o'qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

**“Zakovatli zukko” metodi.** Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi o'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z xohishlariga ko'ra, shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o'quvchilarning tafakkur tezligi aniqlanadi.

Metod o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy shaklda qo'llanilishi mumkin.

**“Xatolarni top” metodi.** O'quvchilarda eslab qolish darajasi tekshirish uchun qo'llaniladi.

1. Xatoliklar mavjud matn beriladi;
2. Vaqt belgilanib xatolarini topish;
3. Nima uchun xatoliklarga yo'l qo'yilganligi izohlanadi.

“Navbatingni top” metodi. O'quvchilarda o'rganilgan mavzu yuzasidan olingan bilimlarini mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

- Buning uchun tayyorlangan kartochkalar o'quvchilarga tarqatib chiqiladi.
- O'qituvchi tomonidan savol beriladi va berilgan savolning javobi qaysidir o'quvchining qo'lida bo'lib, u javob berishi lozim, so'ng o'quvchilarga o'z savolini beradi.
- Oxirgi o'quvchiga kelganda berilgan savolning javobini hamma o'zi bajarishi yoki topishi lozim bo'ladi.

Pedagogi faoliyat jarayonida bunday metodlarning xilma-xil turlarini qo'llasak bo'ladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Innovatsion ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish qanday amalga oshiriladi?
2. Integrativ fanlarning sinflarga bo'linishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Fanlar va mavzulararo integratsiyada qanday innovatsion metodlardan foydalanish mumkin?

## XI. INTEGRATSIYA - TA'LIMNING MUHIM PRINSIPI



**Tayanch so'zlar:** integratsiya, ta'lim, aloqadorlik, mazmun, ta'lim integratsiyasi, integratsiya turlari, o'quv jarayoni va bq.

### 1-S integratsiya haqida umumiy tushuncha

**O**'quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ammo shu kunga qadar pedagogik texnologiyaning aksariyati nazariy muammolarga bag'ishlangan bo'lib, uning amaliyotga ta'siri kamroq sezilmoqda. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish talab etiladi.

Bugungi kunda, ya'ni ta'lim – tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o'qituvchining ishlash tizimi tubdan o'zgarimoqda va pedagogik texnologiyalar, integratsiyalar, innovatsiyalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

O'quv fanlararo aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O'quv fanlararo aloqadorlikni turli o'quv predmetlari bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta'minlovchi barcha imkoniyat sifatida tushunish lozim.

**Integratsiyalash – lotincha «integer» umumiylik, «ingetera» – umumiylikni to'ldirish, yaratish, tiklash demakdir.**



Ta'lim integratsiyasi – fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta'riflar turlicha; ushbu ta'riflarning umumiylik tomoni - integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat.

Integratsiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va o'zining rivojini Integratsiya g'oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo'lgan predmetlarni o'rganish bo'lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatleri yaxlit, bir butunligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi.

#### **Yu.M. Kolyagin fikriga ko'ra, ta'lim tizimida integratsiya ikki xil ma'noda qo'llanilishi mumkin:**

1. O'quvchilarda atrofimizdagi olam haqida bir butun, yaxlit tasavvurni shakllantirish (bunda integratsiyaga ta'lim maqsadi sifatida qaraladi).
2. Predmetlardan beriladigan bilimlarni yaqinlashtirishning umumiy platformasini topish (bu yerda integratsiya-ta'lim vositasi hisoblanadi).

Birinchi ma'no bo'yicha integratsiya o'quvchi bilim dargohiga dastlabki qadimini qo'yishdan, dunyoni yaxlit, bir butun, uning barcha elementlari o'zaro bog'langan tizim sifatida tasavvur qilib olin.

Ikkinchi ma'noda integratsiya o'quv fanlaridan beriladigan bilimlarning o'zaro to'qnash (uchrash)gan yeri(nuqtasi)da yangi tasavvurlarni ang'ayolsin. Dastlab, fanlardagi fikr(g'oya)lar to'qnashgan nuqtada avaldan bo'lgan tabaqalashgan bilimlardagi kamchiliklarni to'ldirishga, ular o'rtasida bo'lgan bog'lanishlarni tarkib toptirishga da'vat etsin.

#### **Ta'limdagi integratsiyani quyidagicha ifodalashni lozim topdik:**

1. Butun borliq haqida yaxlit tasavvur hosil qilish (bu

yerda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida qaraladi);

2. Turli fan bilimlarini yaqinlashtirish uchun umumiy platforma topish (bunda integratsiya vosita sifatida ishlatiladi).

3. Rivojlantiruvchi ta'lim berish vositasi sifatida.
4. Umuminsoniy, milliy tarbiya vositasi sifatida.

Ikki o'quv fani o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishda va ularning integratsiyasida vaqti-vaqti bilan u yoki bu fan tayanch bo'lib xizmat qiladi. Turli o'quv fanlardagi mavzularning uzviy bog'liqligi va mantiqiy o'zaro aloqadorligi integratsiyalashgan darslarning asosi bo'lishi kerak.

#### **Integratsiyaning tarkibiy qismlari.**

Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, integratsiya ma'lum bir tarkibiy qismlarga ega ekan. Quyida ana shu haqda fikr yuritiladi.

Ob'ektga doir integratsiya: bunda bir ob'ektning turli fanlardagi timsollari bir mavzu, bo'lim yoki kurslarga (yer, suv, havo, oziq-ovqat va boshqa) kiritiladi.

Tushunchaga oid integratsiya: bunda umumiy tushuncha (energiya, harakat, modda, axborot va boshqalar) lar mazmunini ochib beradigan mavzu yoki kurslar qamrab olinadi.

Nazariyaga oid integratsiya: u fizika, kimyo, biologiyadagi kvant nazariyasi; biologiya, kimyo, astronomiya, texnika, sotsiologiyadagi evolyusion nazariyaga asoslanadi.

Metodologik integratsiya: u falsafa metodologiyasi kabi ilmiy bilishning alohida metodlariga taalluqli integratsiya bo'lib, ularga tizimli yondashuvning qo'llanilishi va uning mohiyati, tabiatshunoslikka oid muammolarning qo'yilishi va ularning hal etilishi; fandagi tushuntirish va prognoz qilish; kuzatish, tajriba, modellashtirishning tuzilish mohiyati va qo'llanilishi kabilar kiritiladi.

**Muammoli integratsiya:** u turli kenglik darajasidagi fanlarni muammolarni qamrab oladi (atrof-muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikka qarshi kurashish va boshqalar).

**Faoliyatga oid integratsiya:** munozara, guruhlar tarkibida ishlash, fanlararo reja va loyihalar tuzish va boshqalar.

**Amaliy integratsiya:** turli jarayon yoki texnik mahsulotlarni har tomonlama ko'rib chiqish, antibiotiklar, sintetik moddalar, biotexnologiya kompyuterlar va boshqalar.

Ta'limda o'quvchilarga ma'lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o'zi bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg'otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardan. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Texnologiyani asosiy talabi o'quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta'limda aniq samarador natijaga erishishdir.

Ta'limni integratsiya qilish mohiyati nimadan iborat? Ta'limga bog'liq "integratsiya" tushunchasi 2 ta ma'noga ega:

O'quvchida atrofdagi olam to'g'risida yaxlit tasavvur hosil qilish (bu erda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida ko'riladi).

Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda integratsiya – ta'lim vositasi sifatida ko'riladi).

Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi kerak.

**Integratsiya** – predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarini qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda taqabul qilinagan bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rnatish lozim. U ta'lim oluvchining bilimini oshirishga, ta'limdagi o'xir xoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta'limning klassik o'quv predmetlari o'rnini egallashi kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoni qiyin tomoni integratsiyani ta'lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida "hamma narsa to'g'risida ozgina bilish" lozim bo'lgan bo'lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko'nikmalarni birlashtirish kerak bo'ladi va oxiriga kelib "ozgina narsa to'g'risida hammasini bilish" kerak bo'ladi, ya'ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

Ma'lumki, keyingi yillarda o'quv rejasidagi fanlarning soni boshlang'ich ta'limda 10 dan ortdi. O'quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o'zgarishlarining ham bo'lishini taqozo etmoqda. Bu jihatdan rivojlangan davlatlarning tajribasiga tayanmoq lozim. Ularning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ xarakterdagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo'lsa, Koreya va Shveysariyada integratsiyalashgan fanlar, Vengriyada madaniyat yo'nalishidagi o'quv fanlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o'quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o'qitiladi.

Respublikamizda yetuk malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim tizimi barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqara oladigan ijodkor shaxsni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'limda olib borilayotgan ishlarning bosh mezonini hisoblanadi.

Bu mezon asosida takomillashtirilgan, zamon talablariga javob bera oladigan dasturlar, o'quv darsliklari yaratilmoqda. Ta'lim muassasalari, xususan, maktablar qayta rekonstruksiya qilinib, zamonaviy andozalar darajasiga tenglashtirilmoqda. Ana shu asosda ta'lim jarayoni ham bevosita shakllantirilib uning samaradorligini oshirishga ahamiyat berilmoqda. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalar kirib kelmoqda. Bu tushuncha "yangilik" ma'nosini bildirib, ta'lim islohotlarida nazarda tutilgan ta'limda totalitarlikdan demokratik ta'lim tizimiga o'tish, shaxsning qiziqishlari, qobiliyatini hisobga olish, ta'limni insonparvarlashtirish, ta'lim tizimini jamiyatning iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish, bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydigan ta'lim tizimini shakllantirishga sharoit yaratish kabilarni hisobga olish zarur.

## 2-8 Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan darslarni tashkil etish

Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o'qitishda ularning integratsiyasini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmay kelmoqda. Hatto, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejalaridagi fizika va elektrotexnika, kimyova materialshunoslik kabi fanlar ham tizimli o'zaro bog'liqlikni ta'minmagan holda o'qitilmoqda.

Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o'quv rejalarida ushbu fanlarni o'qitishning vaqt bo'yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg'unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o'quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Zamonaviy didaktika o'quv fanlarini integratsiyalashga

bir qancha yondashuvlarni taklif qiladi, biroq hali bu jarayonning umume'tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas. Ko'pchilik pedagog olimlar ta'limdagi integratsion jarayonlarni o'rganishda fundamental fanlarni integratsiyalashdagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda ish ko'radilar. Bu holat integratsiyaning dastlab fundamental tarmoqlarda amalga oshib, keyinchalik pedagogika sohasiga tarqalganligi bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, o'quv fanlari ilmiy fanlardan farq qiladi. Faqat bu farq ular mazmunida emas, balki bilimlarning berilish shakli, hajmi va bayon qilinish chuqurligida o'z aksini topadi.

O'quv fanini o'rganishdan maqsad o'quvchini fandagi ob'ektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda sub'ektiv yangilikka ega bo'lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. Shu sababli, o'quv fanlari integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi.

Bu ma'noda integratsiya – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin.

O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi.

O'quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo'lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – sub'ektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

O'quv fanlarini integratsiyalashgan holda o'rganishda sub'ektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? – degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga ta'aluqli o'quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning

turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko'rsatmoqda. Biz, ta'lim tizimida tarixan tarkib topgan fanlarga bo'lib o'qitish tizimi saqlanib qolishining tarafdorimiz. O'quv fanlari nisbatan mustaqil bo'lishi kerak, chunki ularning har biri o'z tili tushunchalar tizimi, metodologiyasi, metodikasi, tadqiqot predmeti va kontseptsiyasiga ega alohida fan sohasini ifoda etadi.

Biz fanlararo yondashuvni umumta'lim hamda maxsus fanlarni integratsiyalashda pedagogika fani uchun eng optimal yo'nalish sifatida qaraymiz. Biz o'quv fanlarini integratsiyalash natijasi fanlar o'zaro bog'lanmagan holda o'rgatilganda shakllantirish mumkin bo'lmagan sub'ektiv yangi bilimlarning o'zlashtirilishi, - degan kontseptual g'oyaga tayanamiz. Ilmda yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba'zida u bir qancha o'n yilliklarga teng davrni qamrab oladi.

O'quv jarayonida o'qituvchi bir yoki bir necha mashg'ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani ilgari turli fanlariga oid o'zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub'ektiv yangi bilimga "olib kelishi" kerak bo'ladi. Ya'ni, bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o'tish bilan bog'liq bo'lib, u fanlararo aloqalarni o'rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, bilimlarning har qanday olib o'tilish holati sub'ektiv yangi bilimlar sinteziga olib kelmaydi. Buning uchun ushbu bilim inversiyaga uchrashi lozim.

#### **Bilimlarning inversiyasi quyidagi jarayonlarni qamrab oladi:**

- talaba aqliy faoliyatini faollashtirish maqsadida bilimlarni shakllangan fandan boshqasiga o'tkazilgandagi tavsifining o'zgarishi;
- ilmiy bilimlar mohiyat jihatidan o'zaro bog'liqligini

- o'quv vazifalariga aylantirish;
- talaba ijodkorlik qobiliyatlari ham kasbiy yo'nalganligining tarkib topishini ta'minlovchi fanlararo bilim va ko'nikmalarni egallash darajalarini belgilab olish.

Inversiyaning mohiyatini quyidagi misolda izohlash mumkin. I. Nyuton tomonidan kashf etilgan mexanika qonunlariga oid bilimlar inversiya natijasida hali maktab fizika kursidayoq texnika va texnologiya ob'ektlariga tatbiq etilib, politexnik ko'rinishda taqdim etiladi. Ushbu bilim boshqa ob'ektlarga o'tkazilganida o'zga yo'nalish kasb etib, boshqa kasbiy vazifalar yechimiga xizmat qiladi. Misol uchun, fizikani o'qitish metodikasiga o'tkazilgan fizikaga oid bilimlar inversiyaga uchrab, bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashdagi kasbiy bilimlarga aylanadi.

Fan yo'nalishlariga oid bilimlar bo'lajak muhandisning maxsus fanlarni o'rganishi hamda ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida kasbiy bilimga aylanadi. Bu kabi o'zgarishlar amalga oshirilmasa, umumta'lim hamda maxsus fanlarga oid bilimlar kasbiy faoliyatga tatbiq etilmasa ular bo'lajak muhandis uchun kasbiy bilim emas, balki propedevtik ahamiyat kasb etuvchi ma'lumot sifatidagina ahamiyatga ega bo'ladi. Umumta'lim, umumtexnik hamda maxsus turkumdagi fanlarni integratsiyalash imkoniyatlari ularning mazmunida mujassamlashgan, zero, u o'zida tabiatiga ko'ra yagona bo'lgan atrof-olam to'g'risidagi bilimlarni ifoda etadi.

Pedagogikaga oid ilmiy izlanishlarda o'quv fanlarini o'qitishdagi tarqoqlikni bartaraf qilishga qaratilgan shakl, metod hamda vositalari tizimini, ularning asos bo'lgan o'qitish va tarbiyalash jarayoni metodologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bularni o'quvchilar hayotiga qanday tatbiq qilib bo'ladi?

### 3-S Boshlang'ich sinflarda integratsiya-lashgan darslarni rejalashtirish

**O**qish – aqliy mehnat turlaridan biri. Mamlakatimizda millionlab o'quvchilar maktablarda o'qishadi. O'qish – bu o'ziga xos xususiyatga ega mehnatdir. Shu narsa aniqki, bu mehnat ham ayni bir natijaga erishish uchun ko'p yoki oz kuch sarflanishiga qarab u yoki bu darajada samarali bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni har bir ishga kirishishdan oldin xoh yozma, xoh og'zaki reja tuzib olishga o'rgatish kerak. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ham, shaxsiy ishda ham tartibli, tejamiliik rejaning mavjudligi va mukammalligiga bog'liqdir:

Reja – ishdagi muvaffaqiyatning asosidir.

Reja– harakat uchun dastur.

#### Rejaning tarkibiy qismlari:

- Ish maqsadini aniqlash.
- Ish uchun nimalar kerak?
- Ish tartibi, ish jarayoni, vaqti, joyi.

**Nihoyat, ishning o'zini:** uning nimadan boshlanishi, qanday borishi, nimadan keyin nima kelishini aniq tasavvur qilish kerak. Ishni bajarish uchun eng avvalo tegishli ish o'rni kerak. Maktabdagi ko'pchilik darslar uchun parta yoki stol singari ish o'rni to'liq kifoya qiladi. Endi ish o'rniga quyidagi talablar qo'yiladi:

Ish o'rni hech qanday ortiqcha narsa bo'lmadligi kerak. Aks holda kerakli narsani topish uchun ko'p vaqt sarflanadi. Ish o'rnida tozalikni ta'minlash kerak. Ish o'rni qanchalik toza

bo'lsa, ishlash shunchalik oson, zavqli bo'ladi. Ish o'rnida bajariladigan ishga muvofiq tartib ta'minlanishi lozim. Bizga kerak bo'ladigan hamma narsani bir tomonga (yaxshisi chapda), bajarilgan va foydalanilgan narsalarni o'ng tomonda saqlash kerak. Ko'p ishlatiladigan narsalar yaqinroq turishi kerak. Stolda tartib saqlanishi uchun ruchka, qalam, knopka, qisqich, o'chirg'ich va maxsus qalamdondan foydalanish o'rini. Shuni unutmaslik kerakki, sinf xonasidagi tartib, ozodalik har bir ish o'rnidagi tartib va ozodalikka bog'liq. Bu xildagi ish jarayoni o'quvchilarni tartibliikka, ozodalikka, o'z-o'zini nazorat qilishga, qiziqib mehnat qilishga o'rgatadi.

Sinf rahbari turli rejalar tuzib olishi mumkin: kelajakka mo'ljallangan, ya'ni istiqbolli (yillik, bir necha yillik) va muvaqqat (oylik, haftalik, kunlik). Xo'sh rejaning asosiy manbai nimalardan iborat bo'lishi kerak?

**Bosh manba** – hukumatimizning farmon va qarorlari, hamda xalq ta'limi tizimining rasmiy yo'l-yo'riqlari, hujjatlari hisoblanadi.

**Rejaning yana bir muhim manbai** – o'tgan o'quv yilidagi tarbiyaviy tadbirlarning yutuq va kamchiliklari tahlilidir.

#### Reja quyidagi bir qator talablarga javob berishi kerak:

1. Rejaga istiqbol g'oyalari singdirish.
2. Rejaning shakl va yo'nalishlari rang-barang hamda istiqbolli bo'lishi.

#### Reja uzluksiz va izchil bo'lishi.

**Rejaning aniqligi.** Barcha tarbiyaviy vazifalar maktaboldiga qo'yilgan asosiy maqsadni – o'quvchilarni har tomonlama, «Sog'lom avlod uchun» dasturi asosida ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash, ularni hayotga, mustaqil davlat qurilishiga faol qatnashishga tayyorlash maqsadini amalga

oshirishga qaratilmog'i darkor. «Har qanday ulug' maqsadlarga yetirish yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go'zal hayot barpo etish, avvalo, shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodga bog'liqdir, — degan edi birinchi prezidentimiz I. Karimov.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi — bu majburiy pedagogik hujjatdir. Uni amalga oshirish uchun sinf rahbari shaxsan mas'uldir. «Sinf rahbari haqida Nizom»-da: «Sinf rahbarining ishi reja asosida olib borilishi lozim» deb belgilab qo'yilgan. Ishning istiqbolli rejasi sinf jamoasi tomonidan to'plangan tajribaga qarab va sinf rahbarining o'z vazifalariga muvofiq ravishda bir yoki bir necha yilga tuzilishi mumkin. Nizomda «Sinfning yillik ish rejasi tuziladi. Uni tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tasdiqlaydi» deyilgan.

**Rejaning ifodalash shakli juda oddiy bo'lgani ma'qul:** ishning nomi, bajarish muddati, mas'ul kishi. Reja qisqa va aniq bo'lishi kerak. Bo'lar-bo'lmas ishlar ro'yxatini qalashtirib, qappaygan reja tuzishga berilib ketmaslik kerak. Rejaga faqat hayot ilgari surgan va o'quv yili davomida muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin bo'lgan tadbirlarigina kiritmoq lozim. Kiritilgan tadbirlar ham biri bog'dan, biri tog'dan olib yozilmasligi, balki ular tarbiyaviy ishlar tizimida bir-biri bilan bog'langan, bir-birini to'ldiradigan holda bo'lishi zarur. Reja o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatuvchi turli tarbiyaviy omillarning nafaqat umumiy, balki xususiy aniq tadbirlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Biz quyida sinf rahbari ish rejasining asosiy bo'limlari va mazmunini beramiz:

1. O'quvchilar jamoasi bilan ishlash. O'quvchini o'rganish (o'quvchi haqida ma'lumot to'plash, uning aqliy, jismoniy, ruhiy rivojini, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini, tarbiyalanganlik, jamoatchilikka intilish darajalarini diagnostik dasturlar asosida o'rganish), sinf jamoasini o'rganish (o'quvchilar soni, jinsi, millati, yoshi, rasmiy va norasmiy liderlar, ilg'orlar, qoloqlar,

intizomsiz va tarbiyasi qiyin o'quvchilar, ularning sinfga ta'siri, sinfning jamoatchilik topshiriqlariga munosabati, sinfning tarbiyalanganlik, jipslik, rivojlanganlik darajalarini diagnostik dasturlar asosida o'rganish), sinf jamoasini tashkil etish va yo'naltirish (tashkiliy ishlar, sinf faollari bilan ishlash, umumiy ishlar ustidan nazorat, o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish, navbatchilikni, o'zaro yordamni yo'lga qo'yish, gazeta tahririyati bilan ishlash, kasalmand va nogiron o'quvchilarga g'amxo'rlik, vaqti matbuot nashrlariga yozilish, mehnat harakatlarida qatnashish, sinf mulkini saqlash, kundalik rejimga bo'ysunish va hokazolar).

2. O'quvchilar va o'smirlar uyushmasi («Kamolot» jamg'armasi) bilan birgalikda olib boriladigan ishlar. Ushbu bo'limda o'quvchilar Yetakchisiga, «Kamolot» jamg'armasi kotibiga ularning tarbiyaviy ish faoliyatlarida beriladigan yordamning aniq shakllari ko'rsatiladi.

3. Sinf o'qituvchilari bilan ishlash. Darslarda o'quvchilarni o'rganish (o'quvchining darsda o'zini tutishi, ularning o'zlashtirmasligi, bilimdagi nuqsonlar, xulqi), o'quvchilardagi bilim ko'nikmalarini aniqlash (o'quvchilar kundaliklari, daftarlarini ko'rib chiqish, o'qituvchilar bilan suhbatlashish, o'quvchilarning o'quv ishlarini kuzatish, darsliklar, ma'lumotnomalar, jadvallar va hokazolar bilan ta'minlanish ahvolini o'rganish, nutq madaniyati, uyga vazifa, kasb tanlash masalalari bilan qiziqish), o'quvchi-o'qituvchi munosabati (o'quvchi bilan o'qituvchining chiqishimligi, o'qituvchini pedagogik odobga, pedagogik talablarning bir xilligiga erishishi masalalari), o'zaro yordamni tashkil etish (qoloq o'quvchilarni aniqlash, fan o'qituvchisi bilan birgalikda uning saablarini tahlil qilish va tegishli tadbir belgilash, a'lochi o'quvchilardan o'zaro yordam

harakatini uyushtirish), o'qituvchilarga yordam berish (o'quvchilar haqida tegishli ma'lumotlar, maslahatlar berish, fanga oid tadbirlarni o'tkazishda ko'maklashish). N.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, Aleksey O'q Yu.K.Babanskiylarning tekshiruvlarida ta'lim uslublariga taalluqli ikkilamchi tur belgilarining ta'rifi beriladi, Ular uslub-ifoda, mazmun va ta'lim usuli ekanligi isbotlab berishgan. Geqel falsafadagi uslubni mazmun harakatining shakli sifatida ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida turli xil mantiqiy tizimlar orqali o'qituvchi va u bilan birgalikda o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini deduktsiya, induktsiya, sintez, umumlashtirish, konkretlashtirish, taqqoslash taklida ifodalaydilar.

Barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bog'langan ichki tomonini tashkil qiladi. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli tumanligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejalarini va dasturlariga o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

**O'quv rejasi** – me'yoriy hujjat bo'lib, unda har bir o'quv predmetining mazmuni ochib beriladi, muayyan o'quv yilida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi.

#### **O'quv rejasida quyidagilar aks etadi:**

- o'quv yili, chorak (semestr)lar va ta'tillarning davomiyligi;
- ta'lim muassasasida o'rganiladigan o'quv fanlarining tartibi;

- fanlarning o'qish yillari bo'yicha taqsimlanishi;
- har bir fan bo'yicha yaxlit ta'lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o'rganishga ajratilgan soatlar hajmi;
- har bir fanni o'rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;
- praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar kabilarning davomiyligi.

#### **O'quv rejalarining quyidagi turlari mavjud:**

- tayanch o'quv rejalari;
- namunaviy o'quv rejalari;
- ishchi o'quv rejalari.

Tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tashkiliy qismi hisoblanuvchi asosiy me'yoriy hujjat bo'lib, u namunaviy va amaliy o'quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tayanch o'quv rejasi Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Namunaviy o'quv rejalari tayanch o'quv rejasi asosida uzoq muddatga mo'ljallab tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Ishchi o'quv rejalari namunaviy o'quv rejalari asosida o'quv muassasalarining mavjud sharoitlarini hisobga olgan holda yaratiladi.

O'qituvchi faoliyatida rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslarning rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ijodiy faoliyat lozim bo'ladi. O'qituvchi mustaqil ravishda o'quvchilarning tayyorgarliklari darajasini, ularning o'quv imkoniyatlarini, moddiy baza holatini, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materialini mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini ishlab chiqishi kerak.

O'quvchilarga dars o'tish faoliyatini tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilar oldiga o'rganilgan mavzu asosida o'quv

masalalarini qo'yishi va uni bajarishi uchun imkoniyatlar yaratishi lozim. Bunda o'quvchilarning faoliyati bilim olishdan iborat bo'ladi. Bilim olish faoliyatining o'ziga xos xususiyati faoliyat qonuniyatlariga egaligidir. Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajribalar asosida xulq-atvor hamda ko'nikma va malakalarning mustahkamlanib borishi, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borishi jarayoni. Bilim olishning ushbu komponenti ta'limiy xarakterga ega bo'lgan faoliyat natijasida rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

Bilim olishning yana bir komponenti o'quv harakatlari sanalab, ular belgilangan maqsadga binoan amalga oshiriladi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko'rinishda bo'ladi.

Tashqi o'quv harakatlarga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); pertseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamdanutqdan foydalanish kiradi. Ichki, ya'ni mnemonik (yuqondan «mnemonikon» – eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari kiradi.

Natijalarni baholash va tahlil etish o'quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi tomonidan o'zini nazorat qilish, o'zini baholash va o'zini tahlil qilishni amalga oshirish o'qituvchining o'rgatuvchi harakatlari asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish o'quvchilarni o'z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o'zaro nazoratni tashkil etish, o'rnatilgan mezonlar asosida o'z faoliyati natijalarini o'zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning samaradorligi uni samarali tashkil etilishi bilan bog'liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo'la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda

eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi tadbirlarni ishlab chiqishdir.

**O'qituvchining ma'lum bir fan asosida darsga tayyorgarlik ko'rishida quyidagi uchta bosqich muhim ahamiyatga ega: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish)**

- Tashxislashda o'qituvchi didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtiradi, uning natijalarini belgilaydi. O'qituvchining tashxislashida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari, ularning faoliyatlarini va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

- Bashoratlash o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni samarali tashkil etilishining turli variantlarini tanlab olib baholash va qabul qilingan mezonlarga muvofiq darsni tashkil etishning eng ma'qul variantini tanlab olish va qo'llashdir.

- Loyihalashtirish (rejalashtirish) o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, o'qituvchi o'zi uchun boshqarish jarayoni (kimdan va qachon so'rash, qaerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish) ni belgilab olishga imkoniyat beruvchi faoliyatdir.

O'zini mohiyatiga ko'ra keng tushuncha bo'lib, o'rganilayotgan ob'ektning turli jihatlarini, xususiyatlarini har tomonlama ochib berishini nazarda tutadi.

Predmetlararo aloqadorlik o'rnatish uchun o'quv materialini

mazmunan va mantiqan psixologik pedagogik didaktik metodik va boshqa jihatlardan taxlil etiladi. Pedagogik amaliyotda o'quv materiallarini mavzular bo'yicha va tarkibiy taxlil etish usullardan keng foydalaniladi.

O'quv materialini mavzular bo'yicha tahlil etish yo'li bilan turli o'quv predmetlarini qaysi mavzulari bir-biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy taxlil etish orqali o'quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm, xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o'rnatiladi. Aniqlangan predmetlararo aloqadorliklar sxematik, jadval, verbal shakllarda qayd etiladi.

Predmetlararo aloqadorlikning qanday shaklda qayd etilishi undan foydalanuvchining imkoniyatlariga bog'liq.

**Predmetlararo aloqadorlikni amalga joriy etish quyidagi muhim bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:**

1. Maqsad qo'yib, predmetlararo aloqadorlikning mohiyati, amalga oshirish ketma-ketligi va ko'larmini aniqlab olish.
2. Mashg'ulotlar davomida predmetlararo aloqadorlikni bevosita amalga oshirish.
3. Ko'zlangan maqsad bilan olingan natijani qiyoslab, xulosa chiqarish va istiqbol rejalarini tuzish.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Integratsiya so'zining ma'nosi nima?
2. Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan darslarni tashkil etish bosqichlari?
3. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berish lozim?

## XII. BOSHLANG'ICH MAKTABDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDAN FOYDALANISH



**Tayanch so'zlar:** integratsiyalashgan dasturlar, integratsiyalashgan dars, integratsiyalashgan ta'lim.

## 1-S Zamonaviy darsni o'tkazishda integratsiya

**D**arsliklarning haddan tashqari kategoriyaligi ba'zan bolaning bilimiga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi va endi kashfiyotlar mumkin emas degan taassurot qoldiradi. O'qitish tamoyillari va usullarining jadal rivojlanishi, dastur va darsliklarning yangilanishi, yangi tipdagi ta'lim muassasalarining paydo bo'lishi zamonaviy maktabni axborot mazmunining taraqqiyotdan ustunligidan qutqara olmadi. Rivojlantiruvchi ta'lim o'zlashtirilgan bilimlarga tanqidiy qarashni, ularni shaxsiy baholashni, shuningdek, bilim va ularni baholash haqidagi mulohazalar natijasida tasavvuri o'z ichiga oladi. Tasavvurni rivojlantirmasdan, ijodkorlik haqidagi har qanday gapni asoslab bo'lmaydi. Rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari ularni kundalik maktab amaliyotida amalga oshirish masalasiga olib keladi. Amaliyot allaqachon integratsiyaga murojaat qilib, bu savolga javob berdi.

Masalaning ikkinchi tomoni shundaki, Tayanch rejaning qabul qilinishi talabning maksimal ruxsat etilgan o'quv yuklamasini keskin cheklab qo'ydi va shu orqali uning jismoniy va ruhiy salomatligini himoya qildi, ayni paytda talab qilinadigan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ortib bormoqda. Bilimlar miqdori va ularni o'zlashtirish uchun taqdim etilgan vaqt miqdori o'rtasidagi tafovut chuqurlashadi. Ushbu muammoning eng yaxshi yechimi fanlararo integratsiyadan

foydalanishdir.

Shunday qilib, fanlararo integratsiya bugungi kunda ta'limni rivojlantirishning eng muhim omili bo'lib, uni qo'llash amaliyoti xilma-xildir, haqiqatda mavjud bo'lgan barcha variantlarni qamrab olish qiyin uning ilmiy asoslari pedagogik texnologiya I.P.Pavlov va I.M.Sechenov asarlarida vujudga keladi. Bundan tashqari, psixologlar fikrlash va xotira xususiyatlarini tahlil qilib, o'qitishni shunday tashkil etish kerakki, yangi materialni yaxshiroq eslab qolish uchun o'quvchilarda ilgari olingan bilimlarni takrorlash qobiliyatini shakllantirish kerak. Tabiatda o'zaro bog'langan narsa yoki hodisalar ham inson xotirasida bog'langan. Predmetlararo aloqalar ob'ektga turli burchaklardan qarash va tizimlararo assotsiatsiyalar asosida voqelikning butun ob'ekti yoki hodisasini yanada mustahkamroq eslab qolish imkonini beradi.

Yodlashning eng muhim xususiyatlari - o'quv materialini semantik guruhlash usullari va semantik qo'rg'onlarni taqsimlash, allaqachon ma'lum bo'lgan narsa bilan bog'liq holda o'rganilganlarning semantik bog'liqligi. Binobarin, bir fan bo'yicha bilimlarni uzatish usulini o'zlashtirib, boshqasini o'zlashtirish o'quvchilarning analitik va sintetik faoliyatiga ko'proq e'tiborni qaratadi, mustaqil ish usullarining samaradorligini oshiradi va yaxshi tashkil etilishini ta'minlaydi. aqliy faoliyat va nihoyat, umumiy va xususiy masalalarni yechishda mantiqiy ketma-ketlikni ishlab chiqadi.

Ilmiy bilimlarni birlashtirishning ob'ektiv asosi dunyo rasmining birligidir. Bundan tashqari, bilimlarni o'zlashtirish sohasida qo'llaniladigan tadqiqot usullarining umumiyligi mavjud. Fanlararo integratsiyaning falsafiy asosini izchillik tamoyili tashkil etadi.

**Integratsiya (lot.dan)** – qayta tiklash; tizimning alohida differentsiyalangan qismlari va funksiyalarining bir butunga o'zaro bog'lanish holati, shuningdek, bunga olib keladigan jarayon. Tadqiqotchilar ta'limning integratsiyasini turli yo'llar

bilan izohlaydilar. Masalan, Yu.M.Kolyagin ta'lim tizimiga nisbatan "integratsiya" tushunchasi ikki ma'noni oladi: maqsad va ta'lim vositasi sifatida.

Integratsiya ta'limning maqsadi sifatida o'quvchiga dunyo qismlarining tizim sifatida o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi bilimlarni berishi kerak, bolani o'rganishning dastlabki bosqichlaridan boshlab barcha elementlar o'zaro bog'liq bo'lgan butun dunyoni tasvirlashga o'rgatish uchun mo'ljallangan. Integratsiya o'quv quroli sifatida talabaning bilimdonligini rivojlantirishga, ta'limdagi mavjud torix-tisosislikni yangilashga qaratilgan. Shu bilan birga, integratsiya klassik fanlarni o'qitishning o'rnini bosmasligi kerak, u faqat olingan bilimlarni yagona tizimga birlashtirishi kerak.

Muammoning murakkabligi mashg'ulotning boshidan oxirigacha integratsiyani qanday dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida "hamma narsa haqida bir oz" o'rganish tavsiya etilsa, unda turli xil bilim va ko'nikmalar sintezi bo'lsa, trening oxirida "bir oz haqida hamma narsani" bilish kerak, ya'ni bu tor ixtisoslashuv, lekin yangi integrativ darajada.

Ushbu masala bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilib, biz integratsiyaning quyidagi ta'rifini shakllantirishimiz mumkin: integratsiya - bu fanlar, o'quv fanlari, o'quv fanlari bo'limlari va mavzularining chuqur, izchil, ko'p qirrali ochib berilgan etakchi g'oya va etakchi pozitsiyalarga asoslangan tabiiy o'zaro bog'liqligi. o'rganilayotgan jarayonlar va hodisalar. Shuning uchun turli darslarni birlashtirib emas, balki tanlangan qismlarni bir butunga birlashtirgan holda bir mavzuning materialini boshqasining materiali bilan to'ldirish kerak. Bundan tashqari, har qanday material kombinatsiyasi bilan, dars bag'ishlangan mavzu g'oyasi etakchi, asosiy bo'lib qolishi kerak.

Integratsiyalashgan dars tushunchasining o'zi munozarali bo'lib qolmoqda. Bunday darsni aniq va uzoq muddatli vazifalarni hal qiladigan va rejalashtirilgan ikkita yoki mavzulardan sifat jihatidan farq qiladigan yangi murakkab

birlikni ifodalovchi dars deb hisoblash mumkin. Shu sababli, bir nechta o'qituvchilarning mavjudligi ham, o'quv fanlari materiallarining mexanik birikmasi ham integratsiya darajasining ko'rsatkichi emas. Bu daraja faqat integratsiya orqali bajarilishi mumkin bo'lgan vazifalar doirasi bilan belgilanadi. Bu, birinchi navbatda, kognitiv qiziqishning kuchayishi va umumiy ta'lim qobiliyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidir.

Integratsiyaning 1-bosqichda o'quv materiali aniq bir mavzu doirasida birlashtiriladi. Yodlash emas, balki o'quv materialini o'rganish o'quv materialining turli qismlaridan yagona yaxlitlik yaratilganda fan ta'limidan kompleks ta'limga o'tish imkonini beradi.

2-bosqichda ma'lumotni yaxshiroq yodlash, takrorlash va mavzuga qo'shimcha materiallarni kiritish uchun turli fanlarning kontseptual va axborot sohasi birlashtiriladi.

3-bosqich qiyosiy-umumlashtiruvchi o'rganish vazifalari bilan bog'liq bo'lib, maktab o'quvchilarining hodisalar va ob'ektlarni taqqoslash va taqqoslash qobiliyatini rivojlantirishda ifodalanaadi.

Integratsiyaning 4-bosqichda o'quvchilarning o'zlari faktlar, mulohazalarni solishtirish, aloqalar va naqshlarni o'rnatish, ishlab chiqilganlarni qo'llashni boshlaydilar. Integratsiyalashgan o'qitishning maqsadi bolalarni dunyoni bir butun sifatida ko'rishga va unda erkin harakat qilishga o'rgatishdir.

## 2-S O'qituvchilarda darsga ichki tayyorgarlikni ta'minlash

Barcha maktab fanlari o'ziga xos integratsiya potentsialiga ega, ammo ularning birlasha olish qobiliyati, integratsiyaning samaradorligi integratsiyalashgan dars yoki kursni rejalashtirishda hisobga olinishi kerak bo'lgan ko'plab shartlarga bog'liq. Avvalo, ma'lum bir sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi tahlil qilinadi. Ularning o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklar integratsiya usulini qo'llashning sabablaridan biri bo'lishi mumkin. Ba'zan maktab o'quvchilarining bir fanni muvaffaqiyatli o'rganishi boshqasida ma'lum bilim va ko'nikmalarning mavjudligiga bog'liq.

Integratsiyalashgan dars o'qituvchidan qo'shimcha tayyorgarlik, katta eruditsiya va yuqori professionallikni talab qiladi. Bunday darsni ishlab chiqishda o'qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak:

1. Darsning maqsadi (bu mavzuni o'rganish vaqtini qisqartirish, talabalar bilimidagi bo'shliqlarni bartaraf etish, ustuvorliklarni qayta taqsimlash va h.k. bo'lishi mumkin).
2. Ob'ektlarni tanlash, ya'ni. dars maqsadlariga javob beradigan ma'lumot manbalari.
3. Tizimni tashkil etuvchi omilning ta'rifi, ya'ni. turli xil ma'lumotlarni birlashtirish uchun asos topish (bu g'oya, hodisa, tushuncha yoki ob'ekt)
4. Yangi kurs strukturasi yaratish, ya'ni. bilimlarning funksional maqsadining o'zgarishi.
5. Kontentni qayta ishlash (eski shakllarni yo'q qilish, tizimning alohida elementlari o'rtasida yangi aloqalar yaratish).

### 3-S Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish samaradorligi

**A**vvalo, qaysi darslar integratsiyalashgan uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning negizi – turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalari.

**Boshdan integratsiyalashgan kurs bu – sinfdan tashqari o'qish. Bu yerda tahlil jarayoni kechadi:**

- a. Kitob o'qish asbobi sifatida o'qish darslarida olgan o'qish ko'nikmalarini takomillashirish;
- b. Matn ustida ishlash;
- c. Suhbatdoshlar doirasini tanlash kabi kitoblarni tanlash.

**Matematika ham integratsiyalangan kurs** – arifmetik materialni o'zlashtirishga imkon beruvchi arifmetika, algebra va geometriya elementlari, shu bilan birga algebra va geometriya, mehnat ta'limi asoslarini o'rgatishga tayyorgarlik.

Boshidan integratsiyalangan yuqoridagi kurslardan tashqari quyidagi fanlarning birikishi mumkin: o'qish-rus tili, o'qish-tabiatshunoslik, o'qish-tasviriy san'at, o'qish-musiqqa, tabiatshunoslik-matematika, tabiatshunoslik-mehnat ta'limi, matematika-mehnat ta'limi, matematika-jismoniy tarbiya.

Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o'qituvchi (ta'lim berish) va o'quvchi (ta'lim olish) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Har ikki faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1. Maqsadli bosqichda o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligidagi predmetlararo bog'liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari, bunda ular o'z e'tiborlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki ko'chirish, tahlil qilish, shaxsning belgilari, qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.
2. Isbotlash bosqichida o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'batlantiradi. O'quvchilar o'z irodalari, dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiriladi.
3. Faoliyatning mazmun bosqichida o'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmuyi darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlardarajasida o'zlashtiradi.

4. Vositalar tanlash bosqichida o'qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko'rgazmali vositalarni - darsliklar, jadvallar, sxemalar savolnomalar, amaliy vazifalar. O'quvchilar ko'chirish, umumlashtirish, biriktirish xarakterlarini integratsion masalalarni hal qilishda ko'rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. Keyingi bosqich - natija. O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'qituvchi bilimlar tizimida umumlashtirishini amalda qo'llaydi.

6. Nazorat qilish bosqichida o'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida

baholaydi. O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini nazorat qilishadi.

**Tekshiruvlar ko'rsalishicha, integral yondashuvni amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalarga:**

1. Evristik suhbatlar;
2. Umumiy suhbatlar;
3. Ekskursiyalar;
4. Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asarlar materiallari asosida nutq o'stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar;
5. Ta'limning ko'rgazmali metodlari;
6. Mustaqil ishlar;
7. O'qish, matematika darslarida og'zaki rasm chizish;
8. Imo-ishorali ko'rinishlar (pantomimalar);
9. Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ijodali o'qish;
10. Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda);
11. O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar kiradi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Zamonaviy darsni o'tkazishda integratsiya nimalarga bog'liq?
2. O'qituvchilarda darsga ichki tayyorgarlikni ta'minlash kim tomonidan nazorat qilinadi?
3. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish samaradorligi nimalarga bog'liq?

## **XIII. BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARINI INTEGRATSIYALASH**



*Tayanch so'zlar: dars, o'quvchi, o'qituvchi, integratsiya, pedagogik talab, nutq va bq.*

### **1-S Turdosh fanlar integratsiyasi, bo'limlar, mavzular integratsiyasi**

**H**ozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilayapti. Bu tushunarli – kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir.

Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi? Bu masala qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada?

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli ranlarni o'rganish obyektleri bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin.

**Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi** – boshlang'ich maktabdoyoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi

tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazardan va boshqalar.

Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, «qish», «sovuq, «bo'ron» kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi.

Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'qish metodikasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorini qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir. Hozirgi kunda qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asos bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rganilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga

yordam beruvchi omillar integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlashdan iborat.

**Integratsiya** – fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish bilan shug'ullanadi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya obyektleri asosida tuzilgan. Endigina maktabga qadam qo'ygan boshlang'ich sinf o'quvchilariga fanlarni o'zaro bog'lab va farqli jihatdan asoslab o'rgatish bir muncha qiziq va o'quvchilarni diqqatini, e'tiborini tortadigan jarayon bo'lib xizmat qiladi.

**Integratsiyaning sinflarga bo'linishini turli asoslarda qilish mumkin. Masalan:**

1. Maqsad va muammolar asosida
2. maktab tabiiy-ilmiy tizimidagi vazifalari asosida
3. qo'shiluvchi fan tarmoqlari asosida
4. integratsiya usullari va yo'llari asosida
5. o'quv rejasidagi o'rni asosida
6. darsni o'rganishda sarflangan vaqt asosida:
7. o'quvchilar uchun qiyinli darajasi asosida va h.k.

Shuni e'tiborga olarnizki, bu kabi asoslarni o'ziga dasturlamal qilib olgan o'qituvchilar odatda o'z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni yechish masalasini qo'yadilar, shu sababli dars jarayonlari ko'p maqsadli, turli vazifali bo'ladi.

Ko'p miqdordagi dasturlar va ularni tadbiiq etishga urinishlarini ko'rib chiqib, biz umumta'lim maktablarida darslar qurilishining asosiy yo'nalishlarini ajratishimiz va ularni mohiyatiga qarab sinflarga bo'lishimiz mumkin. Integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi (Klassifikatsiya) quyidagicha:

1. Ko'p fanlar integratsiyasi. Ularni ya'ni universal yoki bir necha asosiy tizim darslarini almashtiruvchi

umumiy deb ham atash mumkin. Masalan, o'qish, tabiat, rasm darslarining bitta umumiy darsga birlashtirish.

Odatda, bunday darslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishda va o'z darslarini integrativ yoki kompleks (umumiy) deb ataydilar. Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar materiallarini berishda to'g'ri ketma-ketlikga faqat darslar tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba'zi e'tiborli olimlar ta'kidlaydilar, bu an'anaviy maktablarda ham tabiiy fanlarni ketma-ket o'rganish yo'li bilan ham hal qilimmoqda. Bir qator olimlar boshlang'ich ta'limga ham darslarga ajratib o'qitish ananalari tarqalgan deb hisoblaydilar. Tabiiy fanlarni o'qitishni tizim bo'yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko'pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgan darslar taklif qiladilar. Bularga umumiy tushunchalar beruvchi, bolalarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar darslari (masalan, boshlang'ich sinflardagi "tabiatshunoslik") kiradi.

2. Chegaradosh fanlar asosida tuzilgan darslar. Keng integratsiya jarayoni oldingi ilmiy yo'nalishlarni bog'lovchi yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keladi. Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni kuzatib, o'qish, tabiatshunoslik, texnologiya (tabiiy materiallar bilan ishlash), rasm fanlarida ekologik mavzular kiritilgani ko'riladi. Bu fanlar asosida maktab integrativ tabiiy fanlari tuziladi.

3. Asosiy fanlar asosida tuzilgan darslar. Zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayoni

o'rganuvchi pedagogik psixologiya, informatika inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan sistemalarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanishi. Bu sinfdagi integrativ darslarni mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasida tuziladi.

Yuqoridagi barcha mavzularning integrativ mazmunga ega va tadbiiq etishga katta imkoniyatlari bor, afsuski, bunday darslar maktab ish faoliyatida qo'llanuvchi materialning va o'qitish uslubining murakkabligi tufayli hali keng tarqalgani yo'q. Qolaversa, bugungi kunda integrativ darslarni turli lokal (mahalliy) va global (umumjahon) muammolar asosida tadbiiq etishga urinishlar ko'p uchraydi. Bunda tabiiy ilmiy fanlarning muammolar asosida birlashtirilishi qo'llaniladi. Bu sinfdagi integrativ darslar (asosan ekologiya bilan bog'liq darslar) maktablar ish faoliyatida keng tarqalgan.

Tabiiy fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik o'quvchilarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirsalar ham, uni tadbiiq qilishda sezilarli darajada orqada qoladilar. Ko'pchilik bunga sabab asosiy ko'nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi. Sabab nimada? Balki ularning biri ko'p yillar davomida an'anaviy maktabda integrativ darslarga e'tibor berilmaganidadir?

Xulosa qilib aytganda, fanlararo integratsiya qanchalik tez umumta'lim maktablarining darslariga kirib borsa, o'quvchilarning ham nazariya bilan amaliyotni birlashtirishi shunchalik tez bo'ladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Turdosh fanlar integratsiyasi, bo'limlar, mavzular integratsiyasi nima?
2. Integrativ fanlarning sinflarga bo'linishi?
3. Chegaradosh fanlar integratsiyasi?

## XIV. MAKTAB VA OILA INTEGRATSIYASI



**Tayanch so'zlar:** ta'lim, tarbiya, ijtimoiy muhit, o'qituvchi, o'quvchi, jamoa, ta'sir va bq.

### Maktab va sinf jamoasida integratsiya

#### 1-S

**M**aktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi sinf rahbari orqali amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi;
2. O'quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo'yishga erishadi;
3. Sinf ota-onalar jamoani tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta'minlaydi;
4. Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko'taradi;
5. Sinfga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va maktabga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o'rnatadi va ularni sinfdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Sinf rahbarining o'quvchini yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-birlariga qanchalik ko'p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog'liq. Ana shu maqsadda sinf rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

- O'quvchining o'quv mehnatiga tavsifnoma, o'qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning

sabablari, olayotgan baholari.

- O'quvchining ijtimoiy faolligi haqida axborotlar, o'quvchining jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligi, jamoat topshiriqlari va vazifalarning bor-yo'qligi, sababi, ularga o'zining munosabati.
- O'quvchining o'z o'rtoqlari, o'qituvchilari bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning xarakteri, maktabdagi munosabatlarning doirasi.
- O'quvchining ayrim xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish. Oilaga o'quvchi tarbiyachi haqida maslahat va tavsiyalar.
- Oila ham o'z navbatida farzandi haqida o'z mulohazalari, kuzatishlari yuzasidan sinf rahbariga quyidagi mazmunda ma'lum axborotlar berib borishi mumkin:
- Farzandi uyga berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqti, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.
- Belgilangan kun tartibining bola tomonidan bajarilishi.
- O'quvchining maktab haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, sinf hayotidagi turli voqealarga baholari.
- Ota-onaning ayrim o'qituvchilardan, sinf rahbaridan, maktab rahbarlaridan iltimoslari va takliflari.

Sinf rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar o'quvchini to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu o'quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o'z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqti-vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarini belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari tajribasida shaxsiy, sinf-sinfi va ommaviy kabi shakllar keng

tarqalgan. Ayniqsa, uning ota-onalar bilan olib boradigan ommaviy ishlari bu sohadagi faoliyatining asosiy yo'nalishidir. Chunki bu barcha ota-onalarni birlashtiradi hamda ularni maktab talablar bilan tanishtirish, jamiyatning tarbiyadan kuzatadigan maqsadlari, ota-onaning vazifalari, tarbiyani amalga oshirish yo'llari, uslub va shakllari haqida bilim berish, sinf hayotidagi o'zgarishlar, rejalar haqida maslahatlashish uchun pedagogik ma'ruzalar tashkil etish ilmiy anjumanlar, "ochiq eshik" kunlari, savol-javob kechalari, ota-onalar majlislari o'tkazish ommaviy ishning turlaridir.

Sinf rahbarining tajribasida ota-onalar majlislari keng tarqalgan va qaror topgan ish shaklidir. Bu majlislar sinf ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida o'z qarorlari bilan sinfdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning vazifasini va yo'nalishini belgilab beradi.

Sinf ota-onalar majlislarining bir necha xili mavjud:

- sinfdagi tashkiliy ishlar bilan bog'liq majlislar,
- ota-onalarga pedagogik ma'lumot berishga bag'ishlangan majlislar,
- munozara shaklidagi majlislar,
- yarim yillik yoki yil yakuniga bag'ishlangan majlislar.

Bu majlislarning har biri o'z maqsadiga tayyorlash va o'tkazish tartibiga ega.

Tashkiliy masalalar bilan bog'liq sinf ota-onalari majlisida odatda ota-onalar sinfi saylanadi, ish rejalari tasdiqlanadi, ota-onalar o'rtasidagi vazifalar taqsimlanadi. Ko'pgina maktabdagi sinf rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlari tajribasida savol-javob kechalari, maslahatlar va munozaralar ham vujudga kelmoqda. Maslahatlar ko'proq shaxsiy ish shakli bo'lib, unga sinf rahbari ota yoki onaga farzandini tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va boshqa masalalar yuzasidan aniq maslahatlar beradi. Sinf rahbari o'zining shaxsiy suhbatini, oilani o'rganish va kuzatish asosida to'plagan ma'lumotlarni ota-onalar bilan o'tkaziladigan ishlarni hisobga olib boradigan maxsus

jurnaliga yozib borishi g'oyatda muhim. Agar bu xil jurnalni sinf rahbarlari har yili muntazam holda yuritib borsa, u tarbiyaviy ta'siri yaxshilashning muhim vositasiga aylanadi.

Sinf rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishlashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Biz quyida ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishib chiqamiz:**

1. O'quvchilarning uylariga borish – bu oila bilan aloqa qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bunda sinf rahbari o'quvchining ota-onasi, uning yashash sharoiti, moddiy imkoniyatlari bilan tanishishga imkon topadi.
2. Ota-onalarni maktabga chaqirish. Bundan maqsad faqatgina o'quvchilarning xulqi, savodliliigi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlar berib, ularga o'quvchini oilada tarbiyalashlariga yordam ham qilishdir.
3. Ota-onalar bilan ishlash. Bu esa o'quvchiga chaqiriqlar yoki maxsus da'vatnomalar orqali amalga oshiriladi.
4. Ota-onalar sinf majlisini o'tkazish. Bu shakldagi aloqa maxsus ish rejasi orqali amalga oshiriladi.
5. Ota-onalarni maxsus pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish maqsadida ular bilan suhbat va ma'ruzalar o'tkaziladi.
6. Savol-javoblar kechasi. Ishning bu shakli sinf o'quvchilarning xususiyati, xarakterini yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi.
7. Ota-onalarning tarbiya borasidagi ilg'or tajribalar bilan fikr almashish, o'rtoqlashish. Bu narsa quyidagi mavzuda bo'lishi mumkin:  
A. yoshlarni qanday qilib mehnatga tayyorlash

mumkin?

B. o'quvchining kundalik rejimi haqida.

D. "Ota-onalarning obro'si" haqida, "Oilada yoshlarga axloqiy tarbiya berish" va hokazolar to'g'risida anjumanlar o'tkazish.

8. Maktab qoshida ota-onalar universitetlarini tashkil etish va bu universitetlardan tizimli ish olib borish:

A. ota-onalarni tarbiya sohasidagi adabiyotlar bilan tanishtirish.

B. "Ota-onalar, sizlar uchun" degan mavzuda og'zaki jurnal.

D. faol ota-onalarning tarbiyaviy ish tajribalari bilan boshqa sinf rahbarlarini tanishtirish kabi ishlar olib borilishi lozim.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g'oyat keng, ko'p qirrali bo'lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o'quvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo'lishni taqozo etadi. Bizning yosh avlod xalqimizni inqilobiy, mehnat, jangovar an'analarni o'zlashtirib, o'ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini – g'oyaviy e'tiqod va matonatni, vatanga muhabbatni, uning iqtisodiy, siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilishni singdiribgina o'z bobolari va otalari ishini davom ettira va ko'paytira oladi. Bu ishda ota-onalar ayniqsa, muhim o'rin tutishlari kerak.

Buni barcha sinf rahbarlari nazarda tutishlari muhimdir, bunda shaxsning huquqiy yetukligi shaxs ijtimoiylashuvining mahsuli ekanligini har bir oilaga tushuntirish g'oyat muhimdir. Oila shaxs uchun uning ijtimoiylashuv jarayoni ro'y beradigan, uning axloqi, dunyoqarashi asoslari va hokazolar tarkib topadigan dastlabki va nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamoadir.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli pavişda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga,

qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishining chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi.

Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro'iligi va hokazolar bilan ta'minlanadi. O'z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yurgakdagi chog'idan biladigan, uning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta'sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do'stlikka, muhabbatga o'rgata oladi!

Xilma-xil faoliyat sharoitida shaxsning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, shaxsni oiladan boshqa qaerda ham faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish mumkin. Oilaviy tarbiyaning qimmatligi va ahamiyati yana shundaki, kichik shaxslik paytida oilada egallangan narsalar bir umr saklanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning shaxslarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning ma'lumotlari ba'zan shaxsning imkoniyatlari to'grisidagi barqaror tasavvurlarni o'zgartirib yuboradi. Masalan, ych yillik shaxslar olimlar bir necha yil muqaddam taxmin qilganlariga nisbatan ancha chuqur idrok etish qobiliyatiga ega, uch yoshli shaxs hozir faqat olti yoshli shaxslar qilgan va qilmagan narsalarni bilishi va qilishi mumkinligi kichiktoyni yurishdan oldin suzishga, ona tili bilan deyarli baravar chet tilida gapirishga o'rganish mumkinligi va hokazolar ma'lum bo'ldi. Vaholanki, tajribaning ko'rsatishicha, ota-onalar ko'pincha o'zlarini tarbiyaviy ishga to'la tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallashni zarur deb hisoblamaydilar. Ota-onalarning bu xusuyiatini taniqli pedagog va psixolog K. D. Ushinskiy o'z davrida ta'kidlagan edi. «Tarbiya san'ati, – deb degan edi

u, – shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilariga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi – odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak, deb o'ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilish.

Bunday bilimlarning yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab xatolarga olib keladi, guruh rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo'q. Bu jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quyidagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular o'zlari, ishlari haqida kam so'zlab beradilar, o'quv bilim yurti o'quvchilar jamoasining hayoti, o'z shaxsining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolalar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning yetishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etadi.
2. Shaxslarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmasilik ona ishga ko'milib ketgan paytda shaxslar oilaviy ishlardan, turar joylardagi ishlardan va hokazolardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo'ladilar.
3. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi o'quv muassasasining pedagogik kuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi.
4. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirining izchil emasligi – onda-sonda o'qishini tekshirish, biror nojo'ya ish uchun jazolash va hokazolalar axloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

5. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida taqiqlashlar sistemasi – ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmasilik, shaxs hayotini u har doim turli hatti-harakatni mashk kiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir.

Bu sistema shaxsning kattalar xohishiga salbiy munosabatini tug'diradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi.

6. Harakatlarning o'quv bilim yurti bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchilik. Tarbiyalanuvchida pedagogga, o'quv bilim yurtiga ishonchsizlik paydo bo'ladi va o'sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyilanshtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

7. Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o'quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi.

8. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Shaxs katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o'ylash odatda o'zini oqlamaydi, ko'pincha qayta tarbiyalasini talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi. Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar qatoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bilishlarini, shaxslar ulg'ayishi bilan ularni o'zgartirishni bilmasilik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo'qligi, ota-onalarning turmushning ma'naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo'shish mumkin.

Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlashni odatda sinfrahbari o'z shaxsiy xususiyatlarini tajribasini, o'quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarini, ota-onalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarini, o'quv muassasasi

pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokozolarni hisobga olib belgilaydi, tajribaning ko'rsatishicha, sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligining ommaviy, sinf. tarzidagi va yakka tartibdagi ish shakllarini oqilona birga qo'shib olib borish, bunda uning mazmunida izchillikka rioya etish orqali erishiladi.

Ko'rsatilgan shakllar ta'rif va ularni qo'llashning eng yuqori natija berishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

### **O'quvchilarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo'lib ular quydagilardir:**

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash;
- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;
- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;
- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;
- shaxslarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;
- shaxslarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- shaxslarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga

- qo'shimcha ta'lim berish;
- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o'z farzandlarining o'quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;

- ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;
- shaxslarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish;
- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash;
- sanitariya-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, gijohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;
- oila, o'quv bilim yurti va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha hatti-harakatlari uchun javobgardir;
- sog'ligida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o'rgatishdan iborat.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o'zbekona ta'biri bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib savodini chiqarish, ilmli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Maktab va sinf jamoasida integratsiya?
2. Sinf rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning qanday xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim?

## XIII. BOSHLANG'ICH SINFLAR DARSLARINI INTEGRATSIYALASH



**Tayanch so'zlar:** pedagogika, innovatsion pedagogika, boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, pedagogik jarayon, innovatsion muhit, innovatsion jarayon.

### 1-S Integratsiyalashgan ta'limning zamonaviy tendensiyalari

**T**a'lim tizimi nazariy va amaliy jihatdan hisobga olinishi kerak bo'lgan bir qator tendensiyalarga ega.

**Mayjudligi.** Hozirda ta'lim muhitini yaxshilashning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan yo'nalishinogiron bolalar uchun qulay va qulay ta'lim olish uchun sharoit yaratishdir. Inkyuziv ta'lim, yangi ta'lim usullari, ta'lim texnologiyalari, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari va masofaviy ta'limni qo'llash orqali.

**O'zgaruvchanlik.** Takomillashtirilgan ta'lim muassasalari muayyan o'quvchining manfaatlarini hisobga olish, o'qitish va tarbiyalashda o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash imkonini beradi.

**Qo'shimcha ta'lim.** Professional ta'limi tizimida kattalar ta'limiga qaratilgan qo'shimcha xizmatlar dasturlari yetuk aholi orasida ommalashmoqda. Ular, masalan, malaka oshirish muassasalarida, qayta tayyorlash kurslarida, kasb-hunarga yo'naltirish markazlarida va hokazolarda taqdim etiladigan ta'lim dasturlari va xizmatlarni o'z ichiga oladi.

**Ommaviy xarakter.** Oliy ta'limdagi munozarali tendentsiya – bu O'zbekistonda jadal sur'atlar bilan sodir bo'lgan uning ommaviy xarakterining o'sishi. Shuningdek, yosh avlod uchun o'zini o'zi kasbiy anglash uchun keng institutsional imkoniyatlarning yo'qligi ham bunga qo'shiladi.

**Davomiylik.** Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha bo'lgan davrda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasida ta'limning ochiqlikiga erishishning eng muhim vazifasi – uzluksiz ta'lim, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yaratish. Tizim aholining doimiy o'zgarib turadigan kasbiy faoliyat sharoitlariga moslashish, individual intilishlarga muvofiq doimiy o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatini ta'minlash, jamiyatning ta'lim resurslarini oshirish tamoyillariga asoslanadi.

**Biroq,** aniqlanishi kerak bo'lgan qator muammolar mavjud. Birinchidan, mashg'ulotlarning haddan tashqari nazariy yo'nalishi. Bu oliy o'quv yurti bitiruvchisining bevosita ish joyida moslashish jarayonining murakkablashishiga ta'sir qiladi. Bizning fikrimizcha, ko'pchilik uchun asosiy qiyinchilik – bu nazariy bilimlarni amaliy qo'llash bilan solishtirishning mumkin emasligi.

Ikkinchidan, maktablarda ham, oliy o'quv yurtlarida ham yuqori samarali o'quv jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy vositalar, asbob-uskunalar yuqori darajasi. Ko'rinib turibdiki, o'quv jihozlarining eskirganligi yangi texnologiyalarni o'rganish va o'zlashtirish jarayonini sekinlashtiradi.

Uchinchidan, O'zbekiston ta'lim tizimidagi korrupsiyaning namoyon bo'lishi. Ushbu hodisa kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun sifatli ta'lim olish orqali vertikal harakatchanlik imkoniyatini to'sib qo'yadi, shuningdek, mamlakatda yuqori sifatli intellektual salohiyatni

shakllantirishga yordam bermaydi.

To'rtinchidan, O'zbekiston ta'lim va fan sohasini yetarli darajada moliyalashtirmaslik. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi qisqarishga olib keladi ta'lim muassasalari va yuqori malakali kadrlar bu boradagi ishlarning nufuzini pasaytiradi.

Aynan zamonaviy jamiyatdagi ta'lim tizimi mamlakat inson kapitalining eng muhim takror ishlab chiqaruvchisiga aylanishi kerak. Buni amalga oshirish uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi dolzarb muammolarni hal qilish kerak:

1. Ta'limning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirish, o'quv dasturlariga amaliy fanlarni ko'proq kiritish, o'quv jarayoniga amaliyotchi o'qituvchilarni ko'proq jalb etish, bu esa ta'limning amaliyotga yo'naltirilganligini kuchaytirish imkonini beradi.

2. Ta'lim tizimining texnologik tomonini imkon qadar saqlab qolish va rivojlantirish. Bu innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun mahalliy ilmiy-texnika ishlanmalarini ijro qilish va ulardan foydalanish muammosini hal qilishga yo'naltirilganligini anglatadi.

3. Ijodkorlikni har tomonlama ochib, maktab bitiruvchilarning qiziqishi va faolligini qo'llab-quvvatlagan holda, abituriyentlar uchun oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlangan imtihon bazasini yaratish yo'li bilan USE asosida talabalar bilimini xolis yakuniy baholashning boshqa shakllarini rivojlantirish.

### **"Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari, ijobiy va salbiy tomonlari"**

Zamonaviy dunyoning ta'lim bilan bog'liq masalalari alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiyot, siyosat va huquq sohasidagi

tub o'zgarishlar ijtimoiy voqealikning turli sohalarida sodir bo'layotgan jarayonlarni adekvat va muhim tushunish zarurati to'g'risida savol tug'diradi. Ularning eng umumiy bahosi jamiyatning yuqori inqirozli holatini, xususan, ta'lim tizimini eng muhim ijtimoiy institutlardan biri sifatida tan olishdan iborat.

Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari, uning ijobiy va salbiy tomonlari haqida gapirganda, ta'limning zamonaviy jamiyat uchun ahamiyatiga to'xtalmasdan bo'lmaydi. Mualliflar Barzayeva M. A. va Abdulazizova E. A. ta'limning butun mamlakat uchun ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirdilar. Ular shunday deb yozganlar: "Zamonaviy dunyoda ta'lim shaxsning ijtimoiy mavqeiini belgilashda, jamiyatning ijtimoiy tuzilishini rivojlantirish va takror ishlab chiqarishda, ijtimoiy mavqe, tartib va barqarorlikni saqlashda, ijtimoiy nazoratni amalga oshirishda juda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, ta'lim jamiyatning ijtimoiy-professional tuzilishini takror ishlab chiqarish omili bo'lganligi sababli, ijtimoiy harakatchanlikning asosiy va samarali kanallaridan biridir. Mehnat resurslarining sifati, demak, butun iqtisodiyotning holati bevosita ta'lim darajasiga bog'liq".

Zamonaviy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ta'limni davlat boshqaruvidan davlat-jamoat boshqaruviga o'tishdir. Davlat-jamoat boshqaruvining mohiyati ta'lim muammolarini hal etishda davlat va jamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirishdan iborat.

### **Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari:**

1. **Ta'limni insonparvarlashtirish** – o'quvchi shaxsiga jamiyatning oliy qadriyati sifatida qarash, yuksak intellektual, axloqiy va jismoniy fazilatlariga ega fuqaroni shakllantirishga e'tibor qaratish. Bu tamoyil an'anaviy tamoyillardan biri bo'lishiga qaramay, ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichida uning amalga oshirilishi boshqa shart-sharoitlar, birinchi navbatda, ta'lim tizimi faoliyatining an'anaviy va yangi tendentsiyalarining murakkabligi bilan ta'minlanadi.

2. **Individuallashtirish** individual yondashuv zarurligining yana bir an'anaviy didaktik tamoyilining sa'y-harakatlari sifatida. Bu tamoyilning amalga oshirilishi, eng avvalo, ta'limda shaxsiy-faollik yondashuvini tashkil etishda namoyon bo'ladi. Bolalarni tarbiyalash va o'qitishga bunday kompleks, tizimli yondashuvning paydo bo'lishi nafaqat pedagogika fanining tabiiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, u har qanday soha kabi, inson faoliyati, taraqqiyotga doimo intilish bilan bog'liq. Ushbu yondashuvning o'ziga xos xususiyati o'quv jarayonini o'qituvchi va talaba o'rtasidagi sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining o'ziga xos shakli sifatida ko'rib chiqishdir. Ushbu yondashuvning nomi uning ikkita asosiy komponenti: shaxsiy va faoliyat o'rtasidagi munosabatni ta'kidlaydi. Shaxsiy (yoki shaxsga yo'naltirilgan) yondashuv o'quvchining individual psixologik, yoshi, jinsi va milliy xususiyatlari bilan ta'lim markazida bo'lishini nazarda tutadi. Ushbu yondashuv doirasida mashg'ulotlar o'quvchining individual xususiyatlarini va "rivojlanish zonasini" ni hisobga olgan holda qurilishi kerak. Bu hisob o'quv dasturlari mazmunida, o'quv jarayonini tashkil etish shakllarida va muloqot xarakterida namoyon bo'ladi.

Faoliyat komponentining mohiyati shundan iboratki, ta'lim shaxsni faollikka undasagina uning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Faoliyatning ahamiyati va uning natijasi insonning umuminsoniy madaniyatni egallash samaradorligiga ta'sir qiladi. Ta'lim faoliyatini rejalashtirishda umumiy xususiyatlar faoliyat (sub'ektivlik, subyektivlik, motivatsiya, maqsadga muvofiqlik, xabardorlik), balki uning tuzilishi (harakatlari, operatsiyalari) va tarkibiy qismlari (predmet, vositalar, usullar, mahsulot, natija)ni hisobga olish kerak.

3. **Demokratlashtirish** – ta'lim jarayoni istirokchilarining (talabalar va o'qituvchilarning) faolligi, tashabbuskorligi va ijodkorligini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ta'limni boshqarishga jamoatchilikni keng jalb etish. Agar ta'lim ijtimoiy takror ishlab chiqarishning eng muhim instituti bo'lib, jamiyatni demokratlashtirishning asosiy

vositasi aylanishi kerakligidan kelib chiqadigan bo'lsak, bolani bolaligidanoq uning qo'lida bo'lgan chegaralar doirasida o'z ishlarini boshqarishga o'rgatishimiz va demokratik tartib-qoidalarning elementar ko'nikmalarini, qarorlar qabul qilishda demokratik yondashuv, jamoatchilik bilan muloqot va hurmatni shakllantirishimiz kerak.

4. **O'zgaruvchanlik**, yoki diversifikatsiya (lotin tilidan tarjima – xilma-xillik, diversifikatsiyalangan rivojlanish), ta'lim muassasalari bir vaqtning o'zida har xil turdagi ta'lim muassasalarini rivojlantirishni nazarda tutadi: maktablar, litseylar, texnikumlar, alohida fanlarni chuqur o'rganadigan ham davlat, ham nodavlat maktablar.

5. **Yaxlitlik** ta'lim tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Yuqori sifatli ta'lim va tarbiya faqat ta'lim tizimining barcha qismlarining real uzluksizligi sharoitidagina amalga oshirilishi mumkinligini anglash murakkab ta'lim muassasalarining (bog'cha-maktab, maktab-universitet va boshqalar) paydo bo'lishiga olib keladi. Integratsiya tendentsiyasi Bugungi kunda ta'lim mazmunida ham sezilarli: fanlararo aloqalar kuchaymoqda, turli xil turdagi o'quv muassasalarida integratsiya kurslari yaratilib, amalga oshirilmoqda va hokazo.

6. **Psixologizatsiya** integratsiyaning zamonaviy ta'lim jarayoni. Bu nafaqat psixologiyaga ijtimoiy qiziqishning kuchayishini aks ettiradi (bu ijtimoiy inqirozlar va natijada jamiyatdagi umidsizlik va nevrotiklik davrlariga xosdir), balki bugungi kunda pedagogik vazifalarni shakllantirishning o'zi o'zgarib borayotganini ko'rsatadi.

O'qituvchining oldida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va ko'nikmalarini shakllantirish vazifasidan tashqari, bolaning ularni qabul qilishiga imkon beradigan aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi turibdi. Agar ZUN sohasini shakllantirish

pedagogik vazifa bo'lsa, psixik xususiyatlarni shakllantirish psixologik-pedagogik vazifadir. Biroq bugungi kunda o'qituvchilarimizning psixologik tayyorgarlik darajasi bu muammoni muvaffaqiyatli hal etishga imkon bermayapti.

Ushbu muammoni hal qilish uchun maxsus tadqiqotlar o'tkazish kerak, ularning natijalari pedagogika va psixologiyani amaliy integratsiyalashuvining hozirgi tendentsiyasini yaxshiroq amalga oshirishga yordam beradi. Shu sababli, ta'lim muassasalariga o'qituvchi-psixolog lavozimi joriy etildi, bu esa vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

**7. Ta'limning informatсион usullaridan faol metodlarga o'tish** muammoli, ilmiy tadqiqot, zaxiralardan keng foydalanish elementlarini o'z ichiga oladi. Talabalar uchun bu shaxsning ijodkorligini rivojlantirish, rag'batlantirish foydasiga o'quv jarayonini tashkil etishning qat'iy tartibga solinadigan nazorat, algoritmik usullaridan voz kechishni anglatadi.

Yu.M. Lotmannning yozishicha, "... Biz uchun g'ayrioddiy dunyoda, tez o'zgaruvchan dunyoda yashashni o'rganishimiz kerak, bu bilan solishtirganda dinamik 20-asr qulay va harakatsiz ko'rinadi". 21-asrning qariyb o'ndan ikki qismini yashagan bugungi kunda bu fikrga qo'shilmaslik qiyin. Zamonamizning madaniy holati shakllar, hodisalar, innovatsiyalar, ham ruhiy, ham ruhiy hodisalar, ham real, ham virtual xaotik kaleydoskopning rasmidir.

Shu bois, bugungi kunda yuqori salohiyatli, turli muammolarni tizimli ravishda qo'yib, hal qila oladigan mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj juda yaqqol ifodalangan. Ijodkorlikni kengroq ma'noda moslashishning eng muhim mexanizmi sifatida nafaqat shunday deb hisoblash mumkin, shuningdek, insonga tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashish va tobora kengayib borayotgan axborot sohasida harakat qilish imkonini beradigan shaxsiy sifat qanchalik zarur. Bunday sifatni shakllantirish tizimli yondashuvni talab qiladi va shaxsning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limning barcha bosqichlarida muvaffaqiyatli

amalga oshirilishi mumkin.

**8. Standartlashtirish** Ta'lim mazmuni zamonaviy xalqaro ta'lim amaliyotiga xos bo'lib, ta'lim muassasasining turidan qat'i nazar, umumiy ta'limning yagona darajasini yaratish zarurati bilan bog'liq. Ta'limning davlat normasi sifatida qabul qilingan, ijtimoiy idealni aks ettiruvchi va shaxsning ushbu idealga erishish qobiliyatini hisobga oladigan asosiy parametrlar tizimi tushuniladi.

**9. Sanoatlashtirish** o'rganish, ya'ni o'qitishning yangi modellarini yaratish va qo'llash va uning mazmunini o'zlashtirish samaradorligini (masalan, dasturlashtirilgan ta'lim) sinab ko'rish imkonini beruvchi uni kompyuterlashtirish va unga qo'shiladigan texnologiyalashtirish. Bundan tashqari, o'quv jarayonini kompyuterlashtirish, ayniqsa, sog'lig'i sababli ta'lim muassasalariga borish imkoniga ega bo'lmagan odamlar uchun masofaviy ta'lim imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

**Funksional** o'qitishda kompyuterning maqsadi talabalar va o'qituvchilarga nisbatan boshqacha. O'qituvchi uchun kompyuter texnikasi uning mehnat quroli, o'quvchilar va o'quvchilar uchun ularni rivojlantirish vositasidir. Bir tomondan, kompyuterlar uzatish tezligini oshirish nuqtai nazaridan o'quv jarayonini osonlashtiradi. Ta'lim ma'lumotlari, uning o'zlashtirilishini nazorat qilish, o'rganishdagi turli xil og'ishlarni tuzatish. Boshqa tomondan, kompyuterga haddan tashqari ishtiyoq, ulardan noto'g'ri foydalanish kognitiv qiziqishlarning yo'qolishi, fikrlashning dangasaligi va boshqa noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin. AKT asrida, yozuvchi M.Veylarning fikricha, odam juda ko'p turli xil ma'lumotlarni oladi. Ammo bu ma'lumotni tushunish, uni qayta ishlash muammosi bor, o'quvchilarning savodxonligi pasayib ketdi, bolalar o'qiganlarini yaxshi gapirmaydilar, Rossiya Federatsiyasi Ta'lim va fan vaziri Vasilyeva aytganidek,

bolalarning tillari bog'langan, va boshqalar. (Intervyu AIFda chop etilgan)

Avraam Linkoln o'zining "O'g'lining ustoziga maktubi"da shunday deb so'radi: "Iloji bo'lsa, uni kitobga qiziqtirishga o'rgating... Shuningdek, unga bo'sh vaqt bering, shunda u abadiy sirilar: osmondagi qushlar, asalarilar haqida mulohaza yuritishim mumkin. Quyoshdavatepalikning yashil yonbag'irlarida gullar». Shuning uchun rus ta'limidao'qituvchining o'quvchilar, talabalar bilan jonli muloqoti ustuvor bo'lib qolishi kerak, bunda o'qituvchi o'z fikrini bildiradi tajriba, ijobiy axloqiy munosabatlar nafaqat o'rgatadi, balki dunyoni mustaqil bilishni ham ilhomlantiradi (albatta, agar biz katta harf bilan O'qituvchi haqida gapiradigan bo'lsak).

## NAZORAT SAVOLLARI

1. "Innovatsion pedagogika", "Innovatsion muhit", "Innovatsion ta'lim" tushunchalarini izohlang.
2. Innovatsion pedagogikada o'qituvchi faoliyatini tahlil qiling.
3. Innovatsion ta'lim bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar tajribasini tahlil qiling.

...shuning uchun rus ta'limidao'qituvchining o'quvchilar, talabalar bilan jonli muloqoti ustuvor bo'lib qolishi kerak, bunda o'qituvchi o'z fikrini bildiradi tajriba, ijobiy axloqiy munosabatlar nafaqat o'rgatadi, balki dunyoni mustaqil bilishni ham ilhomlantiradi (albatta, agar biz katta harf bilan O'qituvchi haqida gapiradigan bo'lsak).

## II QISM

# AMALIY MASHG'ULOTLAR

...shuning uchun rus ta'limidao'qituvchining o'quvchilar, talabalar bilan jonli muloqoti ustuvor bo'lib qolishi kerak, bunda o'qituvchi o'z fikrini bildiradi tajriba, ijobiy axloqiy munosabatlar nafaqat o'rgatadi, balki dunyoni mustaqil bilishni ham ilhomlantiradi (albatta, agar biz katta harf bilan O'qituvchi haqida gapiradigan bo'lsak).

## XVI. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI



**Maqsad:** talabalarining pedagogika fanining umumiy asoslari haqida bilimlarini mustahkamlash, fanga oid nazariy bilimlarini amaliy hayotda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.

### Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:

- talabalarining davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
- o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
- mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqilshug'ullanishi;
- bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
- mazkur mavzu bo'yicha talabalarining o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;
- keyingi amaliy mashg'ulot uchun topshiriq berish.

### 1-topshiriq. "Insert" strategiyasi metodi.

**Insert** – o'quv jarayonida o'quvchilarning olgan bilimlarini mustaqil tahlil qilish va anglash imkoniyatini beradigan vositadir.

**Maqsadi:** o'quvchilarni matnni oxirigacha o'qib, mazmuni anglab, qayta hikoya qilishga o'rgatish.

**Vazifasi:** faol bo'lmagan o'quvchilarni darsga qatnashishlarini ta'minlash hamda qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish.

"V"	"_"	"+"	"?"
"ha" - o'qiganlaringiz dan aniq bilgan yoki bilaman deb o'ylagan ma'lumot	"manfiy" - o'qiganlaringiz, bilganlaringizga qarama-qarashi ma'lumot	"musbat" - o'qiganlaringiz orasida siz uchun yangi bo'lgan ma'lumot	"savol" - o'qiganlaringizdan siz uchun tushunarli bo'lmagan yoki shu haqda ko'proq narsa bilishni istagan ma'lumot

### 2-topshiriq. Quyidagi tushunchalarni izohlang.

T/r	Tushuncha	Izoh
1.	Shaxs	
2.	Ta'lim	
3.	Tarbiya	
4.	Ma'lumot	
5.	Rivojlanish	
6.	Bilim	
7.	Ko'nikma	
8.	Malaka	
9.	Metod	
10.	Kompetensiya	

### 3-topshiriq. Moslashtiring va izohlang.

Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish).		Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.
Pedagogik tajriba metodi		Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi.
Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi.		respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi
Test metodi.		Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi.
Pedagogik tahlil metodi		Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi.

Intervyu metodi		Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir.
Suhbat metodi		Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud sharoitlarning pedagogik maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarining amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

### 4-topshiriq. Test topshiriqlari

#### 1. Pedagogika fanining obyekti aniqlang.

- A) o'quvchilar jamoasi
- B) yaxlit pedagogik jarayon
- D) pedagogik faoliyat
- E) ta'lim jarayoni

#### 2. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim qaysi sinflarni o'z ichiga oladi?

- A) 1-11-sinflar
- B) 1-9-sinflar
- D) 5-11-sinflar
- E) 1-4-sinflar

#### 3. O'zbekistonda necha yoshli bolalar boshlang'ich ta'limga qabul qilinadi?

- A) 6 yoshdan
- B) 6-7 yoshdan
- D) 7 yoshdan
- E) 7-8 yoshdan

4. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda qanday ko'nikmalar shakllantiriladi?

A) o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

B) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

D) ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

E) ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

5. Maktab yoshidagi bolalarni umumta'lim muassasasiga jalb etish tartibini qaysi tashkilot belgilaydi?

- A) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
- B) Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi
- D) Tuman Xalq ta'limi bo'limi
- E) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Savol	1	2	3	4	5
Javob	B	A	D	E	A

5-topshiriq. O'zingizni tahlil qiling. "BBB" texnologiyasi asosida

BILAMAN	BILIB OLDIM	BILMOQCHIMAN

Talabani baholash mezonlari:

- 1. Talabning darsdagi xulqi -
- 2. Fikrlarining mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqining ravonligi -
- 3. Ko'rgazmalilik va reglament -

Jami: eng yuqori baho:

## NAZORAT SAVOLLARI

- 1. Pedagogika qanday fan?
- 2. Pedagogikaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
- 3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida umumiy o'rta ta'lim bosqichlarini qanday belgilangan?
- 4. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda qanday ko'nikmalarni shakllantirishi lozim?

## XVII. SHAXS RIVOJLANISHI, TARBIIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI




**Maqsad:** talabalarining shaxs rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Shaxsning yosh bosqichlaridagi yetakchi faoliyat turlarini tahlil qilishga o'rgatish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqaqlari, daftar konspekt.

### Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:

- talabalarining davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
- o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
- mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishi;
- bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
- mazkur mavzu bo'yicha talabalarining o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;
- keyingi amaliy mashg'ulot uchun topshiriq berish.

**1-topshiriq. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiling.**



**2-topshiriq. Taqqoslang. Fikringizni bildiring**

**E.G'. G'oziyev bo'yicha:**

- Chaqaloqlik va go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha.

- Ilk bolalik davri – 1-3 yoshgacha.
- Maktabgacha yosh davri – 3-6 yoshgacha.
- Kichik maktab yosh davri – 6-10 yoshgacha.
- O'smirlik davri – 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha.
- Ilk o'spirinlik davri – 15-18 yoshgacha.
- O'spirinlik davri – 18-22 yoshgacha (talabalik).
- Yoshlik davri – 23-28 yoshgacha.
- Yetuklik davri 1-bosqichi – 28-35 yoshgacha.
- Yetuklik davri 2-bosqichi – 36-55 (60) yoshgacha.
- Keksayish davri – 61 (56)- 74 yoshgacha.
- Keksalik – 75-90 yoshgacha.
- Uzoq umr ko'ruvchilar – 90 dan yuqori.

### D.B. Elkonin bo'yicha yoshni davrlashtirish

Yosh davri	Yosh chegaralari	Yetakchi faoliyat turi
Go'daklik	1 yoshgacha / BBB a	Bevosita emotsional muloqat
Ilk bolalik	1-3 yosh	Predmetli faoliyat
Kichik va o'rta maktabgacha yosh davri	3-5 yosh	O'yin faoliyati
Katta maktabgacha yosh davri	5-7 yosh	Rolli-syujetli o'yinlar
Kichik maktab yosh davri	7-11 yoshga	O'qish faoliyati
O'smirlik yosh davri	11-15 yosh	Bevosita emotsional muloqat
Ilk o'spirinlik davri	15-18 yosh	Predmetli faoliyat

### 3-topshiriq. "Bumerang" texnologiyasi.

"Bumerang" texnologiyasi bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmunga (muammoli, munozarali va h.) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi. Bunda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchi turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolda chiqishi mumkin.

"Bumerang" texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi: g'oya, fikr va dalillarni yozma hamda og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Maqsadi:** o'quvchilarda anglab o'qish orqali, fikrni yetkaza olishga, tushuntira olishga o'rgatish.

**Vazifasi:** o'quvchilarni guruhda ishlash, hamfikrlik, o'zaro fikr almashishga ko'nikma hosil qilish.

#### Talabani baholash mezonlari:

1. Talabani mimikasi va pontomimikasiga
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi
3. Ko'rgazmalilik va reglament –

**Jami: eng yuqori baho:**

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Shaxsning rivojlanishi tushunchasiga izoh bering.
2. Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Shaxs rivojlanishiga doir zamonaviy yondashuvlarni izohlang.
4. Shaxs rivojlanishining yosh davrlariga tavsif bering.

## XVI. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI



**Maqsad:** talabalarda zamonaviy o'qituvchi bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, pedagogning kasbiy fazilatlari, pedagogik mahorat haqida tasavvur hosil qildirish. O'qituvchining vazifalarini anglash ko'nikmasini shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.

### Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:

- talabalarining davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
- o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
- mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqilshug'ullanishi;
- bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
- mazkur mavzu bo'yicha talabalarining o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;
- keyingi amaliy mashg'ulot uchun topshiriq berish.

### 1-topshiriq. Keys topshiriq.

**Keysning maqsadi:** mavzu doirasida talabalar bilim, ko'nikmalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, nizoli vaziyatlarni tahlil etish va baholash malakalarini shakllantirish.

**Taqdim etilgan keys yechimini toppish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:**

- o'quv-tarbiyaviy jarayonni tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- ta'limni tashkil etish shakllari, o'qitish metodlari va vositalarini biladi va ularning mazmun-mohiyatini hamda ahamiyatini yoritadi;
- pedagogning kasbiy kompetentligi va mahoratini aniqlovchi ko'rsatkichlarni aniqlay oladi;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

### Kirish

**Muammoning dolzarbligi.** Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarini, o'z mutaxassislik fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Shaxslararo munosabatlarda muomala jarayonidagi to'siqlarning mavjud bo'lishi ko'pincha dialog qatnashchilari orasida turli ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Faoliyatlari bevosita shaxslararo muomala asosida quriladigan kasb egalarining mazkur to'siqlar va ularni yengib o'tish yo'llari haqidagi bilim ko'nikmalarni egallashlari, doimiy ziddiyatlar oqibatida stress holatlarining yuzaga kelishi va u bilan bog'liq bo'lgan turli kasalliklarning oldini olishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib pedagog shaxsining kasbiy layoqati, muomala munosabati, shu bilan birgalikda ta'lim jarayonini yuqori darajada tashkil etish o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Vaziyat

**O'qituvchi:** – Nishonova inshoingiz ancha yaxshi yozilgan. Muhammad inshoda qaysi kasb egasi bo'lishingiz

ko'rsatilmagan, umuman mavzudan chetlab ketgansiz?

**Muhammad:** "Nega endi ustoz, vazir bo'laman dedim-ku?"

**O'qituvchi:** – Muhammad, vazirlik kasb emas, mansab. Vazir bo'lish uchun ham qaysidir kasb egasi bo'lish kerak, aytaylik, oliy ta'lim vaziri kim? deganda, pedagog ya'ni o'qituvchilik kasbi chuqur o'rgangan bo'lishi kerakligini tushuntiradi.

**Muhammad:** "Dadam seni vazir qilaman dedilarku? Tamom ustoz aytganlarini qiladilar" – dedi.

O'quvchilar tomonidan voy-bo'y vazir bo'larmish degan gaplar eshitildi.

**O'qituvchi:** "Mayli bo'lmasam, inshoingizni dadangizga o'qib bera qoling. Shundan so'ng suhbatni davom ettiramiz.

Adham inshoingiz juda yaxshi yozilgan, aktyorlik kasbi haqida keng ma'lumot bergansiz. Chindan ham aktyor bo'lmoqchimisiz? Qaysi aktyorga o'xshashni xohlaysiz? – deb so'radi o'qituvchi, Muhammadga ma'noli qarab. Adham faxr ila Shukur Burxonov, Xamza Umarovlarga – deb javob berdi. Shu payt Sardor – uni qaranglar, Shukur Burxonov, Xamza Umarovlarga o'zsharmish, ko'rpangga qarab oyoq uzatsang bo'larmidi dedi piching bilan.

**O'qituvchi** – "Bas qiling Sardor! Inson nimani niyat qilsa, ana shu niyat yo'lida mehnat qilsa, albatta orzusiga erishadi – dedi vaziyatni yumshatgan bo'lib.

Umuman olganda, Adhamda qobiliyat bor, yaqinda A. Navoiy asaridan parcha ko'rsatamiz. Ana o'shanda Adham qanday iste'dodli aktyor ekanligini hammagiz bilib olasiz.

Ha aytgandek, Dilso'zo'z sahnangizni repetitsiya qilyapsizlarmi? Vaqt juda ham oz qoldi-ku. Shu payt Muhammad yana luqma tashladi – "sevishganlar sahnasi bo'lsa – biz ham repetitsiya qilardik" – dedi. O'qituvchi jiddiy holatda Muhammadga qarata – "Ha, katta yigit bo'lib qolibsizmi?" – dedi. Ertaga dadangiz bilan keeling, bo'lmasa, darsga kiritmayman. Bachkanalik qilgandan ko'ra, Dilso'zdan o'rnak oling, inshosi juda ham ajoyib yozilgan..."

## MUHOKAMA UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Muammoni, ziddiyatli vaziyatni yuzaga kelish sababi nimada?
2. Ushbu vaziyatda muammoni qayd etuvchi qanday isbot-dalillarni keltira olasiz?
3. Mazkur holatda salbiy ta'sir etuvchi holatlarni aniqlang va sababini ajratib ko'rsating.
4. Bunday vaziyatni siz muammoni qanday bartaraf etgan bo'lar edingiz?

### Topshiriq.

Muammo turlari	Muammo kelib chiqish sabablari	Keysologning yechimi	Guruh yechimi

**2-topshiriq. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 46-moddasini o'rganing.**

**46-modda. Pedagog xodimlarning majburiyatlari**  
**Pedagog xodimlar:**

- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;
- o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;
- ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi;

- voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;
- ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'lim hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi;
- o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;
- tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.

Pedagog xodimlarning zimmasida qonun hujjatlariga, shuningdek ta'lim oluvchi va ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

### Talabani baholash mezonlari:

1. Talabani mimikasi va pantomimikasiga
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi
3. Ko'rgazmalilik va reglament –

**Jami: eng yuqori baho:**

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi qaysi shaxslarga berilgan?
2. Zamonaviy o'qituvchi qanday vazifalarni bajarishi kerak?
3. Siz o'zingizda qanday o'qituvchi fazilatlarini shakllantirmoqdasiz?

## XIX. ZAMONAVIY MAKTAB O'QITUVCHISINING VAZIFALARI. PEDAGOGNING KASBIY FAZILATLARI. PEDAGOGIK MAHORAT. PEDAGOGLIK FAOLIYATIDA IJODKORLIK. PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK BILIMLAR INTEGRATSIYASI. TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVI



**Maqsad:** talabalarda boshlang'ich ta'lim pedagogikasining o'ziga xosligi haqida bilim berish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.

### Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:

- talabalarning davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
- o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
- mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishi;
- bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
- mazkur mavzu bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;
- keyingi amaliy mashg'ulot uchun topshiriq berish.

### 1-topshiriq. Tahliil qiling.

9-modda. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I – XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I – IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V – IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X – XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini

ta'minlaydi.


Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

## 2-topshiriq.



## 3-topshiriq. "Blits savollar"ga javob bering.

1. Pedagog kim?
2. Pedagogning kasbiy fazilatlarini sanang.

3. Pedagogik mahurat deganda nimani tushunasiz?
4. Pedagogik faoliyat yuritish davomida psixologik bilimlar qay darajada zarur?
5. Psixologik-pedagogik bilimlar integratsiyasi nima?

## 4-topshiriq. Test topshiriqlari

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida umumiy o'rta ta'lim bosqichlari qanday belgilangan?

- A) boshlang'ich ta'lim, yuqori ta'lim
- B) boshlang'ich ta'lim, tayanch o'rta ta'lim, o'rta ta'lim
- D) boshlang'ich ta'lim, inklyuziv ta'lim, o'rta ta'lim
- E) inklyuziv ta'lim, dual ta'lim, umumiy o'rta ta'lim

2. Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida boshlang'ich ta'limning qanday ko'nikmalarni shakllantirishi belgilangan?

- A) Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
- B) Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

D) Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

E) Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan

3. Umumiy o'rta ta'limning o'rta ta'lim bosqichi nechanchi sinflarni o'z ichiga oladi?

- A) X-XI sinflar
- B) I-IV sinflar
- D) V-IX sinflar
- E) I-XI sinflar

4. O'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qitish uslubiyotini. O'ishlab chiqish,

shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish bu ...

- A) Pedagogning huquqi
- B) Pedagogning burchi
- D) Pedagogning vazifasi
- E) Pedagogning majburiyati

Savol	1	2	3	4	5
Javob	B	A	D	E	A

Talabani baholash mezonlari:

1. Talabanning mimikasi va pontomimikasiga
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi
3. Ko'rgazmalilik va reglament --

Jami: eng yuqori baho:

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining o'ziga xosligi nimada?
3. Boshlang'ich va yuqori sinflardagi pedagogik faoliyatning farqli va o'xshash jihatlarini tushuntiring.

## XX. BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARI INTEGRATSIYASI



**Maqsad:** talabalarining integratsiya haqidagi bilimlarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini hosil qilish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.

**Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:**

- talabalarning davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
- o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
- mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqilshug'ullanishi;
- bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
- mazkur mavzu bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish.

**1-topshiriq.** "Integratsiya" so'zining ma'nosi nima? Boshlang'ich ta'limda qaysi fanlararo integratsiyani amalga oshirsa bo'ladi?

**2-topshiriq.** Matematika va texnologiya fanidan integratsiyani amalga oshirish uchun 3-sinf darsligidan ma'lum bir mavzu tanlab, mavzu doirasida integratsiya jarayonini amalga oshiring.

**3-topshiriq.** Test savollariga javob bering.

**1. Boshlang'ich ta'limda integratsiyaning turlari qaysilar?**

- A) Fanlar aro integratsiya, bo'limlar aro integratsiya, mavzular aro integratsiya  
 B) Fanlar aro integratsiya, bo'limlar aro integratsiya, sinflar aro integratsiya  
 C) Bo'limlar aro integratsiya, sinflar aro integratsiya, maktablar aro integratsiya  
 D) To'g'ri javob berilmagan

2. Kim o'xshatishni " lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo'lgan, tizim ichidagi, tizimlar orasidagi, aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi. "quyidagi turlarga bo'lgan?

- A) Y.A. Komenskiy  
 B) Y.A. Samarini  
 C) T. Bernaris Li  
 D) K.D. Ushenskiy

3. Integratsiya qaysi so'zdan kelib chiqqan?

- A) Yunoncha integration – to'ldirish qo'shish, integer-butun so'zidan kelib chiqqan  
 B) Lotincha integration- to'ldirish qo'shish, integer-butun so'zidan kelib chiqqan  
 C) Lotincha integratio -tiklash to'ldirish, integer-butun so'zidan kelib chiqqan  
 D) Gerkmcha integration qo'shish, integer – butun so'zidan kelib chiqqan

4. Y.A. Samarini o'xshatishni qanday turlarga bo'lgan?

- A) lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo'lgan, tizim ichidagi, guruhlar orasidagi, aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab belgilaydi  
 B) lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo'lgan, guruh ichidagi, tizimlar orasidagi, jismoniy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi

- C) lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo'lgan, birlashtirilgan guruh(jamoa)ning aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi  
 D) lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo'lgan, tizim ichidagi, tizimlar orasidagi, aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi

5. Kimlar pedagogikada integratsiyani uzluksiz bog'langan, yagona, yaxlitlikni yaratish jarayoni va natijasi deb bilishadi?

- A) B.M. Kedrov va S.N. Smirnov  
 B) I.A. Akchurini va V.N. Maksimova  
 C) M.N. Burulava va V.N. Maksimova  
 D) I.D. Zverev va V.N. Maksimova

6. Qaysi mralliflar ilmiy fanlarning birlashishi fanni rivojlantirish uchun zamonaviy sharoitga xos bo'lgan o'zaro ta'sirning sifat jihatidan yangi turi deb hisoblashadi?

- A) I.A. Akchurini, B.M. Kedrov, S.N. Smirnov, P.N. Fedoseev, V.N. Maksimova va boshqalar  
 B) I.A. Akchurini, B.M. Kedrov, I.D. Zverov, S.N. Smirnov, P.N. Fedoseev va boshqalar  
 C) I.A. Akchurini, B.M. Kedrov, S.N. Smirnov, P.N. Fedoseev va boshqalar  
 D) I.A. Akchurini, B.M. Kedrov, N.M. Berulava S.N.S mirnov, P.N. Fedoseev va boshqalar

7. Professor Mavlonova, J. Hasanboyev, K. Hoshimovlar boshlang'ich ta'lim fanlarini integratsiyalashnin ta'lim sifatini oshirishning muhim \_\_\_\_\_deya ta'riflaydi. Bo'sh o'rinni to'ldiring!

- A) asosi B) prinsipi C) metodologiyasi D) tayanchi  
 8. Ta'lim to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?  
 A) 2020-yil 22-sentabr (O'RO-636-son)  
 B) 2020-yil 23-sentabr (O'RO-637-son)

- C) 2020-yil 23-dekabr (O'RO-639-son)  
 D) 2020-yil 22-dekabr (O'RO-638-son)
9. **Differentsiatsiya qaysi so'zdan olingan va qanday ma'noni anglatadi?**

- A) Differentsiatsiya fransuzcha diffe'rentiofon, lotincha differentia – farq, bir xillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish.  
 B) Differentsiatsiya yunoncha diffe'rentiofon, yunoncha differentia – farq, bir xillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish.  
 C) Differentsiatsiya fransuzcha diffe'rentiofon, fransizcha differentia – farq, bir xillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish.  
 D) Differentsiatsiya yunoncha diffe'rentiofon, lotincha differentia – farq, bir xillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish.

10. **Integratsiyalashgan darslarda qanday uslublardan foydalanish mumkin?**

- A) nutqni rivojlantirishga oid ijodiy ishlar, ularni yozishda tabiatshunoslik materialidan foydalanish, ogzaki rasm chizish (tasvirlash, manzarali tasvirlangan joylarni yozma ravishda daftarga tushirish)  
 B) evristik suhbatlar, nutqni rivojlantirishga oid ijodiy ishlar, ularni yozishda tabiatshunoslik materialidan foydalanish  
 C) evristik suhbatlar, nutqni rivojlantirishga oid ijodiy ishlar, ularni yozishda tabiatshunoslik materialidan foydalanish, ogzaki rasm chizish (tasvirlash, manzarali tasvirlangan joylarni yozma ravishda daftarga tushirish)  
 D) evristik suhbatlar, nutqni rivojlantirishga oid ijodiy ishlar, ularni yozishda tabiatshunoslik materialidan foydalanish, ogzaki rasm chizish (tasvirlash, manzarali tasvirlangan joylarni yozma ravishda daftarga tushirish).

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	B	C	D	D	C	B	B	A	D


## XXI. TA'LIM JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA. TA'LIM TAMOYILLARI



**Maqsad:** talabalarni ta'lim jarayonining yaxli tizim sifatida va ta'lim tamoyillari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.

### 1-topshiriq. Ta'lim jarayoni mazmunini yoriting.



**2-topshiriq.** Ta'lim jarayoni boshqarish bosqichlarini tahlil qiling.

**Ta'lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:**


1. rejalashtirish;
2. tashkil etish;

3. boshqarish (rag'batlantirish);
4. nazorat;
5. natijalarni baholash va tahlil qilish.

### 3-topshiriq. Izoqlang

TALIM TAMOYILLARI	IZOHI
O'qitishning ilmiylik tamoyillari	
Bilimlarni tizimli va izchil o'zlashtirish qoidasi	
Nazariy bilimlarning amaliyot bilan turmush tajribalari bilan bog'lash	
Ta'limdagi ongillik va faollik	
Ta'limning ko'rsatmalilik qoidasi	

### 4-topshiriq. Tahlil qiling.



### Talabani baholash mezonlari:

1. Talabning mimikasi va pontomimikasiga
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi
3. Ko'rgazmalilik va reglament – Jami: eng yuqori baho:

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Ta'lim jarayonining mazmuni nimalardan iborat?
2. Ta'lim jarayonining bosqichlarini izohlang.
3. Ta'lim tamoyillari qaysilar?
4. Ta'lim va tarbiya tamoyillarining farqi nimada?

## XXII. TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI



**Maqsad:** talabalarning ta'lim metodlari vositalari haqidagi bilimlarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.

### Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:

- talabalarning davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
- o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
- mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqilshug'ullanishi;
- bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
- mazkur mavzu bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;
- keyingi amaliy mashg'ulot uchun topshiriq berish.

1-topshiriq. Quyida keltirilgan jadvalni to'ldiring.

Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari

2-topshiriq. Ta'lim metodlarini izohlang.

Og'zaki  
metodlar

Ko'rsatmali  
metodlar

Amaliy  
metodlar

3-topshiriq. Quyida keltirilgan jadvalni to'ldiring.

### "Ta'lim metodlari" mavzusidagi konseptual jadval

Metodning mazmuni	Belgilari	Ta'rifi	Funksiyasi	Qoidalari	Izoh
An'anaviy metodlar					
Bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari					
Didaktik maqsadga ko'ra ta'lim metodlari					

4-topshiriq. Test topshiriqlari

#### 1. Metod so'zining lug'aviy ma'nosini aniqlang.

- yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli
- arabcha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli
- yunoncha tadqiqot maqsadi, mazmuni
- arabcha tadqiqot maqsadi, mazmuni

2. Tarqatmali kartochkalar dars ...

- A) metodi
- B) vositasi
- D) shakli
- E) mazmuni

3. Suhbat, Sinkveyn, 6x6x6x, tushuntirish bular ...

- A) ta'lim vositalari
- B) ta'limning ko'rgazmaliligi
- D) ta'lim metodlari
- E) ta'lim texnologiyalari

4. O'qitish metodlari qanday guruhlarga ajratiladi?

- A) og'zaki, ko'rgazmali, amaliy
- B) amaliy, yozma, ko'rgazmali
- D) og'zaki, ko'rsatmali, amaliy
- E) amaliy, yozma, og'zaki

5. Ta'lim vositalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

- A) darslik, suhbat, sinf xattaxtasi
- B) darslik, daftar, tarqatmali materiallar
- D) o'quvchi formasi, darslik, sinf xattaxtasi
- E) tarqatmali materiallar, Venn diagrammasi,

Savol	1	2	3	4	5
Javob	B	A	D	E	A

5-topshiriq.

O'quv amaliyotingiz davomida qanday interfaol metodlarni o'rgandingiz? O'rgangan interfaol metodlaringizni guruhda qo'llang.

Talabani baholash mezonlari:

- 1. Talabanning mimikasi va pontomimikasiga
- 2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi
- 3. Ko'rgazmalilik va reglament –

Jami: eng yuqori baho:

**NAZORAT SAVOLLARI**

- 1. Ta'lim metodlari nima? Ta'lim vositalari-chi?
- 2. Ta'lim metodlari ta'lim vositalaridan nimasi bilan farqlanadi?
- 3. Darslarda ta'lim metodlarini qo'llashning samaradorligi qanday?
- 4. Siz o'quv amaliyotingiz davomida qanday ta'lim metodlarini qo'llagansiz?

## XXIII. TA'LIMNI TASHKIL ETISH TURLARI VA SHAKLLARI




**Maqsad:** talabalarning ta'limni tashkil etish turlari va shakllari haqidagi bilimlarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish kompetensiyasini rivojlantirish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqaqlari, daftar konsept.

### Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:

- talabalarining davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
- o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
- mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqilshug'ullanishi;
- bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
- mazkur mavzu bo'yicha talabalarining o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;
- keyingi amaliy mashg'ulot uchun topshiriq berish.

### 1-topshiriq.



### 2-topshiriq.

«Skarabey» texnologiyasi. «Skarabey» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. «Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi.

- boshida o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («aqliy hujum»);
- mavzuni o'rganish jarayonida-uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarni ko'rsatish;
- oxirida-olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida. «Skarabey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega. Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanilishi mumkin.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o'zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- o'z faoliyati natijalariga ma'sullik va qiziqish uyg'otadi.

**Asosiy tushunchalari quyidagilar:** Assotsiatsiya-mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

### 3-topshiriq.

Dars turlari	Izohi
Aralash dars	
Yangi bilimlarni bayon qilish darsi	
O'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsi	
O'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarini nazorat qilish darsi	
Laboratoriya darslari	

### 4-topshiriq. Test topshiriqlari

1. Ta'limni tashkil etishning asosiy shaklini aniqlang.  
A) guruhda ishlash B) seminar D) ma'ruza E) dars
2. "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizomda dars davomiyligi necha daqiqaligi ko'rsatilgan?

- A) 45 daqiqa B) 40 daqiqa D) 35 daqiqa E) 60 daqiqa
3. Ta'limning yordamchi shakllari qaysi qatorida to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) to'garak, konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari
- B) konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, tadbirlar
- D) to'garak, dars, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari
- E) dars, tadbirlar, konferensiya, maslahat (konsultatsiya), o'quvchilarning mustaqil uy ishlari, fakultativ mashg'ulot,

Savol	1	2	3
Javob	B	A	D

### 5-topshiriq. Dars ishlanmasi tuzish.

2-sinf "Ona tili o'qish savodxonligi" yoki 3-sinf "Tarbiya" darsligidagi istalgan mavzuga dars ishlanmasi tuzing.

### Talabani baholash mezonlari:

1. Talabanning mimikasi va pontomimikasiga
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi
3. Ko'rgazmalilik va reglament –

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Ta'limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini yoriting.
2. Darsga qanday talablar qo'yiladi?
3. Dars davomiyligi necha daqiqani tashkil qiladi?
4. Dars ishlanmasi necha bosqichdan iborat bo'ladi?

## XXIV. TA'LIMNI TASHXIS ETISH



**Maqsad:** talabalarda ta'limni tashxis etish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Kerakli jihaz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqaqlari, daftar konspekt.

**Tashxis** – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Didaktik tashxislashning **maqsadi** o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarini uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

**Tashxislash** nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

**1-topshiriq.** Quyidagi tushunchalarga ta'rif bering.

- Bilim – \_\_\_\_\_
- Ko'nikma – \_\_\_\_\_
- Malaka – \_\_\_\_\_
- Nazorat – \_\_\_\_\_
- Tekshirish – \_\_\_\_\_
- Baholash – \_\_\_\_\_

**2-topshiriq.** Umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimida nazoratning qanday turlaridan foydalaniladi?

Nazoratlar	
Umumiy o'rta ta'lim	Oliy ta'lim

**3-topshiriq.** Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari haqida gapiring.

**Talabani baholash mezonlari:**

1. Talabaning mimikasi va pontomimikasisiga
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi
3. Ko'rgazmalilik va reglament –

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Nazoratning qanday turlari mavjud?
2. Baholash va baho tushunchalarining bir-biridan farqini tushuntiring?
3. Tashxislashning tarkibiy qismlari haqida gapiring?

## XXV. BOLALAR TARBIYA JAMOASI VA YAGONA PEDAGOGIK JARAYONNING ASOSIY SHAKLI



**Magsad:** talabalarining o'quvchilar jamoasini shakllantirish bo'yicha bilimlarini mustahkamlash, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash kompetensiyasini shakllantirish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.


### Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:

1. talabalarining davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
2. o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
3. mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashiga o'tkazish;
4. bajarilgan amaliy ishlarning natijalarining nazorati;
5. mazkur mavzu bo'yicha talabalarining o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;
6. keyingi amaliy mashg'ulot uchun topshiriq berish

**1-topshiriq.** "Keling tanishaylik" o'yini. Savollarga javob bering.

1. Siz kimsiz va nega bu yerdasiz?
2. Bizni nima birlashtiradi?
3. Siz uchun eng qimmatli narsa nima?
4. Ishlashingizga, o'qishingizga nima yordam beradi?
5. Kimlar bilan hamkorlik qilasisiz?
6. Kimlarga g'amxo'rlik qilasisiz?
7. Nimalarni o'zingiz va birgalikda jamoa bilan hal qilasisiz?
8. Sizingning eng kuchli va kuchsiz tomonlaringiz?

**2-Topshiriq.** "Ta'lim samaradorligini oshirishda individual va jamoa bilan ishlashning xususiyatlari" mavzusida Venn diagrammasi



### 3-topshiriq. "Sinkveyn" metodi.

Sinkveyn o'z talabiga ko'ra besh qatordan iborat qo'fiyasiz she'r bo'lib, bunda o'rganilayotgan tushuncha to'g'risida axborot yig'ilgan bo'lib, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai-nazar orqali ifodalanaadi. Quyidagicha tuzilishga ega.

**"Jamoada o'quvchilarni o'rtoqlik va do'stlik hissini tarbiyalash" mavzusida "Sinkveyn" metodini bajarish.**

Ot: Do'stlik.

Sifat: \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Fe'l: \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Gap: \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Sinonim: \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

### 4-topshiriq. Test topshiriqlari.

#### 1. O'quvchilar jamoasi – bu ...?

A) bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruh, yuqori darajada uyushtirilgan birlashma

B) bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan

ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamosi va hokazo).

D) ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhidir.

E) yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir.

2. O'quvchilar jamoasini necha bosqichda shakllantiriladi?

- A) 2 bosqichda
- B) 3 bosqichda
- D) 4 bosqichda
- E) 5 bosqichda

3. Jamoa an'analari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqqlang.

- A) kundalik turmush an'analari, bayram an'analari
- B) milliy an'analar, umuminsoniy an'analar
- D) milliy an'analar, kundalik turmush an'analari
- E) bayram an'analari, jamoaning xususiy an'analari

4. Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichining ahamiyati nimada?

A) bu bosqichda jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir

B) bu bosqich jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlash hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tafsiflanadi.

D) bu bosqich anchagina sarmahsul hisoblanadi. Bu davrda butun jamoa "ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs"larga talab qo'ya boshlaydi.

E) bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi.

5. Sinf jamoasiga kim rahbarlik qiladi?

- A) yoshlar yetakchisi
- B) sinf sardori
- D) sinf rahbari
- E) ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Savol	1	2	3	4	5
Javob	B	A	D	E	A

5-topshiriq. Quyida berilgan ta'limiy o'yinlarni guruhda qo'llang.

Siz jamoani shakllantirishga, jipslashtirishga qaratilgan qanday ta'limiy o'yinlarni bilasiz? O'zingiz bilgan ta'limiy o'yinlarni guruhda qo'llang.

Jamoani rivojlantirishda foydalaniladigan ta'limiy o'yinlar:

#### "BOTQOQLIK"

Buning uchun kartondan yasalgan o'rtacha kattalikda "likopchalar: kerak bo'ladi. Ularning soni 9 ta bo'lishi kerak. Guruh a'zolari qator bo'lib, birin-ketin likopchalarga oyoq qo'yib botqoqlikdan o'ta boshlaydilar. Atrofda esa ikkinchi guruh a'zolari qaroqchi yuradi. Timsoglar likopchalarni olib qo'yishga shay turadilar. Maqsad har bir guruh a'zosi likopchalardan oyoq uzmasligi lozim. Agar guruh a'zolari birgalikda harakat qilsalar, mag'lubiyatsiz botqoqlikdan o'tib oladilar va g'olib bo'ladilar.

### Talabani baholash mezonlari:

1. Talabani mimikasi va pontomikasiga bog'liq.
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi
3. Ko'rgazmalilik va reglament –

## NAZORAT SAVOLLARI

1. "Jamo'a" va "o'quvchilar jamoasi" tushunchalariga izoh bering.
2. O'quvchilar jamoasining o'ziga xosliklarini sanab bering.
3. O'quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlarini izohlang.
4. Jamoani jipslashtirish uchun qanday ta'limiy o'yinlardan foydalaniladi?



## XXVI. BOSHILANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSIYA



**Maqsad:** talabalarning boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsiya va ulardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash kompetensiyasini shakllantirish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.

### Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:

- talabalarning davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
- o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
- mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqilshug'ullanishi;
- bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
- mazkur mavzu bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;
- keyingi amaliy mashg'ulot uchun topshiriq berish.

**1-topshiriq.** "Bilimdonlar bellashuvi" metodi mavzu bo'yicha 2 nafar talaba ishtirokida amalga oshiriladi. Bu metodni qo'llashda ishtirokchilarga o'qituvchi yoki talabalar tomonidan o'rganilgan mavzular yuzasidan savollar beriladi. Javobni qaysi ishtirokchi birinchi bo'lib aytadi, raqibiga zarbani yo'llaydi, u esa himoyalanaadi. Yana 7ta savollar beriladi, shu tarzda davom etadi. Eng ko'p to'g'ri javob topgan ishtirokchi g'olib bo'ladi. Bu metod orqali talabalarning bilimlarni qanchalik o'zlashtirayotgani aniqlanadi, o'zaro hurmat shakllanadi, chaqqonlik va zukkolik rivojlanadi.

**2-topshiriq.** Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni joriy etishning afzalliklari va kamchiliklarini bayon eting.

Afzalliklari	Kamchiliklari

**3-topshiriq.** Test topshiriqlari.

**1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya fani qanday fan?**

- A) Yangi metodlar o'rgatuvchi
- B) Pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayoniga noma'lum bo'lgan o'zlashtirish
- D) Yangilikni yaratish qonuniyatlarini o'zlashtirishni, va targ'ib targ'ibotni o'rganadigan fan
- E) O'qituvchilar uchun malakali dars

**2. "Innovatsiya" so'zining lug'aviy ma'nosini aniqlang**

- A) Yaratish
- B) Aloqadorlik
- D) Yangilik
- E) Mohirlik

**3. Innovatsion jarayon nimadan boshlanadi?**

- A) Yangi g'oyaning paydo bo'lishidan
- B) Yangilikning kashf etilishidan
- D) Loyihaning maqsadini qo'yishdan
- E) Yangilikning qabul qilinishidan

**4. Ta'lim jarayonidagi eng keng tarqalgan innovatsiyalar qaysilar?**

- A) Interfaol metodlar, xorijiy tillarni o'qitish, STEAM, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)
- B) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), interfaol metodlar, PISA, o'yin texnologiyalari
- D) Ijtimoiy loyihalar, dizayn va tadqiqot faoliyati, o'yin

texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

E) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim, dizayn va tadqiqot faoliyati, o'yin texnologiyalari

**5. Innovatsiyaning maqsadi nima?**

- A) Fanga kiritilgan o'zgarishlarni tasniflash
- B) Faoliyatni yo'nalishlar bo'yicha boshqarish
- D) Sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat
- E) Fanlararo aloqadorlikni oshirish

Savol	1	2	3	4	5
Javob	B	A	D	E	A

**4-topshiriq.** Chalkashlik (dam olish daqiqasi sifatida)

**Maqsad:** Ishitirokchilar kayfiyatini (tonusini) ko'tarish va ishtirokchilarni jipslashtirish.

Ishitirokchilar doira bo'lib turishadi va o'ng qo'llarini doira markaziga yo'llagan holda cho'zadilar. Boshlovchi signali bilan ishtirokchilar o'zlariga "qo'l ushlashga sherik" topadilar. Ishitirokchilar soni juft bo'lishi lozim. Keyin hamma ishtirokchilar chap qo'llarini cho'zib "qo'l ushlashga sherik" topadilar. (shunisi juda muhimki, bu oldingi qo'lini ushlagan odam bo'lmasligi kerak) Endi ishtirokchilar vazifasi joylariga qo'llarini ushlagan holda chalkashib, doira shaklida qo'llarini quyib yubormagan holda saflanishlari kerak. Vazifani yanada qiyinlashtirish mumkin, bu shuki o'yin vaqtida hech qanday ovoz chiqarmaslik, muloqot bo'lishi man etiladi.

**Talabani baholash mezonlari:**

- 1. Talabanning mimikasi va pontomimikasi
- 2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi
- 3. Ko'rgazmalilik va reglament –

## NAZORAT SAVOLLARI

1. "Innovatsiya", "Innovatsion faoliyat", "Innovatsion jarayon", "Novatorlik" tushunchalarini izohlang.
2. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda innovatsiyaning ahamiyatini tushuntiring.
3. Innovatsiyaga asoslangan dars qanday bo'ladi?
4. Innovatsion texnologiyalardan qaysilarini bilasiz?

## XXVII. INNOVATSION MUHIT, INNOVATSION TA'LIM



**Maqsad:** talabalarga innovatsion muhit va innovatsion ta'lim haqida bilim berish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash kompetensiyasini shakllantirish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.

### Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:

- talabalarning davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
- o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
- mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqilshug'ullanishi;
- bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
- mazkur mavzu bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;

### 1-topshiriq. O'rganing va muhokama qiling.

"Innovatsion ta'lim" deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bog'liq. Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga;
- pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;
- ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;
- o'quv-metodik ta'minotiga;
- tarbiyaviy ishlar tizimiga;

- o'quv reja va o'quv dasturlariga;
- o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga bog'liq.

2-topshiriq. "Tushunchalar izohi" jadvalini to'ldiring.

Mazmuni	Tushuncha	Ta'lim jarayonidan misollar
	Innovatsiya	
	Innovatsion muhit	
	Innovatsion ta'lim	
	Innovatsion jarayon	

3-topshiriq. Innovatsion ta'limga asoslangan bir soatlik dars ishlanmasi tuzing.

**Talabani baholash mezonlari:**

1. Talabaning mimikasi va pontomimikasi
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi
3. Ko'rgazmalilik va reglament –

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Ta'limda innovatsion jarayonlarning o'rnini nimada?
2. "Innovatsiya", "Innovatsion ta'lim", "Innovatsion muhit" tushunchalarini ta'riflab bering?
3. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" ni qanday tushunasiz?

## XXVIII. AN'ANAVIY VA INNOVATSION TA'LIMNING INTEGRATSIYASI



**Maqsad:** talabalarga an'anaviy va innovatsion ta'limning farqi, o'xshashliklari, integratsiyasi haqida bilim berish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash kompetensiyasini shakllantirish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.

**Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:**

1. talabalarining davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
2. o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
3. mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishi;
4. bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
5. mazkur mavzu bo'yicha talabalarining o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;

1-topshiriq. O'rganing va muhokama qiling.

**An'anaviy ta'limda:**

Talabalar tayyor bilimlarni oshkor qilmasdan uning haqiqatini isbotlash orqali egallaydilar Bilimlarni o'zlashtirish va takror ishlab chiqarish va ularni o'xshash vaziyatlarda qo'llash nazarda tutiladi.

**Afzalliklari:**

1. qisqa vaqt ichida jamlangan shaklda talabalarni fan asoslari bilimlari va faoliyat uslublari namunalarini bilan qurollantirish imkonini beradi;
2. bilimlarni o'zlashtirishning mustahkamligini va

- amaliy ko'nikma va malakalarning tez shakllanishini ta'minlaydi;
3. bilim va malakalarni o'zlashtirish jarayonini bevosita boshqarish bilimda bo'shliqlar paydo bo'lishining oldini oladi;
  4. assimilyatsiyaning kollektiv tabiati aniqlash imkonini beradi tipik xatolar va ularni bartaraf etishga e'tibor qaratadi va hokazo.

#### **Kamchiliklari:**

1. fikrlashdan ko'ra xotiraga ko'proq e'tibor qaratish ("xotira maktabi");
2. ijodkorlikni, mustaqillikni, faollikni rivojlantirishga ko'p hissa qo'shmaydi;
3. axborotni idrok etishning individual xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmagan;
4. o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarning subyektiv-ob'ektiv uslubi ustunlik qiladi

**"Innovatsion ta'lim"** deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bog'liq. Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga;
- pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;
- ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;
- o'quv-metodik ta'minotiga;
- tarbiyaviy ishlar tizimiga;
- o'quv reja va o'quv dasturlariga;
- o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga bog'liq.

#### **2-topshiriq. Yalpi "Fikrlar hujumi".**

Bu metod J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan.

U katta guruhlarda (20 dan 60 tagacha bo'lgan) yangi g'oyalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5-6 kishidan iborat guruhlariga bo'linadi va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda to'g'ri "Fikrlar hujumi" o'tkazadi. Shundan so'ng har bir kichik guruh vakili o'z guruhlariga ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot beradilar va o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib unga baho beradilar va ulardan eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi.

#### **Talabani baholash mezonlari:**

1. Talabanning mimikasi va pontomimikasiga
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi
3. Ko'rgazmalilik va reglament —

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. An'anaviy ta'limning afzallik va kamchiliklarini ayting.
2. Innovatsion ta'limning xususiyatlarini yoriting.
3. An'anaviy va innovatsion ta'limni tahlil qiling.

## XXIX. SAVOD O'RGATISH JARAYONIGA INNOVASTION YONDASHUV



**Maqsad:** talabalarga savod o'rgatish jarayoniga innovatsion yondashuv haqida bilim berish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash kompetensiyasini shakllantirish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konsept.

### Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:

1. talabalarning davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
2. o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
3. mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishi;
4. bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
5. mazkur mavzu bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;
6. keyingi amaliy mashg'ulot uchun topshiriq berish.

### 1-topshiriq. O'rganing va muhokama qiling

Savod o'rgatish jarayoni Analitik-sintetik (tahlili-tarkib) tovush metodida savod o'rgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu jarayon quyidagi 2 davrga bo'linadi:

- A. Alifbogacha tayyorgarlik davri (1 hafta).
- B. Alifbo davri (31 dekabr gacha davom etadi).

Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o'quvchilarni maktab, sinf, tartib-intizom qoidalari va o'quv qurollari bilan tanishtirish, nutq o'stirishga oid mashqlar o'tkazib, fonematik eshitishni o'stirishdan iboratdir. Bu

bosqichda o'quvchilarga og'zaki va yozma nutq haqida, gap, so'z, bo'g'in va tovushlar haqida, nutqning gaplardan, gaplarning so'zlardan tuzilishi, so'zlarning bo'g'inlarga bo'linishi, bo'g'inlarning tovushlardan tashkil topishi haqida ma'lumot beriladi, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o'rgatiladi, ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalari hosil qilinadi.

Alifbo davri O'quvchilarning tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar o'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash, bo'g'indan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan bo'g'in tuzish va o'qish, bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili kabi mashqlardan foydalaniladi. Bu davrda bo'g'inlab o'qish asosi shakllantiriladi.

**2-topshiriq.** Quyidagi dars ishlanmani tahlil qilgan holda Alifbe darsidan innovation yondashuvga asoslangan dars ishlanma tuzing.

### Dars mavzusi: Q tovushi Q q harflari

#### Maqsad:

- a) ta'limiy: O'quvchilarga davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim berish, o'quvchilarni Q tovushi va q harflari bilan tanishtirish, q tovushining undosh tovushlar sarasiga kirishini amaliy va elementar nazariy jihatdan tushuntirish.
- b) tarbiyaviy: Dars orqali o'quvchilarni ma'naviy bilimlarini kengaytirish, vatanga, ona tabiatga muhabbat, jonivorlarga g'amxo'rlik ruhida tarbiyalash
- c) rivojlantiruvchi: o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqlarini, bog'lanishli nutqlarini o'stirish.

**Tayanch kompetensiyalar:** Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko'rsatilgan multimediyaviy ilovalariga ongli munosabat bildirish.

### **Fanga oid kompetensiyalar:**

Adabiy nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish.) hikmatli gap, hikoya, she'r va ixcham audio matnlarini tinglab tushuna oladi; ularni ongli, ifodali to'g'ri o'qiy oladi.

**Dars jihozi:** Darslik, Alifbe elektron darslik, televizor, noutbuk, kesma harflar, turli rasmlar ko'rgazmalar;

**Dars usuli:** Analitik – sintetik tovush metodi, Savol-javob guruhlar ustida ishlash, interfaol usullar;

**Fanga bog'lash:** tarbiya, texnologiya, yozuv, ingliz tili, hayot

**Kasbga yo'llash:** O'qituvchi, rassom;

**Dars turi:** Yangi bilim beruvchi. Ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars.

### **I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish, davomatni aniqlash.

O'qituvchi: Sinfda kim navbatchi?

Navbatchi: Sinfda men navbatchi

Ustozimga yordamchi,

Pok tutaman xonani

Hamda yozuv taxtani.

Ustozimiz shod bo'ling

Bugun hamma shu yerda

Darsingizni miriqib, eshitish umidida.

O'qituvchi: Endi sinfdagi o'quvchilar bilan tanishib olarniz.

"Zanjir" o'yini orqali o'quvchilar ismlarining bosh harfi bilan boshlanadigan sifatlarini aytadilar.

O'quvchilar: Ahrorbek-a'lochi, Madina-mehnatkash, Saïda-sadoqatli, .....

O'qituvchi: Sizlarga savol beraman, javobini aytasiz.

1-savol. Kechqurun yo'llarimizni yoritib turuvchi osmon jismi?

(Oy)

2-savol. Hamma insonlar uning uvog'ini ham ko'zga surtib qadrlaydigan ne'mat? (Non)

3-savol. Inson tug'ilganidan keyin ilk bor eshitadigan onalar qo'shig'i? (Alla)

4-savol. So'zlarni talaffuz qilganimizda faol ishtirok etuvchi nutq organlaridan biri?(Til)

5-savol. Insonni Yuksaklikka ko'taruvchi narsa? (Ilm)

6-savol. Issiqxonlarda yetishtiriladigan meva? (limon)

7-savol. Insonni eng yaqin sodiq do'sti hisoblanuvchi hayvon? (It)

8-savol. Bizning vatanimiz qayer? (O'zbekiston)

9-savol. Bizning viloyatimiz qayer? (.....)

10-savol. O'zbekistonning poytaxti qayer? (Toshkent)

11-savol. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin nimalarga ega bo'ldi? (Bayrog'i, madhiyasi, gerbi, qomusiga)

12-savol Bu yil qanday yil deb e'lon qilindi?

13-savol. Alifboda nechta harf bor? (29)

14-savol. Tovushlarni nima qilamiz? (eshitamiz, aytamiz)

15-savol. O'zbekiston qachon mustaqil deb e'lon qilindi? (1991-yil 31-avgustda)

16-savol. Rassom nima qiladi? (Rasm chizadi)

17-savol. Odob-ahloq haqidagi fan... (Tarbiya)

18-savol. Bayroq qabul qilingan kun... (18-noyabr)

19-savol. Madhiyamiz muallifi... (A.Oripov)

20-savol. Ingliz tilida sanang.

O'qituvchi: She'riyat olarniga sayohat qilsak bunda vatanni madh etuvchi she'rlardan eshitamiz. Shu paytda vatanimiz haqidagi video rolik namoyish etib qo'yiladi:

Muazzam:

Vatan – so'zi naqadar aziz,

Vatan – qadami bunchalar qutlug'.

Tillar ham ojiz uni aytganda,

Sevinchga tulaman she'rlar bitganda.

Begoyim:

Vatan ostonang erur tillodan,

Chunki zaminigda jasurlar yotur

Vatan sen uchun Navoiylaring,

Jannat bog'larida g'azallar bitur.

Malika:

Vatan – madingni kuylayman men ham,  
Shamolda tebrangan tetik gul kabi.

Vatan – ertangni o'ylayman men ham,  
Intilgan bolaning orzusi kabi.

O'qituvchi: 5 tashabbus nima?  
O'quvchilar she'riy usulda javob beradilar:

Mashhura:

Dunyolarni egallab,

Cho'qqilarga chiqdik biz.

Yurtboshimiz madadkor,

Qo'llar beshta tashabbus.

Shodiyor:

Musiqa chal, she'rlar yoz,

Sen hohlasang rasm chiz.

Aktyor bo'lmoqchimsan,

Qo'llar beshta tashabbus.

Elbek:

Sport bilan shug'ullan

Boks, tennis, suvda suz

Jismonan chiniqasan

Qo'llar beshta tashabbus.

Hayotbek:

Kompyuter asri bu

Kerakli dasturlar tuz

Xalqqa tegsin zo'r foydang

Qo'llar beshta tashabbus.

Shohruh:

Kitob nurdur ilmning

Dengizida sho'ng', suz,

Boshqarasan dunyoni

Qo'llar beshta tashabbus

Shahnoza:

Bizda hamma teng erur

Teng huquqli yigit – qiz

Bo'sh o'tirma tik, pishir

Qo'llar beshta tashabbus.

## II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash

Pul P'il-la Poy-ga Pi-yo-la Pos-bon Par-da

1. P harfli so'zlarni o'qitish. Slayddan so'zlar o'qitiladi:
2. O'qib bo'lgan o'quvchilar navbat bilan xattaxtaga chiqib, rasmlardagi narsalar nomini yozadilar. To'g'ri yozgan o'quvchilar daraxtdagi olmalardan olib, tipratikanga olib beradilar.
3. "Bilasanmi?" matnini o'qitish.

## III. Yangi mavzu bayoni

Yozuv taxtasiga yangi mavzu yoziladi.

### Yangi mavzu: O tovushi va Oq harflari

qa	qi
qo	qe
qu	oq

O'quvchilarga Qq tovushining talaffuzi, bo'g'inlar va so'zlarning talaffuzini analitik sintetik tovush metodi bilan multimediyaga ilovasi orqali tushuntirish. Bosma bosh harfi Q va kichik q harflarini qiyoslash, farqli tomonlarini izohlash, q tovushi undosh tovush ekanligini tushuntirish. Slayd orqali bo'g'in va so'zlarni o'rgatish.

**Darslik bilan ishlash.** Darslikdagi bo'g'inlar, so'zlarni va maqollarni o'qib kelgan o'quvchilarga navbat bilan o'qitish. „Kitob“ she'ri o'qib berish. Mazmunini tushuntirish. Slayd orqali „Bolaga kitob bering“ qo'shig'ini eshittirish.


#### IV. Mustahkamlash.

- Dam olish daqiqasi. Monitor orqali musiqa eshittiriladi. O'quvchilar birgalikda raqsga tushadilar.
- „Davom ettir“ o'yini orqali o'quvchilarga o'qitish.
- O'quvchilarni rag'batlantirish.
- O'quvchilarni baholash.

#### VI. Uyga vazifa.

O'qib, o'rganish.

#### 3-topshiriq. Fikrlang.



#### Talabani baholash mezonlari:

- Talabani mimikasi va pantomimikasiga -
- Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi -
- Ko'rgazmalilik va reglament -

## NAZORAT SAVOLLARI

- An'anaviy ta'limning afzallik va kamchiliklarini aytning.
- Innovatsion ta'limning xususiyatlarini yoritning.
- An'anaviy va innovatsion ta'limni tahlil qiling.

## XXX. ONA TILINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV



**Maqsad:** talabalarga ona tili darslarida innovatsion yondashuv haqida bilim berish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash kompetensiyasini shakllantirish.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.

#### Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:

- talabalarining davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
- o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
- mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishi;
- bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
- mazkur mavzu bo'yicha talabalarining o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;
- keyingi amaliy mashg'ulot uchun topshiriq berish.

#### 1-topshiriq. O'qing va tahlil qiling.

„Ona tili“ nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan fandir. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy,

tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqarobaholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnning tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgarlar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish.

**2-topshiriq.** Ona tili fanidan bir soatlik tuzing.

**3-topshiriq.** Tuzgan dars ishlanmangizda qanday innovatsion metodni qo'lladingiz va vaqt taqsimotiga e'tibor berdingizmi?

**Talabani baholash mezonlari:**

1. Talabanning mimikasi va pantomimikasiga –
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi –
3. Ko'rgazmalilik va reglament – 2

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi qachondan joriy etildi, mazmunini yoriting.
2. Ona tili darslariga innovatsion yondashuvni nimalarda ko'rish mumkin?
3. Ona tili darslarini qaysi fanlar bilan integratsiyalash samarali bo'ladi deb hisoblaysiz? Nima uchun?

## III QISM

# SEMINLAR MASHG'ULOTLARI

## XXXI. O'QISH DARSINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSIYADAN FOYDALANISH

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda asosan talabalarning mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Amaliy mashg'ulotlardan farqi topshiriq yoki vazifalarni talabalarining o'zlarini individual yoki guruh bo'lib bajarishadi.

### 1-topshiriq. O'rganing va muhokama qiling.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki, uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa fanlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnini to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standard (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlarga yo'l ochiladi. O'qish darslarida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofigimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umum rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan,

eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: izohli o'qish nima? Izohli o'qishga XIX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarni "ongli, tushunib, o'ylab o'qishga" o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni "izohli o'qish" deb nomlaydi.

Professor Asqar Zunnunov o'qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yurilib, o'quvchilarning oldin bilimlarni o'zlashtirishiga, so'ng yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o'qish deb nomlanganini ta'kidlaydi. Demak, izohli o'qish deb o'ylashga, his qilishga, asarni to'liq idrok qilishga, o'qilganing mazmunini o'zlashtirishga olib keladigan o'qishga aytiladi. Izohli o'qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani anglashni ta'minlaydi.

### Izohli o'qish quyidagi tamoyillarga to'liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo'ladi:

- o'qishni hayol bilan bog'liq holda tashkil etish;
- o'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish;
- o'qishni ko'rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olarni va o'simliklar dunyosini kuzatish;
- rasmlar, javdallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnini o'quvchining ifodali o'qishi tarzida olib borish.

6.5. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o'qishga yaqin bo'lgan metodlardan biri ijodiy o'qishdir. Atoqli melodist olim N. I. Kudryashov ijodiy o'qish metodi tarkibiga quyidagilarni kiritadi:

- a) o'qilgan asardan o'quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo'lgan va ularning diqqatini matnning muhim g'oyaviy va badiiy hususiyatlari sari yo'naltiradigan suhbat uyushtirish yoki o'qilgan asardan kelib chiqadigan badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo'yilishi;
- b) o'qituvchining asar o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq qilish jarayonida tug'ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi metodlari.

Ko'rinadiki, ijodiy o'qish izohli o'qishdan farqli o'laroq, to'g'ridan-to'g'ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan, 4-sinfda A. Oripovning "Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi" asarini ijodiy o'qish metodi asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va shoir g'oyaviy niyatidan kelib chiqib Vatanimiz hududlaridagi aholining yashash tarzi bilan bog'liq milliy xususiyatlar haqida ham atroflicha tushuncha beriladi. 2-sinfda "O'tinchi yigit", 3-sinfda O'tkir Hoshimovning "Xazonchinak", 4-sinfda S. Anorboyevning "Qo'rzoq" asarlarini ham ijodiy o'qish metodi asosida o'qitish ijobiy samaralar beradi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turlituman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchitomonidan ta'lim oluvchilarning

qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Oliy talim tizimida seminar va amaliy mashg'ulotning bir-biridan farqi?
2. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili va o'qish fanlari qachondan bitta fan sifatida o'tilishni boshladi va buning sababi nima?

## XXXII. TARBIIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

**1-topshiriq.** Quyida keltirilgan tushunchalarga uch tilda lug'at yozing.

Pedagogika, tarbiya, ta'lim, shakl, metod, vosita, boshqaruv, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya.

**2-topshiriq.** O'rganing va muhokama qiling.

«Tarbiya» fani o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo'lgan yoki profilaktik ro'yxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ishlash tizimini takomillashtirish kabi murakkab masalalarni hal etishda ko'makchi vazifasini o'taydi.

Men yangi avlodni voyaga yetkazishda, ta'lim-tarbiya berishda eng mas'uliyatli vazifa biz o'qituvchilar zimmasida turibdi, deb o'ylayman. Zero, «Tarbiya» fani o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtinimazmunlitashekilletish, milliy, ma'naviyvaumuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilish, o'zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

«Tarbiya» fanini o'qitilishini tashkil qilish va bu borada an'anaviy hamda zamonaviy usullardan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Har qanday faoliyat ma'lum maqsadni ko'zlaydi va unga yetkazuvchi vositaga tayanadi va muayyan natija beradi.

**3-topshiriq.** «Innovatsion yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etish» mavzusiga doir blits so'rov savollari:

1. Gumannistik pedagogika nima?
2. Tarbiyaviy texnologiya turlari mazmuni haqida

gampirib bering.

3. Interfaol metodlarni anab bering?
4. Ta'limning texnik vositalari nima?
5. V.F. Shatalov-bahoni o'quvchi uchun ahamiyati haqida qanday fikr bildirgan?
6. Modulli o'qitish nima?
7. Odimlovchi o'quv tadbiri nima?
8. Innovatsiya nima?
9. Innovatsion texnologiyalar asosida dars o'tishning afzalliklari nimada?

**4-topshiriq.** «Innovatsion yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etish» mavzuiga oid 5 ta oddiy test, 5 ta murakkab test tuzing.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. «Tarbiya» fani umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tila boshlandi?
2. «Tarbiya» fani qaysi fanlarning o'rniga joriy etildi?
3. «Tarbiya» fanida innovatsion ta'limdan foydalanish samaradorligi qanday?

## XXXIII. TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

### 1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Texnologiya fani bizga nima uchun kerak?
2. Siz ushbu fan orqali nimalarga erisha oldingiz?
3. Texnologiya fani bolalarga tarbiyasiga ta'siri xususida fikrlaringizni bayon eting?

### 2-topshiriq. O'qing va o'rganib fikrlaringizni bayon eting.

"O'quvchilarni mehnat va kasb olarniga olib kirish borasida "Texnologiya" fani muhim o'rin tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, maktabni o'z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, umumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish va ta'lim bilan qo'shib olib borish, o'quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar. Texnologiya fani predmetlari, qurollari, jarayonlari oddiy o'rganish obyekti sifatida emas, balki o'quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fani o'quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o'rgatadi.

Texnologiyafaninio'rganishmateriallar, ularningxossalarni o'rganishdan hamda ushbu materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib ulardan turli buyumlar tayyorlashdan iborat bo'ladi. Ushbu jarayon o'qituvchilardan texnologik bilimlarni qo'llash, kreativ va texnik fikrlash orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini tahlil etish va o'quvchilarga kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat. O'quvchilarni yoshligidan mehnatga o'rgatish kelajak hayotlarida juda katta samara beradi. Bunda

mehnat ko'nikmalari bilan birga o'quvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarni ham shakllantirish zarur.

Mashhur idealist faylasuf E.L.Radlov tomonidan yigirmanchi asr boshidagi eng obro'li falsafiy lug'atlardan birida ijodkorlik biror narsaning yaratilishi bilan bog'liqligi, yaratilish qobiliyati xudoga eng xos bo'lganligi va odam faqat nisbatan ijodiy harakatlarni bajarishi mumkin. Bunday bayonotlar bilan bir qatorda, ijodiy jarayon tarkibida ongsiz jarayonlarning mavjudligiga e'tibor qarattildi. Keyinchalik ijodkorlikning har xil turlarini ilmiy o'rganish o'zgartirgan sari, umuman unga bo'lgan munosabat ham, ijodga berilgan ta'riflar ham o'zgardi. So'nggi paytlarda, asosan, yangi mahsulotning yaratilishi ilgari bo'lmagan ijodkorlik bilan bog'liqligiga e'tibor qarattildi; ijodkorlik inson faoliyatining turli sohalarida, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar vujudga kelganda namoyon bo'ladi.

Ijodkorlik – bu ma'lum bir mavzu uchun ilgari noma'lum narsani yaratishga, kashf etishga hissa qo'shadigan faoliyat. Yana bir nuqta ijodiy faoliyat ko'larni bilan bog'liq. Ijtimoiy amaliyotda, qoida tariqasida, ijodkorlik kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya kabi yangilik toifalari bilan o'lchanadi. So'nggi paytlarda tashkiliy va texnologik jarayonlarga yangilik kiritish bilan bog'liq innovatsion (innovatsion) faoliyat haqida ko'p narsa aytili. Ammo bunday faoliyatni ratsionalizatsiya deb atash mumkin.

Ratsionalizatsiya – mavjud texnologiyalardan foydalanishni yaxshilash uchun (biz faqat texnik muammolarni hal qilish bilan bog'liq jihadni olarniz). Shunday qilib, biz buni aytishimiz mumkin: ixtirochi, birinchi navbatda, yakuniy effekt, funktsiya, dizayner – funktsiyani bajaruvchi qurilma va ratsionalizator bilan qiziqadi – tugallangan qurilmadan ba'zi shaxsiy maqsadlar uchun yanada oqilona foydalanish.

Ratsionalizatorlik taklifi – bu ma'lum bir muammoning mahalliy (umumiy ahamiyatga ega bo'lgan ixtirodan farqli o'laroq) yangi o'ziga xos muhitda (masalan, zavodning ba'zi ustaxonalarida) ishlashini yaxshilash uchun ma'lum bir

muammoning echimi. lekin butun zavod miqyosida emas, balki eng ko'p ishlab chiqarish). Ma'lum hollarda ratsionalizatorlik taklifi ixtiro bo'lishi mumkin. Dizaynni ixtirochi va ratsionalizatorlik faoliyatiga "bog'lab qo'yish" mumkin, agar ularni amalga oshirish uchun ma'lum dizaynlarni yaratish zarur bo'lsa. Ixtiro, dizayn va ratsionalizatsiya o'rtasidagi amaliy farqni har bir faoliyatning maqsadlari xarakteridan izlash kerak.

Loyiha – bu talabalar tomonidan amalga oshiriladigan intellektual va amaliy xarakterdagi ijodiy yechim. O'qituvchi rahbarligida bajariladigan talabalarning mustaqil ishlari. Agar biz ijodkorlikning ishchi ta'rifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uni yangi muammolarni hal qilish yoki ilgari hal qilingan muammolarni hal qilishning yangi usullarini topish, ishlab chiqarishda yuzaga keladigan turli-xil muammolarni, vaziyatni qiyinchiliklarni hal qilish bilan bog'lash maqsadga muvofiq ko'rinadi. Yangi muammoning ijodiy yechimining tuzilishini ko'rib chiqishdan oldin, texnik ijodiyot turlari haqida umumiy ma'lumotga to'xtalib o'tamiz. Kasbiy ijod turlariga ixtiro, qurilish, ratsionalizatsiya, dizayn kiradi. Texnik ijodkorlikning barcha turlari o'rtasida yaqin munosabatlar mavjud.

Texnologiyaning jadal rivojlanishining birinchi davrida bunday bo'linish kuzatilmadi va ilmiy adabiyotlarda asosan ixtirochilik faoliyati haqida so'z yuritildi. Hozirgi vaqtda kashfiyot, ixtiro va ratsionalizatorlik taklifining ilmiy va amaliy bo'linmasi mavjud bo'lib, ular nafaqat texnik ob'ektlarga nisbatan amalga oshiriladi. Shunday qilib, kashfiyot deganda, ilgari noma'lum bo'lgan ob'ektiv mavjud bo'lgan mulk yoki hodisani o'rnatish tushuniladi. Ishlab chiqarish, madaniyat va boshqalar uchun ijodiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoning yangi yechimi deb nomlangan ixtiro. Ixtirolar konstruktiv (qurilmalar), texnologik (usullar) va yangi moddalarni yaratish bilan bog'liq bo'linadi.

Texnologiya fani bizga ta'lim tizimining yangi sohalariga qadam qo'yishga bo'lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga yana yaqqol misol tariqasida mehnat ta'limi fani texnologiya faniga o'zgartirilganligidir. Buning asosiy sababi mehnat so'zi keng ma'no va tushunchaga ega bo'lib hozirgi texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonamizga to'g'ri kelmaydi. Texnologiya ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish lozim. Lekin bu sohada yuqori darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik baza zamon talablariga javob berishi lozim. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnologik savdonilikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas;
- texnologiya fanini o'qitishda metapedmet kompetensiyalar va fanlararo bog'liqlikning kamligi;
- texnologiya fani me'yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftar va o'qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi;
- texnologiya fani mazmuniga mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika kabi O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo'ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo'lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarning kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda; - o'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun o'quvchilarda zamonaviy texnika, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi taktik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan jihoz va uskunalarning yetishmasligi.

**2-topshiriq.** 4-sinf "Texnologiya" fanidan innovatsion yondashuvga asoslangan dars ishlanma tuzing va amaliyotga tadbiriq eting.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Texnologiya darslarida innovatsion yondashuv nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Texnologiya fani qaysi fanlar bilan integratsiya qilinadi?

## XXXIV. MUSIQA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

### 1-topshiriq.

Umumta'lim maktablarining quyi sinflarida musiqa darsini tashkil etish jarayoniga yangi o'zgarishlar kiritishni zamonning o'zi talab etmoqda. Ayniqsa, maktabda musiqa madaniyati darsini tashkil etishda innovatsion yondashuvni joriy etish muammosining mavjudligi qator vazifalarni aniqlash imkonini beradi.

Musiqiy ta'lim har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Badiiy tasvir, ijodkorlik va ilhom baxsh etgan musiqa o'ziga xos tushunchadir. U bolalarda noan'anaviy fikrlash, ijodkorlik hissi va dunyoni aks ettirish qobiliyati, mustaqil hayotiy pozitsiyani shakllantiradi. Musiqa darslarida innovatsion dasturni qo'llash uchun bir qancha omillarni asos qilib olish mumkin. Bu, asosan, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni o'qitish jarayonida asosiy fikrlarni aniqlash imkoniyatini vujudga keltiradi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash bugungi kunda ko'p mezonlarga muvofiq yangilanishi zarur.

Musiqa darsida o'quv jarayonini tashkil etishda, avvalo, o'qituvchi hissiy(psixologik) atmosferaga ta'sir o'tkazishi kerak. O'qituvchi va o'quvchilar mashg'ulot jarayonida o'zaro do'stona hamda ijodiy munosabatga kirishadi. Eng avvalo, o'qituvchi o'quvchilarning umumiy psixologiyasini chuqur o'rganishi kerak. Yangi mavzuni zavq bilan o'tishi, "o'qituvchi-do'st", "o'qituvchi-hamkor" formulasi orqali darsda ijodiy muhit yaratish eng samarali yo'lidir. Dars yakuniga qadar o'qituvchi faqatgina o'zi so'zlashi, o'quvchilarni muloqotga undamasligi aslo mumkin emas. O'qituvchi o'zi berayotgan yangi ma'lumotga o'quvchilardan qo'shimcha ma'lumot ham talab etishi kerak. Chunki bugungi davr o'quvchilari uzluksiz internet tarmog'i orqali ko'plab yangiliklardan xabardor bo'lib turadi.

Hayotimizni musiqasiz tasavvur etolmaymiz. Uyda, maktabda, ko'cha-ko'ya turli musiqalarni eshitamiz. Ammo beixtiyor o'z istaklarimizga ko'ra ularni tanlaymiz. Masalan, bolalarni klassika bilan tanishtirish, ularda bu janrga muhabbat uyg'otish va konsert zallarida tinglash mumkin bo'lgan musiqa ekanligini tushuntirish mumkin. Bunda klassik, pop, rok janrlarining tarkibiy qismini aks ettiradigan asarlarni tanlashimiz samara beradi. Ushbu uslublar yordamida bolalar o'zlarining ruhiga yaqin ritmlar orqali mumtoz musiqa bilan tanishadi. Qo'shiqni o'rganish va uni ijro etish jara-yonida innovatsion yondashish ham mumkin. Bugungi kunda bolalar o'zini haqiqiy san'atkor kabi his etish imkoniyati mavjud. Ular dars davomida fonogramma(minus) asosida qo'shiq kuylashi mumkin.

Musiqa darsining ijod namunasini ekanligini tushunish va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun bunday dars texnik jihatdan jihozlangan sinfda (kompyuter, audio tizim, konsol, mikrafonlar va boshqalar) yorug'xonada o'tkazilishini ta'minlash zarur. Zamonaviy musiqa darsining bu kabi ko'rinishi – XXI asrning musiqiy sabog'idir.

Bugungi kunda musiqa darsiga qo'yiladigan talablar o'zgardi. Endi dars yangi shakllarni izlash tamoyiliga asoslanadi. Ushbu jarayonlarni chuqur his etgan o'qituvchi har bir darsga innovatsion tarzda yondashadi.

## 2-topshiriq.

4-sinf "Musiqa" fanidan innovatsion yondashuvga asoslangan dars ishlanma tuzing va amaliyotga tadbiiq eting.

Keyingi amaliy mashg'ulot uchun topshiriq: hemis.tdpu.uz portalidan 19-amaliy mashg'ulot ishlanmasini yuklab oling va topshiriqlarga tayyorlaning.

## Talabani baholash mezonlari:

1. Talabning mimikasi va pontomimikasiga –
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi –
3. Ko'rgazmalilik va reglament –

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Texnologiya darslarida innovatsion yondashuv nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Texnologiya fani qaysi fanlar bilan integratsiya qilinadi?

## XXXV. MAKTAB HUJJATLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH

**1-topshiriq.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi sifatida pedagoglik faoliyatiga kirishish uchun siz maktab hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish malakasiga ega bo'lishingiz lozim. O'qituvchi ish hujjatlarini o'rganib tahlil yozing.

**2-topshiriq.** Savollarga javob bering.

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy ish hujjati nimalardan iborat?
2. 5-6 yil va hozirgi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisining ish hujjatlaridagi tafovutlar nimalardan iborat?
3. Har bitta fan uchun oldindan bajariladigan konspektni hozirda rasmiylashtirish holati qanday?

**Talabani baholash mezonlari:**

1. Talabani baholash mezonlari: mimikasi va pantomimikasiga -
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi -
3. Ko'rgazmalilik va reglament -

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Texnologiya darslarida innovatsion yondashuv nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Texnologiya fani qaysi fanlar bilan integratsiya qilinadi?

## XXXVI. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MASOFAVIY TA'LIM

**1-topshiriq.** Masofaviy ta'lim tushunchasiga ta'rif bering va Markaziy Osiyo davlatlariga kiruvchi davlatlarda masofaviy ta'limdan foyalanish imkoniyatlari haqida ma'lumot bering.

**2-topshiriq.** An'anaviy va masofaviy ta'limni tashkil etish shakllari va turlari hamda ular orasidagi farqlar haqida fikrlaringizni bayon eting.

**Talabani baholash mezonlari:**

1. Talabani baholash mezonlari: mimikasi va pantomimikasiga -
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi -
3. Ko'rgazmalilik va reglament -

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Masofaviy ta'lim nima, uning qanday shakllari mavjud?
2. Masofaviy ta'lim shakllarining afzalliklari va kamchiliklari?

## XXXVII. MALAYZIYADA BOSHLANG'ICH TA'LIM

1-topshiriq. Jadvalni to'ldiring.

O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim	Malaziya boshlang'ich ta'lim
O'zbekistonda oliy ta'lim	Malaziya oliy ta'lim
O'zbekistonda oliy ta'limdan keyingi ta'lim	Malaziya oliy ta'limdan keyingi ta'lim

**2-topshiriq.** Yuqoridagi jadvaldan olingan ma'lumotlar asosida O'zbekiston va Malayziya ta'lim tizimidagi kamchiliklar va yutuqlarini aytib o'ting. Ta'lim tizimida qanday islohotlarni amalga oshirsak yuksalish bo'ladi?

**Talabani baholash mezonlari:**

1. Talabanning mimikasi va pontomimikasiga –
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi –
3. Ko'rgazmalilik va reglament –

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Malaziya ta'lim tizimi haqida gapirib bering.
2. Malaziya ta'limni tashkil etish shakllari nimalardan iborat?
3. Malaziya ta'lim tizimining afzalliklari va kamchiliklari haqida so'zlab bering.

## XXXVIII. KANADADA BOSHLANG'ICH TA'LIM



**Maqsad:** talabalarga Kanada ta'lim tizimi haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

**Kerakli jihoz va materiallar:** noutbook, proyektor, taqdimot materiallari, o'quv qo'llanmalar, test varaqalari, daftar konspekt.

**Amaliy mashg'ulotning tashkiliy tuzilishi:**

- talabalarning davomati va darsga tayyorlanish darajasini aniqlash;
- o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish;
- mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishi;
- bajarilgan amaliy ishlarining natijalarining nazorati;
- mazkur mavzu bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasini yakuniy nazoratdan o'tkazish;

**1-topshiriq.** Tahlil qiling.

O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim	Kanadada boshlang'ich ta'lim
O'zbekistonda oliy ta'lim	Kanadada oliy ta'lim

**2-topshiriq.** Kanadada ta'lim turlari qanday tartibda amalga oshiriladi?

